Мустаҳкам оила, обод турмуш, фаровон яшаш шароитларида оиласда болаларни соғлом, бақувват ва қобил (тартиб-интизомли) қилиб тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортдан мақсадли, самарали фойдаланишга қаратилган қатор илмий мақолалар ота-оналар учун хизмат қилиши мумкин (6, 7, 8).

3. Давлат таълим стандартлари таркибида “жисмоний тарбия” узлуксиз таълимнинг мухим тармоғи сифатида ўқув муассасаларида дарс шаклида ўқитилиши ўқувчи ёшларнинг жисмоний баркамоллигини тарбиялашда энг мухим усуулардан ҳисобланади. Ундаги машқ-ўйинларни дарсдан ташқари уй шароитида давом эттириш ва шу асосда жисмоний тайёргарлик, баркамолликни ривожлантириш тадбирлари диққат-эътиборга лойик бўлган амалий фаолият ҳисобланади. Бу йўлда мактаб ўкувчиларининг (V-IX синфлар) эътиқоди, муносабати ва эришаётган натижаларини қўйидаги кўрсаткичлардан билиш мумкин:

- жисмоний тарбия дарслари жуда қизиқ ва мазмунли ўтади (70-75%);
- ўқитувчининг кўрсатиши, сўз билан тушунтириши, турли воситаларни кўргазма равишда намойиш этиши барчани жалб этади (60-65%);
- ўғил ва қиз болаларнинг волейбол, баскетбол, қўл тўпи ўйинларини биргаликда (аралаш) бажариши айниқса қизикарли ўтади (55-60%);
- ҳаракатли ўйинлар, югуриш, сакраш (енгил атлетика), турник, нарвон ва ноанъанавий мосламаларда тортилиш, ошиб тушиш, тирмашиб чиқиш (гимнастика) эпчиллик, чаққонликни оширишда доимо қўлланилади (45-50%).

Ўқувчи ёшларнинг дарсдан кейинги бўш вақтларда дарсларда ўтилган машқ-ўйинларни қизиқиб яна давом эттиришлари кўпроқ вақт (уй иши, дарс тайёрлаш, телевизор қўриш, китоб ўқиш ва ҳ.қ.), шароит (ўйин майдонларининг мавжудлиги, об-ҳаво, хоҳиш) каби ҳолатлар билан боғлиқ бўлади.

Шу ўринда ўқувчи ёшларга (эрталаб гимнастика қилиш, дам олиш кунлари спорт билан шуғулланиш, саёҳатларга чиқиш борасида) савол берилганда, улардан олинган жавобларнинг натижалари қўйидагича бўлди:

- эрталабки соғломлаштириш гимнастика машқларини мунтазам равишда бажариб бориш (15-20%), дам олиш кунлари тенгдошлари билан футбол ўйнаш (30-35%), атроф-муҳитларга сайр-саёҳат қилиш (яқин ўртоқлари, синфдошлари билан – 10-15%) талаб даражасида эмаслиги, ота-оналар чеклаб қўйганлигини маълум бўлди;
- севган спорт тури бўйича тўғарак машғулотлари (20-25%), спорт мактабларида (10-15%) шуғулланиш даражалари ҳам юқори эмас;



- жисмоний тарбия ва спортга доир ўқув-услубий қўлланмалар (5-10%), журнallар (3-5%) ва газеталарни (15-20%) ўқиб, назарий билим эгаллашга интилевчилар ҳам озчиликни ташкил қиласди, чунки улар мактаб кутубхоналарида ва айникса уй шароитида деярли кам учрайди ёки умуман йўқ хисоби.

4. Оила муҳитида биргалашиб эрталабки соғломлаштириш машқ-ўйинларни бажариш, бўш вақтларда ўйин майдонларида турли машқ-ўйинларни бажариш, дам олиш куни сайрсаёҳатларга чиқиш, спорт мавзусида сұхбатлашиш, китоблар ўқиш, телекўрсатувларни кўриб бориш каби жисмоний тайёргарликни тарбияловчи назарий билим ҳамда амалий кўнилмаларга эътибор берувчи аҳоли тоифаларининг фаолиятларини куйидагича ифода этиш мумкин:

- тиббий ходимлар, давлат идоралари хизматчилари - 65-70%;
- ўқитувчилар, ижодкорлар (оммавий ахборот воситалари), маданият, санъат ходимлари – 55-60%;
- тижорат, савдо, банк-молия, иқтисод соҳасида хизмат қилувчилар - 30-35%;
- турли ишлаб чиқариш корхоналарнинг ишчи, хизматчи, техник ходимлари - 15-20%;
- қишлоқ ва сув хўжалиги меҳнаткаш, дехқонлари - 5-10%.

Мазкур турли кўрсаткичларнинг у ёки бу (объектив ва субъектив) сабаблари бор, албатта.

Умуман айтганда, юқорида қайд этилган тадбирлар (шуғулланиш, эътибор, муносабат) бўйича кўпроқ жисмоний тарбия ва спортнинг ижтимоий тарбиявий хусусиятларини билган, тушунган кишиларгина амалда бажариши табиий бир ҳол деса бўлади. Шу маънода уларга куйидаги саволларни беришга тўғри келди:

1. Инсон танасида нечта суяқ, қанча мушак ва асаб толалари бор? Жавоблар: а) жуда кўп - 80-85%; б) билмадим, бунинг нима аҳамияти бор - 65-70%.

2. Бир дақиқа давомида юрак неча марта уради, қанча нафас олиш мумкин, томир уриши орқали юрак фаолиятини қандай аниқлаш мумкин? Жавоблар: а) бу соҳага эътибор бермаганман-20-25%; б) билмадим, зарур бўлса шифокордан сўрайман - 60-65% в) 50-60%-респандентлар тинч ҳолатда юрак- 60-80 марта уради деган жавобни берди.

3. Эрталаб ва бўш вақтларда гимнастика ёки бошқа машқ-ўйинлар билан шуғулланасизми? Жавоблар: а) ха – 30-35%; б) баъзи пайтларда – 35-40%; в) йўқ – 50-55%.

4. Жисмоний тарбия машқ-ўйинлари билан уй шароитида шуғулланмаслигингизнинг сабаби нимада? Жавоблар: а) вақт етишмайди - 60-65%; б) нима қилишни билмайман – 40-45%; в) таним соғ, унга муҳтож эмасман – 30-35% ва ҳ.к.

Меҳнаткаш ишчи-хизматчилар, зиёли ва ижодкор ходимларнинг саволларга берган жавоблари уларнинг жисмоний тарбия таълими ҳақидаги назарий тушунчалари билан бевосита боғлиқ эканлигини билиш қийин эмас. Яъни бу соҳада аввалги эгалланган билим ва тушунчаларни унтиш, зарур манбалар, адабиётлардан мақсадли фойдаланишга эътиборнинг камлиги бўлса, ажаб эмас. Муҳими шундаки, оиласда аввало ота-оналар ва, қолаверса, барча аъзолар, айникса ўқувчи ёшларнинг одам танаси таркиби (анатомия), аъзоларнинг фаолияти (физиология), ҳаракатчанлик, иш қобилиятининг юқорилиги, руҳий ҳолатларнинг ўзгарувчанлиги, уларни ҳар қандай шароитда ҳам ижобий томонга буриш ҳолатларни (педагогика, психология) тўла билиш шарт. Бунинг учун эса:

- жисмоний тарбия таълими, жисмоний тарбия воситалари ва уларнинг инсон танасини ривожлантириш қонуниятларини билиш лозим бўлади;

- саломатликни яхшилаш, меҳнат қобилиятини кучайтириш, жисмонан баркамол бўлиш ўйларини шифокорлар, жисмоний тарбия мутахассислари билан мулоқотлар, сұхбатлар ўтказиш орқали ўзлаштириб олиш керак;

- оила бўлиб ҳар куни эрталабки соғломлаштириш машқ-ўйинларини бажаришга одатланиш зарур;

- уй шароитида шуғулланиш учун оддий шароитларга (тўп, чамбарак, арғамчи ва бошқа асбоб-ускуналарни сақлаш) эга бўлиш, ҳовли ёки болаҳонада (балкон) осилиб тортилиш, кураш, бокс, теннис, бадминтон ва бошқа машқ турлари билан шуғулланишга ноанъанавий мосламалар, жиҳозларни яратиш;

- машқлар бошланиши ва охирида ёки ўзини бошқача (чарча, оғриқ сезилиши, нафас қисилиши ва ҳ.к.) сезганда томир уришини ўлчаш ўйларини ўзлаштириш;

- енгил машқлар (юриш, юрганда қўл, гавда ҳаракати – бурилиш, эгилиш, силтаниш) бажариш йўли билан нафас олишни секинлаштириш, томир уришини дастлабки ҳолатга



келтириш усулларини амалга ошириш;

- дам олиш кунлари хиёбонлар, гўзал манзарали жойлар, истироҳат боғлари, диққатга сазовор манзиллар, энг муҳими эса оила бўлиб тоғли ҳудудларга сайр-саёҳатлар қилиш.

Хулоса қилиб айтганда, аввало ота-она маънавият ва жисмоний жиҳатдан баркамол бўлиши фарзандларнинг ҳам соғлом, қобил бўлиб ўсишларида асосий ўрин тутади. Шу сабабдан оила муҳитида барча тарбиявий жараёнлар мазмунидаги жисмонан соғлом, бақувват бўлишга, тетиклик, эпчиллик, чаққонлик каби сифатларга тўла эътибор бериш ҳозирги замонавий таълим мазмуни хисобланади. Бунинг учун эса бошқа манбалар каби жисмоний тарбия ва спорт соҳасидаги ўкув-услубий қўлланмаларни мунтазам ўқиб, мутолаа қилиб, оила аъзоларининг назарий билим ва тушунчаларини кенгайтириш зарур.

### **Адабиётлар**

1. ЎзРнинг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонуни, 1992, 2000.
2. ЎзРнинг “Баркамол авлод” йили давлат дастури, 2010.
3. ЎзРнинг “Мустаҳкам оила” йили давлат дастури, 2012.
4. Абдумаликов Р., Холдоров Х. Саломатлик омиллари ва аломатлари. Услубий қўлланма. Т., 2008.
5. “Замонавий таълим” журнали, №4, 5, 6. 2013.
6. Жисмоний тарбия ва спортнинг янги даврдаги муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Бухоро, 2013.
7. Узлуксиз таълим сифат ва самарадорлигини оширишнинг назарий-услубий муаммолари. Республика илмий конференция материаллари. Самарқанд, 2011.
8. Аёллар фан ва таълим тизимида. Республика илмий-назарий конференция материаллари. 24 май 2013 й. I-II қисм, Т.



## FIZIKANI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Bazarova Xilola

Norin tumani 11-maktab  
fizika fani o'qituvchisi  
Tel: +998993206378

**Annotasiya:** fizika fanini o'qitishning dolzarb muammolari haqida, pedagogic mahorat, yangi innovatsiyalar haqida, shuningdek darslarda foydalanish mumkin bo'lgan turli qiziqarli texnologiyalar haqida fikrlar keltirilgan

**Tayanch so'zlar:** Pedagogik mahorat, innovatsiya, „Event and Reason”(hodisa va sabab) innovatsion texnologiyasi,

„Pedagogik mahorat” tushunchasini ensiklopedik lug'atdan qarasak, bu ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirib yuksak darajaga olib chiqish san'ati. Buning uchun pedagog ishini va bolalarni sevishi va ularga bor mehrini berishi kerak. Buning uchun esa pedagog har bir darsni ilm-fan texnika hamda innovatsion texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda tashkil etishi kerak. Shu maqsadda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da alohida ta'kidlangan milliy model: O'zbekiston Respublikasi o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, unda ilg'or fan-texnika hamda innovatsion texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr – yetuk mutaxassis qiyofasini ifodalovchi xujjatdir. Innovatsiya (inglizcha “innovation”) – yangilik kiritish, yangilik degan ma'nolarni anglatadi. Bu termin hozirgi zamonda barcha sohalar qatori ilm-fan tarmoqlariga kirib keldi. Yanggi innovatsiyalarni joriy qilish birmuncha qiyin vazifadir. Buning uchun esa yuqorida aytganimizdek pedagogik mahoratga ega kadrlar kerak. Fizikani o'qitishda innovatsion texnolgiyalarning asosiy vazifasi sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- bo'lajak o'qituvchiga zarur bo'lgan pedagogik-psixologik fan adabiyotlari bilan samarali ishslashni ko'rsatish;
- dastur asosida o'quv materiallarni didaktik tuzush va takomillashtirib kamchiliklarni to'ldirib borish;
- o'qtishni eng samarali metodlari va usullarini ishlab chiqish, tekshirish, qo'llash;
- o'qitishda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan amaliyatda foydalangan holda kerakli metodik hujjatlarni (dars ishlanma, konspekt, ochiq dars, o'quv sayohatlari) tuzish;
- o'quvchini ijodkor, erkin fikrlovchi, komil va har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantiruvchi bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lish;

Fizikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar – pedagogik fanlardan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi va rivojlanishida ilmiy-nazariy ma'lumotlarni innovatsion metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga yetkazib berishdir. Shunday qilib fizika uzoq yillardan beri o'z ahamiyatini yo'qotmagan holda nazariy fan sifatida rivojlanib kelmoqda. Innovator o'qituvchi zimmasiga ma'sulyatlar yuklanadi, ya'ni joriy qilinayotgan yangilik nechog'lik samara beradi buni esa pedagogik tajribalar yordamida statistik ma'lumotlar yig'ish va qanday yutuqlarga ega bo'lish mumkin. Buning ortidan olingen natijalar innovator o'qituvchining ish faoliyatini rivojlanishiga katta yordam beradi. O'zbekistonda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda ta'lim tizimiga birinchilardan bo'lib kirdi. Ta'lim mazmuniga innovatsiya an'anaviy, noan'anaviy va masofaviy o'qitish turlarini kirib kelishi bilan izohlanadi. O'qitish tizimiga kirib kelgan innovatsiyalarni metodlarida, dars shakli, o'qitish turlari, o'qitish vositalarida ko'rishimiz mumkin. Demak o'qituvchi innovatsion faoliyatining eng muhim tavsifi bu – kreativlikdir. Fizika faniga „Event and Reason”(hodisa va sabab) innovatsion texnologiyasi. Ushbu texnologiya tinglovchiga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrini aniq qisqa holatda ifodalab tasdiqlovchi va inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam b eradi. Bu innovatsion o'yin biror bobni yoki bo'limni takrorlashda o'tkazish ma'qul. Turli hayotiy misollar bilan hodisani yoki qonunlarni tushuntirishda samaradorligi yuqori. O'quvchi bu o'yinda qatnashib tezkor fikrlashga, fikrlash tezkorligini oshiribgina qolmay, o'z xotirasini mustahkamlaydi. O'yin tezkor savol-javoblar asosida o'tkaziladi. Masalan



o‘qituvchining „tosh yerga tushdi sabab?” degan savoliga o‘quvchi yerning tortishish kuchini anglab yetadi. O‘qituvchi savollarni va javoblarni bir marta o‘qib beradi va uni yodlab qolish orqali xotirasini mustahkamlaydi. Javob berishda ikkilansa, ortiqcha va xato aytilgan so‘zlar, turli xil to‘xtalishlar uning o‘yinda mag‘lub bo‘lganini bildiradi. Bu innovatsion texnologiyaning afzalliklarini dars jarayonida qo‘llab samaradorligi sinab ko‘rildi. Demak usul yordamida har o‘qituvchi har bir fanga, bo‘limga, darsga ishlatsa bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. X.I.Ibragimov, U.A.Yo‘ldoshev „Pedagogik Psixologiya” - Toshkent 2007-y 20-b
2. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” me’oriy xujjatlar to‘plami – T.:Sharq



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘RGANILADIGAN GEOMETRIK MATERIALNING MAZMUNI

Djo‘rayeva Maxfuzaxon Nabiyevna

Farg‘ona viloyati Buvayda tumani  
40 – maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda geometrik shakllar mavzusini o‘qitish haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** arifmetik material, geometrik material, ko‘pburchak.

Boshlang‘ich matematika programmasida geometrik material katta o‘rin oladi. Ko‘pchilik hollarda bu material arifmetik material bilan uzviy bog‘lanadi. SHu bilan birga geometriya elementlarini o‘rganishga ilgarigiga qaraganda ko‘proq mustaqillik beriladi va maqsadga yo‘naltiriladi. Geometrik materialni o‘rganishning asosiy maqsadi geometrik figuralar (nuqta, to‘g‘ri va egri chiziq, to‘g‘ri chiziq kesmasi, siniq chiziq, ko‘pburchak, aylana va doira) haqida, ularning elementlari haqida, figuralar va ularning elementlari orasidagi munosabatlari haqida, ularning ba‘zi xossalari haqidagi tasavvurlarning to‘la snetemaenni tarkib toptirishdan iborat.

Geometrik figuralar haqidagi fazoviy tasavvurlar, geometrik figuralarini chizmachilik va o‘lhash asboblari yordamida va bu asboblarning yordamisiz o‘lhash va yasashlarning amaliy malakalarini (kuzda chamalash, qo‘lda chizish va hokazo) tarkib toptiriladi. O‘quvchilarning nutq va fikrplashlari shu asosda rivojlantiriladi.

O‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirish, ularni chizish va o‘lhash malakalari bilan qurollantirish, ular tafakkurini rivojlantirish masalalariga geometriya elementlarini o‘rgatishda qo‘llanadigan o‘qitish metodlari javob beradi. Geometriya propedevtik kursini o‘qitishning muayyan metodlari kuzatishlar metodlari, takkorlash metodidan iboratdir; induktiv xulosa chiqarish bilan bir qatorda deduksiya elementlaridan ham foydalaniladi. Laboratoriya va amaliy ishlari metodi geometrik materiallarni o‘rganishning samarali metodlaridan biridir. Laboratoriya ishlari va amaliy ishlari o‘quvchilarning geometrik figuralarining mohiyatini o‘zlashtirishlarida ijobjiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Geometrik materialni o‘rgatish vazifalarini hisobga olgan holda o‘qitishning har xil vositalaridan keng foydalanish kerak. Bular geometrik figuralarining rangli kartondan yoki qalin qog‘ozdan tayyorlangan demonstratsion, butun sinf uchun mo‘ljallangan modellari, figuralar tasvirlangan plakatlar, doskadagi chizmalar, diapositivlar, kodonozitivlar, diafilmardan iborat. Bundan tashkari individual ko‘rsatma-qo‘llanmalar ham kerak bo‘ladi. Bular qog‘oz poloskalar ko‘rinishidagi tarqatma materiallar, figuralar modellari, qog‘oz va kartondan qirqilgan har xil uzunlikdagi cho‘plar va boshqa narsalar bo‘lishi mumkin. Ayrim temalarni o‘rganishda o‘quvchilar bilan birgalikda qo‘lda ko‘rsatma-qo‘llanmalar tayyorlash foydali, bular to‘g‘ri burchak modeli, ko‘pburchaklar modellari (shu jumladan to‘g‘ri to‘rtburchaklar va kvadratlar xam) va boshk.a parsalarday iborat. Doskada chizmalarini bajarish uchun chizmachilik o‘lhash asboblari nabori chizg‘ich, chizmachilik sirkuli albatta sinfda mavjud bo‘lishi kerak. Shunday asboblar har bir o‘quvchida ham bo‘lishi kerak. Nuqta, to‘g‘ri chiziq va egri chiziq to‘g‘ri chiziq kesmasi. Birinchi sinfdan boshlab O‘quvchilarda nuqta, to‘g‘ri chiziq va egri chiziq to‘g‘ri chiziq kesmasi haqidagi tasavvurlarni tarkib toptirish kerak. Shuni eslatib o‘tamizki, «nuqta», «to‘g‘ri chiziq» tushunchalari hozirgi kunda o‘qitilayotgan maktab geometriya kursining asosiy (ta‘riflanmaydigan) tushunchalaridir. Shu sababli «Nuqta deb nimaga aytiladi?», «To‘g‘ri chiziq deb nimani aytiladi?» degan savollar ma‘noga ega bo‘lmay qoladi. Qalam uchining qog‘ozdag‘i izi, buning doskadagi izi nuqta haqida tasavvur beradi. Birinchi sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri chiziq haqiida tasavvurlarni tarkib toptirish ularning har xil amaliy ishlarni bajarishlarida sodir bo‘ladi. Chizg‘ich yordamida ham, boshqa usullar bilan ham to‘g‘ri chiziq yasash mumkin. Masalan, qog‘oz varag‘ini buklash yo‘li bilan to‘g‘ri chiziq hosil qilish mumkin, buklash chizig‘i to‘g‘ri chiziq bo‘ladi. Bunda bolalar diqqatini shu faktga qaratish muhimki, qog‘oz varag‘ini har xil yo‘nalishda bukilganda ham natija bari bir bir xil bo‘lib, to‘g‘ri chiziq hosil bo‘ladi. Doskada to‘g‘ri chiziq vaziyatini o‘zgartirish, ya‘ni uni gorizontal, vertikal va qiya holda chizish muhimdir.

Bolalarni to‘g‘ri chiziq bilan tanishtirish bilan bir vaqtida ularni egri chiziq bilan ham (taqqoslagan xolda) tanishtirish kerak. Masalan, agar tarang tortilgan ip doskada to‘g‘ri chiziq



izini qoldirgan bo‘lsa, endi shu ipni bo‘shatib salqi holga keltirilsa, u qoldirgan iz egri chiziq haqida tasavvur beradi. O‘quvchilar atrof muxitdan egri va to‘g‘ri chiziqlarni izlash bo‘yicha ham mashq qildiriladi (sinf doskasining chekkalari, abajurning chetlari va xokazo). Mashqlarni bajarish protsessida o‘quvchilar to‘g‘ri va egri chiziqlarning ba‘zi xossalari bilan tanishadilar. Masalan. bolalar nuqtadan chiziqlar o‘tkazish bo‘yicha mashq qilib, bir nuqta orqali istalgancha to‘g‘ri va egri chiziq o‘tkazishlari mumkin, ikki nuqta orqali bitta to‘g‘ri chiziq, istalgancha egri chiziq o‘tkazish mumkin degan xulosaga keladilar. Kesma bilan ham o‘quvchilar amaliy tanishadilar. Agar to‘g‘ri chiziqqa ikkita nuqda qo‘yilsa, to‘g‘ri chiziqnинг chegarasi shu nuqdalardan iborat qismi to‘g‘ri chiziqchalar kesmasi yoki qisqacha kesma deyiladi. Kesmaning chegaralarini chiziqchalar (shtrixlar) bilan belgilash ham mumkin. O‘quvchilar to‘g‘ri chiziqnинг tasviri to‘g‘ri chiziq kesmasi tasviridan qanday farq qilishini bilib olishlari kerak: kesmaning oxirlari nuqtalar yoki shtrixlar bilan belgilanadi. Atrof-muhittdan to‘g‘ri chiziq kesmasini ko‘rsatishga doir mashqlar (masalan, shkafning qirralari, pol bilan devor tutashadigan joylar yoki shift bilan devorlar tutashadigan joylar va hokazolar) kesma haqidagi tushunchani mustahkamlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.U.Bikbaeva va boshqa. 1-4 sinflarda matematika I – IV qismlar. Toshkent —O‘qituvchi 1992 yil.
2. M.Moro va boshqalar. —Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishning metodikasii 1995 yil.



## 1-2 SINF MATEMATIKA DARSALARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ergasheva Xayotxon Valijonovna

Farg'ona viloyati Buvayda tumani  
40 – maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanining o‘qitishda interfaol metodlarni qo‘llash haqida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** blits so‘rov, bahs – munozara, adashgan zanjirlar.

O‘quvchilarda hozirjavoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini sfakillantirishdan iborat. Hozirda keng qo‘llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko‘p bo‘lib, ularning hammasi ham boshlangich ta‘limda qo‘llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlangich sinf o‘quvchisining o‘qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o‘quvchi o‘qishi bo‘ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko‘proq uzlusiz ta‘lim tizimining o‘rta va yuqori bo‘ginlariga mo‘ljallangan bo‘lib, boshlangich sinflarda qo‘llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlangich sinf matematika darslarida qo‘llash mumkin bo‘lganlari haqida so‘z yuritamiz.

Interfaol metod sinfda o‘tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muhokama qilishda “Aqliy hujum”, “Adashgan zanjirlar”, “Savol bering”, “Insert”, “BBB”, “Bahs - munozara”, “Muammoli savollar”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Burchaklar metodi”, “Kubiklar” metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi. Yoki biror ifoda qiymatini qulay usulda hisoblash yuzasidan takliflar yig‘iladi.

Masalan: 1 dan 20 gacha bo‘lgan barcha natural sonlar yig‘indisini topish yo‘li so‘raladi. Hamma takliflar qabul qilinadi. Ularning bir nechta bo‘yicha yig‘indi topiladi va usullar taqqoslanadi. Eng qulay usulni taklif qilgan guruh yoki juftlik taqdirlanadi.

Darsda berilgan masala, misol va topshiriqni juft bo‘lib hal qilishi ham o‘quvchilarni o‘zaro fikr almashishga, bir – birini to‘ldirishi, kerak bo‘lsa bir-biriga o‘rgatishga o‘rgatadi. Bunday usulni “Juftlikda ishlash” deb ataladi.

O‘qituvchi o‘quvchilar mustaqil hal qilishi mumkin bo‘lgan istalgan vazifani juftlikda topshiradi. Bunday topshiriqnini ijodiy xarekterda bo‘lishi maqsadga muvofiqroqdir.

Buning uchun quyidagi metodik usullarni tavsiya etamiz.

### 1 – SINF

#### “Sehrli boqqa sayohat” mavzusida musobaqa darsi.

Bu musobaqa darsida o‘quvchilar uchta guruhga bo‘linadi va guruh boshliqlari tayinlanadi.

Ifodalar tuzish va yechish.

1. Bu o‘yinda uchala guruhdagi hamma o‘quvchilar ishtirok etadilar.

Ularning har biri 10 ichida qo‘shish va ayirishga doir ifodalar yuzib yechishadi.

Masalan:

$$3-1=4 \quad 6-1=5 \quad 4-2=6$$

$$8-2=10 \quad 10-3=7 \quad 5-2=7$$
 va hokazo.

Ifoda tuzib, ishlab bo‘lgan o‘quvchilar ikkitalab to‘g‘ri va teskari sanashadi. O‘quvchilar tuzgan ifodalarning yechimi tekshirilib, yutuq va kamchiliklari ko‘rsatiladi. Ifodalarni to‘g‘ri hisoblagan guruhga qizil yulduzcha, bitta xatto qilgan guruhga ko‘k yulduzcha, bitta guruhga ko‘k yulduzcha, ikki va undan ortiq xato qilgan guruhga sariq yulduzcha beriladi.

2. O‘quvchilarga “Tun” so‘zi aytilishi bilan bolalar boshlarini parta ustiga qo‘yadilar. O‘qituvchi ertak aytadi:

- Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonda bir sehrli bog‘bo‘lgan ekan. Bog‘da daraxtlar qishin – yozin ko‘m – ko‘k bo‘lib, mevalari pishib yotarkan. Qo‘llarida oltin baliqlar suzib yurarkan, - deb sinf taxtasiga uzum, nok va olmalari pishib turgan daraxtlar hamda uning yoniga qo‘l qo‘yadi. Bolalarga “Kun” deyilishi bilan ular uyg‘onishadi.

O‘quvchi sinfdagi ayrim “Bilmasvoy” o‘quvchilarga ishora qilib:

- Bolalar, ularga yordam beramiz?



- Ha, yordam beramiz!

Endi har bir guruh uchun sehrli boqqa bittadan uycha qurib olamiz. O'qituvchi uychaga misollarni yozib qo'ygan bo'ladi. O'quvchilar misollarning javobini qalam bilan yozadilar.

3-2=	4-2=
6-2=	8-2=
5-2=	3-2=
6-2=	4-2=

3-2=	4-2=
6-2=	8-2=
5-2=	3-2=
6-2=	4-2=

3-2=	4-2=
6-2=	8-2=
5-2=	3-2=
6-2=	4-2=

Uychadagi misollarning tez va to'g'ri yechilganligiga qarab, guruhlarga yulduzchalar beriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
2. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. -T.: 2005.



## ИНТЕГРАЦИЯ ИННОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ

Жунайдуллаева Робия

студентка 4 курса

факультета Начальное образование

ТГПУ имени Низами

E-mail: robishka21@gmail.com

Телефон: +998998234188

**Аннотация:** В статье представлены инновационные методы обучения, их применение в начальных классах, пути интеграции инновационных подходов.

**Ключевые слова:** инновационный метод обучения, дистанционное обучение, Blended Learning, смешанное обучение, Flipped Classroom, перевернутое обучение, видео-уроки, онлайн-платформа, индивидуальная подда, самостоятельная работа.

На сегодняшний день процесс образования требует все больше инновационных подходов, которые в корне отличаются от традиционной системы. Педагоги разрабатывают все больше и больше новых методов Переход в онлайн-режим обучения стало хорошим толчком для пересмотра системы образования с учетом новых методов, технологий и подходов. На сегодняшний день процесс образования требует все больше инновационных подходов, которые основаны на современных цифровых технологиях. В принципе большинство инновационных методов обучения основаны на обучении с помощью интернета, и под руководством ментора или коуча. Одним из таких методов является технология Blended Learning, который переводится как «смешанное обучение». Это понятие происходит от слова blender - смеситель. Уже в 60-х годах прошлого века такой подход к обучению уже существовал, но впервые его выделили как новый подход лишь в 1999 году.

Суть этого метода заключается в том, что для обучения студентов или школьников используются и традиционные уроки, и медиа устройства. Студенты или школьники посещают аудиторные занятия, получают нужную информацию от преподавателя, потом в свободное время готовятся к следующему занятию самостоятельно с помощью обучающих программ или ресурсов, которые преподаватель выкладывает на специальной платформе.

В 80-х годах 20 века этот подход применялся в сфере авиации и для обучения применялись компакт-диски. В наше время, как было уже сказано, для осуществления второй части используются онлайн-платформы, обучающие программы, ресурсы, интернет и, по усмотрению преподавателя, съемные носители.

Blended Learning состоит из 3 частей: дистанционное обучение, занятия в классе и работа на онлайн-платформе. Студенты или школьники посещают занятия, получают домашнее задание для выполнения в специальной программе и по мере возникновения вопросов консультируются с преподавателем в режиме онлайн. Преподаватель консультирует и индивидуально, и группу учащихся.

Преимущества этого метода заключается в том, что преподаватель может показывать обучающимся видео ролики или презентации онлайн. Также этот подход является экологичным, так как не тратится бумага для распечатки информации, записи лекций и даже не используются бумажный вариант учебников. С другой стороны, для осуществления этого метода и преподаватель, и ученики должны уметь владеть компьютером и интернетом, уметь выходить в онлайн-трансляции, уметь пользоваться платформой или специальной программой. Так же, преподаватель должен уметь записывать видео-уроки, составлять специальные программы, или же должен обратиться к программистам. К преимуществам также можно отнести то, что студенты учатся самостоятельно распределять время, находить информацию, одним словом, учатся быть самостоятельными.

Такой подход к обучению лучше всего проводить с более взрослой аудиторией: учениками 9-11 классов, учащимися лицеев и колледжей, студентами высших учебных заведений. Но если подобрать тему, то можно применять и в начальной школе. Так, например, при изучении темы «Позиционные и непозиционные системы счисления» на уроке математики можно задать учащимся самостоятельно изучить тему, заранее предоставив план. После того как ученики соберут информацию, нужно будет на уроке анализировать, выбрать нужную часть



и систематизировать. Далее задается домашнее задание для выполнения на платформе.

Так как это учащиеся начальной школы, учитель заранее просматривает весь материал и дает ссылки на подходящую по возрасту информацию в Интернете. Также учитель может открыть специальную страницу в Интернете, где будет находиться и информация, и сама платформа для выполнения заданий. Но если учитель не совсем знаком с этой отраслью, он может запросто просмотреть информацию в Сети и отправить ссылки, а для выполнения заданий подойдут и мессенджеры.

Урок в этом случае будет проводиться по типу урока обобщения. На уроке можно будет применить интерактивные методы такие, как инсерт, дебаты, метод проектов и так далее. После организационного момента урока целесообразно применить технологию ЗХУ (знаю, хочу узнать, узнал), которую можно закончить в конце урока как подведение итогов. С помощью этой технологии учитель сможет сориентироваться на информации, которую нашли ученики.

Важно отметить то, что технологию Blended Learning можно применить только с преуспевающим классом, так как для выполнения условий технологии ученики должны быть в определённой степени самостоятельны. Отсюда вытекает следующий момент: перед применением этой технологии, учащимся надо давать несколько заданий для самостоятельного выполнения такие, как реферат, подготовка презентации.

Другой подход к обучению, который предполагает обучение с помощью информационных технологий, это Flipped Classroom. Он предполагает замену классной работы на домашнюю и наоборот, которое дает возможность увеличить вовлеченность и мотивацию обучающихся. Это дает возможность преподавателю успеть опросить всех и ответить на вопросы студентов или учеников.

Суть этого подхода в том, что студенты разбирают материал дома и готовятся к обсуждению этого материала в классе. Как и в предыдущем подходе, преподаватель готовит учебный материал сам и размещает в определенную платформу. Учащиеся разбирают материал, находят дополнительную информацию, выявляют конфликтную часть, готовят вопросы к обсуждению. К проведению занятия в классе преподаватель готовит сценарий, предусматривая использование различных педагогических технологий, проблемных ситуаций. В процессе работы он слушает ответы учащихся и отвечает на их вопросы.

Главное преимущество этого подхода заключается в том, что для обсуждения темы выделяется много времени, каждый учащийся может высказать свою точку зрения и может задать интересующий его вопрос. Также отстающие учащиеся могут пересматривать видео-урок сколько нужно, а преуспевающие не будут долго ждать и скучать пока отстающие смотрят видео несколько раз. Сами учащиеся устанавливают время просмотра: в свободное время, в транспорте, может быть даже во время ланча. Учащиеся так же могут обсуждать тему между собой и онлайн, могут консультироваться с преподавателем. Отсюда вытекает следующее преимущество — преподаватель может проконсультировать студента индивидуально, может ответить на вопросы группы или же дать возможность другим студентам ответить на вопросы, что развивает у них самостоятельность.

Минусы этого подхода те же, что и у предыдущего — преподаватель должен уметь пользоваться компьютером, интернетом, уметь создавать программы, выходить в онлайн-трансляцию. Так же будет расточительным и выкладывание информации на сайт, просмотр видео-файлов, аудио-записей.

Этот подход целесообразно применять на уроках чтения в начальной школе. Можно задать ученикам самостоятельно прочитать произведение, выполнить задания такие, как составить кластер, синквейн, написать мини-сочинение, составить рассказ, или же нарисовать рисунок, описывающий данное произведение. А само занятие можно провести с использованием интерактивного метода «шесть шляп мышления».

Какой бы подход не использовал учитель, главное он должен помнить об успеваемости класса, выбирать подходящие темы и не забывать о том, что урок-основная форма организации учебного процесса.

Все инновационные методы направлены на улучшение процесса обучения, лучшее освоение учениками материала. С помощью новейших подходов преподаватели могут донести информацию до каждого учащегося, достигнуть наивысших результатов.



### Список литературы

1. Инновационные технологии в науке и образовании сборник статей XI Международной научно-практической конференции. 2019. Издательство: "Наука и Просвещение" (ИП Гуляев Г.Ю.) (Пенза)
2. «**Blended Learning: переход к смешанному обучению за 5 шагов.**» URL: <https://zillion.net/ru/blog/375/blended-learning-pierekhod-k-smieshannomu-obuchieniu-za-5-shagov>
3. «**Все наоборот: Что такое Flipped Classroom Approach**» URL: <https://www.teachaholic.pro/vse-naoborot-chto-takoe-flipped-classroom-approach>
4. Литвинова, С. Г. Облачно ориентированная учебная среда школы: от кабинета до виртуальных методических предметных объединений учителей [Электронный ресурс] / С. Г. Литвинова // Образовательные технологии и общество. – 2014. – № 1(17).
5. Marshall, H. W. (2013, March 21). Three reasons to flip your classroom. – Mode of access: <http://www.slideshare.net/lainemarsh/3-reasons-to-flip-tesol-2013-32113>. – Date of access: 01.04.201



## ONA TILI DARSLARIDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI O'STIRISH USULLARI

Sevarova Zubayda Nasimovna  
Qashqadaryo viloyati Qarshii tumani  
33-maktab Ona tili va adabiyot o'qituvchisi  
+998 91 4581759

**Annotatsiya:** Ona tili darslariga qo'yiladigan asosiy talab o'quvchilarining og'zaki va yozma savodxonligini oshirish, to'g'ri, ravon, ta'sirli va mazmundor so'zlash va yozishga o'rgatishdan iborat. Maqolada shu mazmundagi, ya'ni o'quvchilarning nutqiga qo'yiladigan talablar va maktabda o'qituvchi tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan takliflarva tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, savodxonlik, nutq sharoiti, adabiyytalaffuz, mazmun.

Inson nutq yordamida o'zining fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklaririni bayon etadi va boshqalarning fikrlari, his-tuyg'ulari, istaklarini anglab yetadi. Nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq odatdagi so'zlashuv nutqi bo'lib, bu nutq ko'proq ohang va turli imlo-ishoralarga aloqadordir. Unda murakkab grammatik qurilmalar, o'shma gaplar deyarli qo'llanmaydi.

Yozma nutq tuzish esa murakkabroq jarajon bo'lib, u o'quvchidan grammatik va mazmun jihatidan to'g'ri jumla qurishni, har bir so'zni o'z o'rinishda to'g'ri qo'llashni, imlo va tinish belgilariga rioya qilishni talab etadi. Avvalo shuni qayd qilish lozimki, maktabda o'qitiladigan barcha o'quv fanlari o'quvchi nutqi ustida ishslashga qaratilgan bo'ladi. Ona tili fani esa bular orasida eng asosiy va muhim sanaladi. O'quvchining bilimi, dunyoqarashi rivojlana borgan sari, uning nutqi va tafakkuri ham muttasil o'sib boradi. Ravon, ixcham, ta'sirli nutq tinglovchiga huzur bag'ishlaydi. Maktabning asosiy vazifalaridan biri o'z o'quvchilarini ana shunday so'zlashga o'rgatishdir. Maktab o'qituvchilarining, birinchi navbatda, ona tili o'qituvchisining vazifasi o'quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta'siridan, har xil vulgar so'zlar ta'siridan tozalash va adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so'zlashga o'rgatishdir.

O'quvchilar nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

**1. Nutqning nutq sharoitiga mosligi.** Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so'zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so'zlovchi bitta, tinglovchi ko'p bo'lsa, so'zlovchining baland ovozda to'xtam (pauza) larga rioya qilib, fikrni izchil va bir-biriga bog'liq ravishda bayon qilishi talab etiladi. Bunday nutqning o'ziga xos ko'rinishi o'quvchining nazariy masalalarni yoritish yoki uy topshiriqlarini bajarish jarayonidagi javoblarida, ma'lum bir mavzuni sinfda, biror yig'inda oshib berishdagi nutqida o'z aksini topadi.

Nutq sharoitining muhim tarkibiy qismlaridan biri so'zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi hamdir.

**2. Nutqning mazmundorligi.** O'quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda uning o'zi bilgan va xabardor bo'lgan voqeа-hodisalarni og'zaki va yozma shakllarda bayon qilsagina mazmunli bo'ladi.

Aniq dalillar, o'quvchining shaxsiy kuzatish yoki taassurotlari, his-tuyg'ulari asosida yuritgan fikrlari o'zgalar diqqatini o'ziga tortadi.

**3. Nutqning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi.** Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo'lsagina, uning ta'sirchanligi ortadi. Bu har bir o'quvchidan narsa, voqeа-hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga tog'ri bera olish, shu yo'l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O'quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan to'g'ri bog'lay olishi, mavzuga aloqador bo'lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi, qaytarilgan takror fikrlarga yo'l qo'ymasligi kerak.

**4. Nutqning boy va rang-barang bo'lishi.** Nutqning boy va rang-barangligi, avvalo, fikrni bayon qilishda o'zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko'chma ma'noli so'zlardan, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o'rinali foydalanishda namoyon bo'ladi.

**5. Nutqning grammatik jihatdan to'g'ri qurilgan bo'lishi.** O'quvchi so'z, so'z birikmasi va gaplarni bir-biriga bog'lash, kelishik va egalik qo'shimchalarini o'rinali qo'llash, gapning ega va kesimini moslashtira bilish kabi malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi shart.

**6. Nutqning ohangdor, ta'sirli bo'lishi.** Ohang o'quvchi nutqining ta'sirchanligini oshirish



vositasi sanaladi. O'quvchi har bir she'riy yoki nasriy asarni ohangdorlikka amal qilgan holda, sintagmalarga rioya qilib, mantiqiy urg'uni to'g'ri qo'llab o'qishi zarur.

**O'quvchilar nutqini o'stirishda quyidagi amaliy tadbirlar qo'llanadi:**

1. Adabiyy talaffuzni har bir darsda o'rganiladigan qoidalarga bog'lab o'rgatish.
2. Boshqa fanlarni o'qitishda ham nutq o'stirishga e'tibor berish.
3. O'quvchi nutqidagi adabiyy tilga xos bo'limgan dalillarni tushuntira bilish.
4. Fonetika o'qitishda aytilishi bilan yozilishi farq qiladigan tovushlar talaffuziga e'tibor berish.
5. Orfografik malakalarni mustahkamlashga oid darslar.
6. O'quvchilarni turli tadbirlarda va yig'inlarda chiqib so'zlashga odatlantirish.
7. She'riy va nasriy asarlardan parchalar yod oldirib borish.

Maktabda yagona orfografiya va nutq rejimi maktab ma'muriyati va o'qituvchilar jamoasi oldiga o'quvchilarning savodxonligini oshirish, ularning og'zaki va yozma nutqini o'stirish ishida faol ishtirok etish vazifasini qo'yadi. Bunda savodxonlik va nutq madaniyatini o'stirishda yagona talab amalga oshiriladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Xayrullayev. O'zbek pedagogik antologiyasi. T.: «O'qituvchi» 1995 y
- 2.N.Ochilov. Muallim qalb mehmori. T.: «O'qituvchi» 2001 y .



## YUQORI SINFLARDA TEXNOLOGIYA FANIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL METODLAR.

**Umrzaqova Barnoxon Xasanboyevna**

Andijon viloyati Marhamat tumani 6-sonli  
umumiy o'rta ta'lif maktabi texnologiya fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu metodik tavsiyada so'nngi yillarda maktab ta'lif tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarning izlanuvchan,zamonaviy o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida qanday qo'llanishiga doir qimmatli fikrlar keltirilgan bo'lib,yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar orqali ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish mumkin bo'ladi.O'quvchilarni faollikka chorlovchi, ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi aqliy hujum, klasterlar, "Tarjimon","Texnologik diktant" kabi bir nechta interfaol metodlar va ularni qo'llashga oid yo'l-yo'riqlar bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** Innovatsiya, interfaol, klaster, alternativ, tarjimon, texnoogik diktant.

*"O'z shogirdlariga mehnatdan zavqlanish xislatlarini  
uyg'ota bilgan muallim sharaflarga loyiq"  
E. Xabbard.*

So'nngi yillarda maktab ta'lif tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogic texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta'lif beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanilib borilishi, ta'lif mazmunini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy O'qituvchi dars jarayonida "aktyor" emas, aksincha "rejissor" bo'lishi kerakligini anglashi lozim. U o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarni shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lif usullarini yaxshi bilishi kerak.

Interfaol metodlar ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarflamay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish maqsadini nazarda tutadi. Dars mobaynida ma'lum nazariy bilimlarni o'quvchiga yetkazish, unda ayrim faoliyat yuzasidan ko'nikma va malaka hosil qilish, ma'naviy sifatlarni shakllantirish, o'quvchi bilimini nazorat qilish hamda baholash o'qituvchidan yuksak mahorat va tezkorlik talab qiladi.

Bu borada o'qituvchi darslarda foydalanishi mumkin bo'lgan ayrim pedagogik vositalar: ta'kidlovchi savollar bunda o'quvchining bergan savollariga qarab, uning fikrlash darajasini aniqlash mumkin. O'qituvchi alternative, o'quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o'xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o'quvchilarda fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metod va usullarni sanab o'tamiz: aqliy hujum, klasterlar, harakatli ma'ruza, o'zaro ta'lif, muallifga savollar, "bilaman, bilishni istayman, bilib oldim" (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, hamkorliokda izlanish, tarjimon o'yini, texnologik diktant, express-testlar, arra, pinbord va boshqalar.

Bu usullar asosan bosqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo'llaniladi va har birida o'qituvchi o'quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchida kommunikativ qobiliyatning o'sishiga, o'quvchilar orasida hissiy aloqa o'rnatilishiga, muammoli vaziyatlar yechimiga, guruhda ishlashni, o'galarning fikrini ringlay olishni va o'z fikrini mustaqil bayon etshni o'rgatibgina qolmasdan, unda o'ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi.

Har qaday fan rivojlanishi uchun yangi va zamonaviy metodlar zarur. Shu ma'noda texnologiya fanining takomillashishida ham interfaol usullar muhim ahamiyatga egadir. Texnologiya darslarining samaradorligini oshirish, darslarda tayanch va kommunikativ kompetensiyalarni qo'llash yuzasidan tajribamizda foydalanib kelinayotgan ayrim metodlar haqida to'xtalib o'tamiz.

**"Klaster" usulidagi "Tarjimon" o'yini.**

Bu usulni " Yangi mavzuni mustahkamlash"da, takrorlash darslarida qo'llash mumkin. Bunda mavzuga mos chizma tayyorlanib, o'quvchiga ko'rindigan qilib, doskaga ilib qo'yiladi. O'quvchi berilgan mavzu yuzasidan izlanadi, takrorlaydi, o'tilgan mavzuni eslaydi. O'quvchining faolligi



oshadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi, egallagan bilimi mustahkamlanadi. Bunda o‘quvchiga mavzuga mos atamalarni ingliz, rus tilida tarjimasi yozilishi vazifasi topshirilsa ham bo‘ladi.

Avval jadvalning faqat “O‘zbek tilida”gi grafasi to‘ldirilib, o‘quvchilarga taqdim etiladi(doskaga ilib qo‘yiladi). O‘quvchilar qaysi so‘zning rus va ingliz tilidagi tarjimasini bilsa, navbatil bilan yazadi, noto‘g‘ri javoblar tuzatib boriladi.

*1-jadval*

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Metall		
Pecheniy		
Qolip		
Tunuka		
Ro‘zg‘or, xo‘jalik		

*1-jadval javoblari*

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Metall	Метал	Metallic
Pecheniy	Печенье	Baking, cookie
Qolip	Посуда	From, shape
Tunuka	Листовое железо	Gland
Ro‘zg‘or, xo‘jalik	Хозяйство	Farms

*2-jadval*

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Sanoat		
Qishloq xo‘jaligi		
Qurilish		
Aloqa		
savdo		

*2-jadval javoblari*

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Sanoat	Промшленность	Industry
Qishloq xo‘jaligi	Сельское хозяйство	Agriculture
Qurilish	Строительство	Building construction
Aloqa	Связь	Connection
savdo	Торговля	Trade commerce

### “Texnologik diktant”

Bunda o‘quvchilarga bir necha gapdan iborat matn taqdim etiladi. Har bir gapda bittadan so‘z tushirib qoldiriladi. O‘quvchi gapdagi tushirib qoldirilgan so‘zni topishi kerak.

#### Masalan:

1. Tunukani ... po‘lat plitada bajariladi.
2. Tunukani qaychi bilan qirqayotganda uning pichoqlari oralig‘i ...oshmasligi kerak.
3. Tunukani bukish tiskida maxsus ... va uskunalar yordamida bajariladi.
4. Ingichka va yumshoq simlarni ... yoki... yordamida qirqib olish mumkin.
5. Qalin sim sandonda ... yordamida to‘g‘rilanadi.

#### Javoblari:

1. To‘g‘rilash.
2. 0,1mmdan.
3. Opravkalar.
4. Ombur yoki passatij.
5. Bolg‘a.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. X.R. Sanaqulov, D.P. Xodiyeva, Satbayeva “Mehnat va uni o‘qitish metodikasi”. Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.
2. Ilmiy-metodik, ta’limiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal “Estetik fanlar metodikasi”.
3. Ommaviy axborot vositalari.



## O'SMIRLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Xoliqnazarova Fotimaxon Ibragimovna  
Dang'ara tumani, 1-son kasb-hunar maktabi psixologi

O'qituvchi va tarbiyachi uchun bolalarning o'smirlilik davri psixologiyasini bilish psixologik nuqtai nazaridan ham pedagogik nuqtai nazaridan ham muximdir. Bu davrni biz yana o'tish davri ham deb ataymiz. O'smirlilik davri asosan 11-15 yoshdagi bolalarni o'z ichiga qamrab oladi, ya'ni 5-8 sinf o'quvchilarini.

O'smir o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish ishlarida uchraydigan ayrim qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi va hususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslikdan yoki inkor qilishdan kelib chiqadi.

Kichik va katta yoshdagi mактаб o'quvchilariga qaraganda o'smirlilik yoshidagi bolalarni tarbiyalashda juda ko'п qiyinchiliklar bo'ladi. Chunki, kichik bolaning katta odamga aylanishi jarayoni juda qiyin kechadi. Bu jarayon o'smirlar psixologiyasining odamlar bilan bo'lgan munosabat formalarining jiddiy ravishda o'zgarishi, hamda hayot sharoitining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Bu davrda o'smirlarning o'z shaxsiy fikrlari paydo bo'ladi. Ularda o'z qadr-qimmatlari haqidagi tushuncha kengayadi. Ilmiy psixologianing aniqlashi bo'yicha o'smirlarning psixik taraqqiyotini xarakatga keltiruvchi kuchlar, ularning faoliyatlarini bilan tug'iladigan extiyojlar bilan bu extiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi dialektik qarama-qarshiliklarni yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotini, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik hususiyatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilishdan iboratdar. Shundan keyin psixik taraqqiyotning yuksakroq bosqichiga o'tiladi. Sana shu nuqtai nazaridan o'smirlilik yoshini yanada oydinroq qarab chiqaylik. Bola boshlang'ich sinfni tugatadi. Bolaning o'rta maktabda o'qishga o'tishi uning hayotida burilish davri hisoblanadi. O'smirlarning yangi ijtimoiy jixatdan tashkil topgan va rang-baranglantirilgan faoliyatni uning psixologik hamda shaxsning tarkib topishiga asos, sharoit va vosita xizmat qiladi.

Shunday qilib, o'smirlarga ta'lim-tarbiya berishning yangi to'g'ri usullari hamda vositalarni topishi uchun o'smirlilik yoshining o'ziga xos hususiyatlarini jismoniy va psixologik taraqqiyotini yaxshi bilishimiz kerak. O'smirlilik yoshining mazmuniy xarakteritsikasi vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi, chunki inson xayotining xususan ijtimoiy sharoitlari o'zgaradi.

Psixologiya taraqqiyotining biologik omillariga o'smirlar ongiga og'ir, ba'zan kuchi etmaydigan bo'lib tushadigan, ularni jiddiy psixik inqirozga va hayajonga soladigan, masalan: o'smirlar uchun xarakterli bo'lgan norozilik, qo'pollik, qaysarlik, o'z-o'zini analiz qilishga moyillik sub'ektiv olamga va shunga o'xhash hislatlarni keltiradigan jinsiy yetilishga nixoyatda katta axamiyat beradilar.

Jinsiy etilish munosabati bilan paydo bo'ladigan yangi sezgilar fikrlar, maylliklar, kechinmalar guyo usmirlar ongida xukmron bo'ladi. Ularning xulki atvorini belgilaydi. Mana shu tarika oqibat natijada o'smirlarning psixologik qiyofalari asosan yolg'iz sof biologik omil deb qaraladi.



## BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR

Xoshimova Shoxida Ibragimovna

Sirdaryo viloyati Bayovut tumani  
39- mактабнинг башланг'ич синф о'қитувчиси

**Annotatsiya:** Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi.

**Kalit so'alar:** o'yin, integratsiya, murakkab, miya yarim shari.

Barchamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish judamurakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'limfaoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Ta'limiy o'yinlarning yana bir jihat shuki, u bolada ikki miya yarim sharlarining bir vaqtning o'zida ishlashini ta'minlaydi. Miyadagi bunday faoliyot berilgan axbarotni bir vaqtning o'zida qabul qiladi, esda saqlaydi uni qayta tahrirlab berilgan savolga tez va aniq javob berishni ta'minlaydi. Shularni inobatga olgan zamonaviy o'qituvchidan har bir darsni didaktik o'yinlar asosida tashkil etish talab etiladi. Shuning natijasida esa kun davomida bolada charchoq, toliqish kuzatilmaydi.

O'quv-bilim jarayonida yuqori samaradorlikka erishish bolada o'qishga bo'lgan motivatsiyani to'g'ri yo'naltirilganligiga bog'liq. Didaktik o'yinlar aynan shunday motivatsiyani bera oladi. Ta'lim jarayonini alohida jarayon sifatida ko'rib uni bolaning asosiy faoliyati bo'lmish o'yin faoliyatidan ajratib qo'yish esa bolani qafasga solib qo'yish bilan barobar.

O'yin faoliyati g'olib yoki mag'lub tushunchalardan iborat bo'lib dars jarayonida qo'llanilganda bola g'olib bolish uchun kurashadi va ana shu kurash natijasida berilgan axbarotni diqqat bilan tinglab bilimlarni osongina egallab oladi. Bir vaqtning o'zida bu bilimlarni hayotda qo'llab ko'radi. Misol tariqasida "33ta 33" didaktik o'yinida bola ko'paytirish jadvalini yaxshi yodlagan bo'lishi va diqqatini ishga solgan holda ishtirok etishi kerak bo'ladi. O'yin sharti sinf o'quvchilari sonlarni tartib bilan aytganda 3 raqami ishtirok etgan sonlar va 3 ga bo'linadigan sonlar aytilmay o'rniga qarsak chalinadi. (1,2, qarsak, 4,5, qarsakvah.). Sanoq 33 soniga qadar davom etadi sanoqda adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi va sanoq qayta boshlanadi.

Didaktik o'yinlar asosida tashkil qilingan darslarda integratsiya ya'ni fanlar aro bog'lanish yaqol ko'zga tashlanadi. Matematika darsida "Sayohat dars" didaktik o'yinini misol qilib oladigan bo'lsak, matematika darsini bir vaqtning o'zida ona tili va tabiat fanlari bilan bog'lash mumkin.

Didaktik topshiriq: berilgan misollarni to'g'ri va aniq yechish xatolar ustida ishlay olish. O'yin topshirig'i: O'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishini oshirish. Ona Vatanimiz O'zbekistonning qadimiy shaharlari haqida bilim berib atoqli otlarning yozilishiga e'tibor qaratish orqali ona tili fani bilan bog'lash. Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash. O'yin shart, magnit doskaga aeroport maketi chizilgan surat osib qo'yilgan. Suratda qadimiy shaharlarimiz nomlari yozib qo'yilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari soniga mos chiptalar tayyorlangan bo'lib chiptalarning orqa tomonida misollar berilganbo'ladi, old tomonida yo'nalishlar yozilgan bo'ladi. Masalan, Buxoro-Toshkent, Buxoro-Xiva singari. O'quvchilar misollarni to'g'ri yechsa, berilgan yo'nalish bo'yicha sayohatga chiqadi. Ya'ni o'rnidan turib poyezdcha ko'rinishida saflanib sinf bo'ylab yuradi. Videoproyektor ekranida qadimiy shaharlarning video tasviri ko'rsatiladi. Samalyot aeroportga qo'ngach, o'quvchilardan chiptalarga diqqatbilanqarash talab etiladi. O'quvchilar chiptadagi xatolikni topishlari kerak ya'ni bitta chiptada joy nomi kichik harf bilan yozilgan bo'lib ushbu xatoni topgan o'quvchidan atoqli otlar qoidasi so'raladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S va b Boshlang'ich sinf o'quvcnilariga geometrik materiallarni o'rgatish metodikasi -Toshkent: OOO —Jahon print, 2011
2. A'zamov A. ||Yosh matematika qomusiy lug'atl- Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991



## ЁШЛАРДА ФУҚАРОЛИК САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА ХУҚУҚИЙ ТАЪЛИМ ВА ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ

Кадирова Якитжон Бувабаевна

Низомий номидаги ТДПУ

мустакил тадқиқотчиси

+998977569099

**Аннотасия:** Ушбу мақолада мустақил хуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этишда ҳар томонлама хуқуқий билимга эга ёшларни ўрни бекиёслиги такидланади ҳамда ёш авлодни хуқуқий саводхон қилиб тарбоялашда таълим ва тарбияни ўрни катталиги ва хуқуқий билимини ошириш усуллари белгилаб берилган.

**Калит сўзлар:** Хуқуқий демократик давлат ёшлар қатлами, хуқуқий онг, хуқуқий маданият, , хуқуқий саводхонлик

**Аннотация:** В статье подчеркивается уникальная роль молодых людей, обладающих всесторонними юридическими знаниями, в построении независимого демократического государства и гражданского общества, а также определяются пути повышения роли образования и юридических знаний в воспитании юристов подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** правовое демократическое государство, молодежь, правовое сознание, правовая культура, правовая грамотность.

**Annotation:** This article emphasizes the unique role of young people with comprehensive legal knowledge in building an independent democratic state and civil society, and identifies ways to increase the role of education and legal knowledge in educating the younger generation as legal literate.

**Keywords:** legal democratic state youth, legal consciousness, legal culture, legal literacy

Ўзбекистон мустақилликка эришгач хуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятини барпо этиш йўлидан кетди. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси 13-моддасида “Ўзбекистон Республикасида демократия умуминсоний принципларга асосланади, уларга кўра инсон, унинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни, қадр-қиммати ва бошқа дахлсиз хуқуқлёшари олий қадрият ҳисобланади. Демократик хуқуқ ва эркинликлар Конституция ва қонунлар билан ҳимоя қилинади”.[1] деб такидлаб кўйилган. Бу шундан далолат берадики биз демократик йўлдан кетганлигимиз ва олдимизга фуқаролик жамиятини шакллантиришни мақсад қилиб қоғанлигимизни билдиради. Бу мақсадга эришишда аввало ёш авлод конституция ва қонунларни ҳар тамонлама пухта ўрганиш зарурдир.

Ўзбекистон ўз мустақиллигининг ilk қунлариданоқ ёш авлодни баркамол, мустақил фикрга эга ва масъулиятли ҳамда мустақилликни қадрлаш, ўз миллий қадриятларини ҳурмат қиласиган, ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, жисмонан ва маънан етук бўлиши учун бир нечта тизимли ишларни амалга ошириди. Шу билан бир қаторда, ёшларнинг ҳақ-хуқуқлари, қонуний манфаатларини ҳимоялаш учун хуқуқий асосларни ҳам яратади.

Ёшлар қатлами деганда, ер юзининг турли давлатларида турли ёшдаги фуқаролар тушунилади. Мисол учун, АҚШ ва Япония давлатларида 13–14 ёшдан 29-30 ёшгача бўлган фуқаролар ёшлар ҳисобланса, Болгария давлатида 15 ёшдан 29 ёшгача, Россия давлатида 15 ёшдан 30 ёшгача бўлган фуқаролар ёшлар тоифасига киради. Германия давлатида “кичик ёшдаги ёшлар” 14-18 ёш ҳамда “катта ёшдаги ёшлар” 18-27 ёшга бўлинади.[2] Ўзбекистонда эса 14 ёшга тўлган ва 30 ёшдан ошмаган фуқаролар ёшлар тоифасини ташкил этади. Бу Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонунининг 3-моддасида белгилаб кўйилган. Шуни айтиб ўтиш керакки, 2016-йилнинг 14-сентабрида қабул қилинган (янги таҳрир) ушбу қонун ёшларга оид давлат сиёсатининг асосий йўналишларини белгилаб берди (5-модда).[3] Бу йўналишлар орасида ёшларни қабул қилинган қонунларга ҳурмат руҳида тарбиялаш; ёшларнинг хуқуқий онги ҳамда маданияти даражасини ошириш кабилар ҳам мавжуд. Ёшларнинг ҳақ-хуқуқлари таъминланishi учун нафақат давлат органларининг кафолати, балки ёшларнинг хуқуқий онги ва маданияти даражаси ҳам катта аҳамиятга эга. Юридик фанлари номзоди, доцент Н. Сабуров фикрича, “хуқуқий онг – бу ижтимоий онгнинг шаклларидан бири бўлиб, кишиларда хуқуқка, қонунчиликка, хуқуқ-тартиботга ва бошқа хуқуқий ҳодисаларга нисбатан бўлган



ғоялар, ҳис-туйғулар, тасаввурлар йиғиндисидир”[4]. Ҳуқуқий маданият учун ҳуқуқий онг зарурый элемент эканлигини ҳисобга оладиган болсак, шуни айтиш керакки, ҳуқуқий онг бўлиши учун аввало ҳуқуқий саводхонлик жуда зарурdir. Ҳуқуқий саводхонлик фазилати шахс – жамият – давлатнинг ўзаро муносабатларига муҳим таъсир кўрсатади, Инсон хаётда меҳнат фаолиятида ёки бошқа соҳаларда юзага келадиган муаммоларни адолатли ва холис ҳал қилиш имконини беради.[5] Юридик адабиётларда ҳуқуқий саводхонлик тушунчасига алоҳида таъриф берилмаган бўлса-да, улардан қуидагича тушунча ҳосил қилиш мумкин. Ҳуқуқий саводхонлик – бу юридик матнлардаги атамаларни тушуниш, улардан умумий ху-лосалар чиқариш ва бу билимларни амалиётда қўллай олиш қобилаятидир. Чет эл юридик адабиётлар ҳам шунга яқин мазмунни ифодалайди, яъни шахснинг ўз ҳуқуқ ва мажбуриятларини таниши, қайси ҳолатлар юридик низо эканлигини ангши ва уларга қонуний ечим топа олиши, ҳуқуқий ахборотни қайердан топишни, юридик ёрдамни қайердан ва қандай қилиб олишни, қонунчилик тизимида қайси чоралар борлигини ҳамда протсессуал тартибни билиши ҳуқуқий саводхонлик белгилари ҳисобланади.[6]

Ёшлар орасида ҳуқуқий саводхонликнинг пастлиги нафақат, уларнинг ўзлари учун, балки жамият ва давлат учун ҳам заарлидир. Ҳуқуқий саводхонликнинг етарли даражада эмаслиги ёш авлоднинг ўз ҳуқуқларидан тўлақонли фойдалана олмасликларига, мажбуриятларидан бехабар бўлиб қолишларига сабаб бўлади. Мажбуриятлардан бехабарлик ёки харакатларининг ҳуқуқий оқибатини англамаслик хозирги кунда ёшлар орасида ҳуқуқбузарликларнинг келиб чиқишига сабаб бўлмоқда. Биз ҳуқуқий-демократик давлат қуришни олдимизга мақсад қилган эканмиз, бунинг учун ҳуқуқий онги ва маданияти юксак фуқаролар яъни ёшлар ҳал қилувчи рол ўйнайди. Бунга эса ҳуқуқий саводхонликни оширибина эришишимиз мумкин. Қисқасини айтганда, “Фақат чуқур ўйланган ва тезкор давлат сиёсатигина ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини кўтара олади ва уларнинг ҳуқуқий онги даражасини юксалтиришга ёрдам беради”.[7]

Ёшларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш йўлида мустақиллик даврида қатор тадрижий ислоҳотлар амалга оширилди. Юқорида таъкидланганидек, ёшларнинг ҳуқуқий саводхонлигини ошириш мақсадида бир қанча қонун ва қонуности ҳужжатлари қабул қилинди. Булар сирасига “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонун, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш Миллий дастури”, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларга оид давлат сиёсати самарадорлигини ошириш ва Ўзбекистон Ёшлар Иттифоки фаолиятини қўллаб-куватлаш тўғрисида”ги ҳамда “Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганишни ташкил этиш тўғрисида”ги Фармонлари, Вазирлар Маҳкамасининг “Ёшларнинг ҳуқуқий таълим мини такомиллаштириш комплекс дастури тўғрисида”ги Қарори кабиларни киритиш жоиз.

Бу қонун ҳужжатларининг ижроси сифатида қатор амалий ишлар қилинмоқда. Масалан, Адлия вазирлиги ҳузурида 2009-йилда ташкил этилган ёш ҳуқуқшунослардан иборат “Ҳуқуқий тарғибот гурухи” фаолияти эътирофга лойиқ. Маълумот ўрнида келтириш жоизки, шу пайтгача бу тарғибот гурухи республикамизнинг 70 дан ортиқ туманларига бориб, 62 мингдан ортиқ ёшлар билан учрашувлар ўтказди. Уларнинг ҳуқуқий саводхонлигини оширишга катта ҳисса қўшди. Шу билан бирга, ҳар йили ўтказиб келинаётган “Сиз қонунни биласизми?”, “Ҳуқуқ билимдонлари” каби кўрик танловлар, фан олимпиадалари ҳам ёшларнинг ҳуқуқий саводхонликни оширишга бўлган қизиқишлирига сабаб бўлмоқда. Янги қабул қилинаётган қонунларнинг ёшлар ҳаётига таъсири катта, албатта. Уларнинг бу қонунлар ҳақида ахборот олишлари, ундаги нормаларга тушунтиришлар талаб қилиш ҳуқуқи ҳам қонунан мустаҳкамланган.[8]

Бу борада олиб борилаётган ислоҳотларнинг янада самарали бўлиши кўп жиҳатдан чуқур ўйланганлиги ва тизимлилигига боғлиқдир. Шуни эътиборга олган ҳолда биз ёшлар орасида ҳуқуқий саводхонликни ошириш масаласи бўйича бир қанча таклифларни билдиримоқчимиз.

Аввало, шунга эътибор қаратиш керакки, етарли ҳуқуқий таълим-тарбиягина ҳуқуқий фуқаролик саводхонликка олиб боради. Шу боисдан, педагогика олийгоҳларида “ҳуқуқшунослик педагогикаси” факултетларини ташкил этиш мақсаддага мувофиқ бўлган бўлар эди. Ўз навбатида эса, умумий ўрта таълим ва олий таълим муассасаларида “Ҳуқуқшунослик” фани дарс соатларини оптималь даражада кўпайтириш ҳам лозим. “Ҳуқуқшунослик” фанига ихтисослаштирилган синфларнинг бўлиши ҳам фойдали бўлади.

Ҳуқуқий таълим-тарбияни мактабгача таълим муассасасидан бошлаш самарали бўлади,



деган фикрдамиз. Зеро, бу ёшдан бошлаб болаларга конституция, қонун, фуқаролик, ҳуқуқ, мажбурият каби тушунчаларни сингдириш лозим. Ҳуқуқий таълимнинг бундай изчилиги шуниси билан аҳамиятлики, бунда доимий аудитория мавжуд бўлиб, ҳуқуқий саводхонликка эришишнинг тадрижийлиги таъминланади.

Шу қаторда, ёшларнинг ҳуқуқий таълим-тарбиясини ривожлантиришнинг худудий дастурларини яратиш даври келди, деб хисоблаймиз. Вилоят ва туманлар миқёсидаги, ўзига хос дастурларнинг бўлиши ёшлар орасида ҳуқуқий саводхонлик кўламининг ошишига олиб келади, деган фикрдамиз. Масалан, “Ёш ҳуқуқшунос” номли туман ҳокими мукофоти, “Конституция билимдонлари” номли вилоят ҳокими кубоги каби янгича тадбирлар ёшлар орасида ҳуқуқий билимларга қизиқишнинг янада ошишига олиб келиши мумкин.

Кейинги таклифимиз шундан иборатки, ёшларнинг фуқаролик ҳуқуқий саводхонлигини оширишга “давлат - ота-она - мактаб - ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар-маҳалла” тизимини жорий қилиш лозим. Бунда давлат жойларда шарт-шароит яратиб берса, ўқув муассалари тадбирларни ташкиллаштиради ва ота-оналар болаларни жалб қилишади. Ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг ходимлари эса тизимли тарзда ёшларни ўз ҳуқуқларини ҳимоя қилишда керак бўладиган ҳуқуқий билимлар билан таништириб борадилар. Маҳалла эса ҳар бир оиласининг ижтимоий аҳволидан ҳабардор бўлиб, айниқса ёшлар билан фуқаролик саводхонлиги, ҳуқуқий билимларнинг нечоғли аҳамиятига бағишлиб мутаҳассис ва ҳаётий тажрибага эга бўлган ёши улуг кексаларимиз билан доимо сұхбатлар ташкиллаштириб боришади. Бу тадбирлар давра сұхбат, баҳс-мунозара, мультемидиали тақдимотлар, кичик вdeo роликли фильмлар, кичк ҳажимли саҳна кўринишлари каби намойиш кўринишларда ўтказилиши мумкин.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ёшлардаги юкори ҳуқуқий саводхонлик демократик-ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятни қуришда муҳим аҳамият қасб этади. Шу қаторда, бутунги ислоҳотларнинг моҳиятини тушунишда, уларни амалга оширишда ёшларнинг янада фаол иштирокини таъминлайди. Зеро, бу даражага тизимли равишда доимий олиб бориладиган ҳуқуқий таълим-тарбия орқали эришиш мумкин.

#### **Фойдаланган адабиётлар рўйхати:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.:, 2019.
2. Jhttp://uza.uz/uz/society/yoshlarga-oid-davlat-siyosatining-huquqiy-asosi-21-09-2016
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” gi Qonuni// “Xalq so‘zi”: 15.09.2016dagi №182 (6617)-son
4. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet.
5. Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vosisi sifatida” // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
6. http://www.srdlawnotes.com/2016/03/legal-literary-and-objects-of-legal.html
7. http://e-notabene.ru/pp/article\_11130.html
8. O‘zbekiston Respublikasining “Huquuqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonuni, 13, 21- moddalar



## MOBIL ALOQA VOSITALARINI INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI

**Abdullayev Ravshan Davlat o'g'li**

Guliston Davlat Universiteti

Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya

yo'nalishi talabasi

Abdullayevravshan165@gmail.com

Tel: +998993111256

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, kelajak avlodning turli salbiy holatlar, ya'ni Internetga qaramlik, kompyuter o'yinlariga berilib ketib, real hayotiy vazifalarini unutish, ijtimoiy tarmoqlar salbiy oqibatlarining oldini olishga yo'naltirilgan dolzarb masalalar ustida ish yuritishlari hamda o'smir-yoshlarga ko'proq ta'limiy, rivojlantiruvchi, til va boshqa sohalarda o'rgatuvchi dasturlardan foydalanish metodlarini haqida so'z yuritilgan. Masalan, Internet olamida o'zlariga zarur bo'lgan foydali axborotdan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirish haqida ham so'z borgan.

**Kalit so'zlar.** Internetga qaramlik, komputer, komputer o'yinlari, real hayot, ijtimoiy tarmoq, ta'lim, dasturlar, internet, axborot.

### Kirish:

Zamonaviy Internet taqdim etadigan ijobiy axborot-resurslari bilan bir qatorda, ayrim virtual olamdagi axloqsizlik, buzg'unchilikni targ'ib etuvchi axborotlar, salbiy ta'sirli kompyuter o'yinlarining xavfli ta'siridan bolalar va o'smirlarni himoya etish dolzarb masalaga aylanib ulgurgan. Internet-resurslarini turli soha mutaxassislari, jumladan, pedagogik va psixologik nuqtai nazaridan nazorat qilish lozim. Bu borada, ayniqsa, ota-onan nazoratini amalga oshiruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish zarur. Shu boisdan ham umumta'lim maktablari va boshqa ta'lim muassasalarida o'sib kelayotgan avlod ongini chalg'ituvchi axborotlardan o'zlarini himoya etish immunitetini shakllantirish kattalarning muhim vazifasidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'smir-yoshlarni jalg etarkan, ta'im tizimida foydalanilishi zarur bo'lgan innovatsion psixologik-pedagogik dasturlar yaratish davr talabidir.

### Asosiy\_qism:

Aloqa vositalari kundan-kunga rivojlanmoqda. Hayotimizni telefonsiz tasavvur qilish qiyin. Bugun yoshu qarining turli rusumdagagi uyali telefonlarda gaplashayotganini ko'rish oddiy holga aylandi. Lekin ko'pchilik bunday telefonlar sog'liqqa qanday ta'sir qilishini yaxshi bilmaydi.

Angliyalik shifokorlar mobil telefonning organizmga zarari ko'pligini, turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lishini isbotlashgan. Londonda faoliyat ko'rsatuvchi doktor Vini Kurana telefonning salbiy ta'siri bilan bog'liq miya saratoni bolalarni ham chetlab o'tmayotganini, agar bunga e'tiborsiz qaralaversa, yaqin 10 yil ichida saratondan halok bo'ladigan bolalar soni oshib borishini bildirgan.

Elektromagnit to'lqinlar inson irsiyatidagi tartibning buzilishiga, hujayralar faoliyatining izdan chiqishiga, organizmdagi ma'lum bir kasallik viruslarining faollashuviga sabab bo'ladi, xavfli o'sma kasalligini keltirib chiqaradi.

Kiberreallik kompyuter o'yinlari virtual olamida taqdim etiladigan Internet-muhit bilan o'rin almashadi, o'smir-yoshlar ongida o'z-o'zini anglash, motivatsion shaxsiy ehtiyojlariga ta'sirini ko'rsatadi. Zamonaviy inson kundalik hayotda katta hajmdagi axborotlarga duch keladi va dolzarb axborotlar oqimini qabul qiladi. Shu jihatdan ham XXI asr shaxsi ko'proq stressli holatlarga duch keladi. Bu esa shaxs ruhiyatiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ko'pincha vaqt yetmasligi, psixologik zo'riqish inson organizmi va psixikasiga ta'sir etib, ruhiy zo'riqish, tushkun kayfiyat, depressiya, nevroz holatiga olib kelishi mumkin. O'smir-yoshlarning Internet-muhitidagi ko'plab axborot-resurslaridan foydalanishi ularning psixik jarayonlariga quyidagicha ta'sir etishi mumkin:

anglash jarayonlariga, sezgi, diqqat, tasavvur, xotira va nutqlari; emotsional-motivatsion, xususan: hissiy holati, emotsiya va hissiyyotlari, ehtiyoj, motivatsiya; shaxsiy tabiat, jumladan: xarakter va temperament, individual xususiyatlari; anglash, faoliyat, shaxslararo munosabatlar haqiqiy voqelik o'rnini kibermuhit egallashidan iborat. Kompyuter texnologiyalari va mobil aloqasi shaxsnинг o'zini anglashi va motivatsion-ehtiyojlar muhitini, psixologik, axloqiy va ma'naviy olamiga salbiy ta'sir etib, o'zgartirishi mumkin.



- Bolalardagi bezovtalangan miya faoliyati ruhiy muammolarga, o'qish qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, mobil telefonlar bolalarning organizmiga, bo'yining o'sishiiga, immunitetiga, diqqatini jamlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, telefondagi o'yinlarni uzluksiz o'ynash oqibatida bolalarda umurtqa pog'onasining qiyshayishi, ko'z xastaliklari kuzatilayapti.

Telefon o'yinlarida vaqt ham, joy ham muhim emas, asosiysi – g'olib bo'lish. Aksariyat o'yinlar shunday dasturlanganki, osonlikcha g'alabaga erishib bo'lmaydi. Bola g'olib bo'lish niyatida soatlab vaqtini behuda o'tkazaveradi. Eng yomoni, «dushman»ni yer tishlatish uchun o'zi sezmagan holda tajovuzkor bo'lib qoladi. Qarabsizki, unda betoqatlik, shafqatsizlik xususiyatlari shakllana boradi.

#### **Xulosa:**

Yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimini oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molik. ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda, uning yoshlar orasida samarasiz, salbiy ta'sirga ega bo'lgan imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Telekanallarda namoyish etilayotgan va ijara ga beriladigan hamda sotiladigan minglab video, kasseta, lazer disklari vositasida tarqatilayotgan jangari filmlarda yashash uchun kurash g'oyasi targ'ib etiladi. Ularning yoshlar ongini zaharlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish, milliy nigelizm va manqurtlikka mutbalo qilishi o'z-o'zidan ayon va ochiq haqiqatdir. Mazkur muammolarni yechishda, avvalo, ko'rsatuv, eshitirish va matbuot nashrlari, shuningdek, Internetdagi milliy tarmoq manbalarida berilayotgan axborotlar sifatiga, ayniqsa, ularning kontenti, ya'ni materiallar mazmuniga jiddiy e'tibor qaratish zarur.

Yoshlarda buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to'la shakllanmaganligini, ularda eshitgan yoki o'qigan ma'lumotiga juda tez ishonishini nazarda tutsak, bu ancha e'tibor qaratish zarur bo'lgan global muammodir. Ta'kidlash lozimki, Internetdan tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba'zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtai-nazari va e'tiqodini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilganligini unutmaslik kerak.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Rivojlanish psixologiyasi.

Pedagogik psixologiya Z.T.NISHONOVA, N.G.KAMILOVA, D.U.ABDULLAYEVA,  
M.X.XOLNAZAROVA

2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. R.A.MAVLONOVA

3. Internet saytlari [www.IT NEWS.com](http://www.IT NEWS.com)



## JISMONIY TARBIYA DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH YO'LLARI.

**Abdulloyev Elyor Erkinovich.**

Buxoro viloyat Vobkent tuman 11-maktab olisy  
toifali jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** ushu maqolada umumta'lismaktablarida jismoniy tarbiya darslarini to'g'ri tashkil etishda pedagogning o'rni haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lismizimi, sport, jismoniy mashq, dars tashkili, yuqori samaradorlik.

Umum ta'lismaktablarida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalari erishgan yutuqlardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bugungi kunda taraqqiyot yo'lidan ildam qadamlar bilan borayotgan mamlakatimizda ta'lismizimi tubdan isloh qilish va takomillashtirish, unga ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot kommunikativ texnologiyalarini joriy etish, ta'lismamaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Jismoniy tarbiya darslarida yuqori samaraga erishish faqat darsni to'g'ri tashkil qilish va samarali uslublarni qo'llash evaziga amalga oshirilishi mumkin. Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda jamiyatimiz uchun barkamol shaxsni shakllantirish ta'lismizimi eng asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Uzlusiz ta'lismjarayonida olib borilayotgan barcha harakatlar shu maqsadni amalga oshirishda muhimdir. Yangilangan ta'linda o'quvchining yuragidagi cho'g'ni alanga oldirish, uni har tomonlama rivojlantirib, bilimning yuqori cho'qqisiga yetaklab olib chiqish uchun zamonaviy darslar zarur.

Darsning tashkiliy tomonlarini to'g'ri amalga oshirish o'qituvchining eng muhim vazifalaridan biridir. Shundagina o'quvchilar batartib harakat qiladigan, o'tilayotgan darsga bor e'tiborini beradigan bo'ladi. Dars jarayonidagi amaliy mashg'ulotlarda olib boriladigan jismoniy mashqlar o'quvchilarni toplaydi, harakat imkoniyatlarini kengaytiradi. Yugurish, sakrash, uloqtirish mashqlari orqali bolaning jismoniy sifatlari rivojlanib, sport anjomlaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Ta'lismjarayonida ushu jihatlarning to'liq namoyon bo'lishi xalqaro nufuzli sport musobaqalarining bo'lajak g'oliblarini tayyorlashda asqotadi. Demak, jismoniy tarbiya darslarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir o'qituvchi yanada mas'uliyatli, yangilikka intiluvchan, ilg'or metodlarni qo'llash mahoratiga ega bo'lishi zarur. Jismoniy tarbiya fanidan ko'zlangan maqsadga erishishda biz o'qituvchilar darsni to'g'ri tashkil etishda quyidagilarga e'tibor qaratishimiz lozim:

Tayyorlov qismi – (10-12 daqiqa) o'quvchilarni saflash, sog'ligini bilish jarayoni. Bu vaqtida navbatchining axbaroti tinglanadi. O'quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishdirilib, umumiyo rivojlantiruvchi mashqlar – saf, yurish, yugurish mashqlari bajariladi.

Asosiy qism - (20-25 daqiqa)da rejadagi mavzu bo'yicha sport turning rivojlantiruvchi mashqlari bajariladi. Bu vaqtida o'quvchilarning boshqa mavzu yoki o'yinlar bilan chalg'ishiga yo'l qoymaslik lozim.

Yakuniy qism – (3-5 daqiqa) dars tugash jarayonidagi saflanish davri. Bu vaqtida o'quvchilar nafas rostlashi, diqqatni jamlashiga e'tibor qaratiladi. Shu asnoda mashqlarni to'g'ri bajargan o'quvchilar rag'batlantirilsa, darsda faolligi sezilmagan bolalarning kamchiliklari ko'rsatib o'tiladi. So'ng uyg'a vazifa beriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, darsni yuqori saviyada o'tkazish, dars davomida o'quvchilar faolligini ta'minlash, beriladigan vazifa, ko'rsatma va mashqlar ijrosiga ularni ongli yondashishlariga erishish, jismoniy tarbiya darsiga mehr va hurmat uyg'otish biz o'qituvchilarning nafaqat kasbiy mahoratimiz va sifatli ishlab chiqilgan dars bayonnomamizga, balki, shaxsiy va insoniyo fazilatlarimizga ham bevosita bog'liqidir.

### Foydalananigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahkamjonov K.M. Jismoniy tarbiya bo'yicha dars konspektini tuzish. 2013 –yil
2. Salomov R.S Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. 2015-yil



## AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA QO'LLASHNING AFZALLIKLARI

**Abduraximova Ziyoda**

Surxondaryo viloyati Termiz shahri 9-son Ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada axborot kommunikatsiya texnologiyalarini boshlang'ich ta'linda qo'llashning afzalliklari va samaralari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** AKT, kompyuter, bilim, malaka, axborot, o'quvchi, o'qituvchi

Hozirgi vaqtida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hamda keng ko'lamda qo'llash jaxon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, mamlakatda axborotlashtirish jarayoni tez suratlar bilan rivojlanayotgan ayni davrda ta'lim soxasida axborot resurslarini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal suratlar bilan rivojlanishiga qaramay, ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarini o'qitishning yangi metodlari, shakllari va vositalari bo'yicha pedagogik tadqiqotlar natijalarini joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayoniga AKT lardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilarining AKT bo'yicha malakalarini oshirish lozim. O'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarining tadbiq etilishi o'quvchilarning faol bilim olishini taminlaydi, ularni individual va intellektual salohiyatini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Aytish joizki boshlang'ich ta'limda kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqatlari mustahkam emas, ular ko'pincha diqqatlarini bir faoliyat turidan ikkinchisiga qaratishni bilmaydilar. Biroq o'quvchining o'ziga doskada har qanday obyektni, geometrik shakllar, yozuvlarni bajarish, rangi, kattaligi, shaklini o'zgartirish imkoniyati berilganda diqqati kuchayadi. Masalan, matematika darsida kompyuter vositalari, interfaol doskadan foydalanilishi bilan bolalarning qiziqishlari ortishi kuzatiladi va shu bilan birga, darsningjadalligi oshadi. Barcha o'quvchilar dars jarayoniga jalg qilinadilar. Material hajmining ko'pligi bolalarni qiynamaydi, balki faoliyat o'yin shakli metodikasi bo'yicha faol o'qishga imkon beradi. Bu juda muhim omil, chunki olti-to'qqiz yoshli bolaning faol faoliyat turi o'yin hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan axborotlashtirish jarayonlari ta'lim tizimini jadal takomillashtirishni, davlat, ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlar hamda manfaatlarini hisobga oluvchi ta'lim maqsadlarini aniqlashni talab qilmoqda. Shu sababli yangi ta'lim standartlarining rivojlantiruvchi imkoniyatlarini ta'minlash ustivor yo'nalish bo'lib qolmoqda. Yangi ijtimoiy talablar o'quvchilarni umummadaniy, shaxsiy va idrokleri rivojlanishi kabi ta'lim maqsadlarini belgilab bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar (AKT) - foydalanuvchi manfaatlari yo'lida axborotlarni to'plash, qayta ishslash, saqlash, tarqatish va foydalanish maqsadlarida birlashtirilgan metodlar, ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar to'plamidan iboratdir. AKT vositalaridan foydalanish quyidagi masalalarni amalga oshirishni o'z maqsadi qilib qo'yishi kerak:

1. O'quvchilarning fikrlashlari tizimliligini ta'minlash va rivojlantirish.
2. Bilim olish, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda mustahkamlashda o'quvchining idrok etish faoliyati barcha turlarini qo'llab-quvvatlash.
3. Ta'lim jarayoni yaxlitligini saqlab qolgan holda o'quv jarayonini individuallashtirish tamo yilini amalgaga oshirish.

O'quv tarbiya jarayonida axborot kommunikativ texnologiyalarini qo'llash orqali quyidagi vazifalarni hal etish mumkin:

- o'quvchilarda o'qishga bo'lgan qiziqishva motivatsiyasini oshirish;
  - o'quvchilarning malakalarini shakllantirish;
  - ta'limda individual va tabaqalashgan yondashuvni amalga oshirish;
  - o'quvchilarda kompyuter bilan ishslashga oid dastlabki malakalarni shakllantirish;
- Boshlang'ich ta'limda yangi axborot texnologiyalarini imkoniyatlaridan oqilona foydalanish natijasida quyidagilarga erishiladi:
- bilish faoliyati faollashadi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi sifat jixatdan ortadi;
  - boshlang'ich ta'lim darslarida foydalanish uchun mo'ljallangan zamonaviy elektron o'quv



materiallari yordamida ta'lim maqsadiga erishiladi;

kichik maktab yoshidagi bolalarni mustaqil ta'lim olishlari va o'z-o'zlarini nazorat qilishga oid malakalari rivojlanadi, ta'limning qulayligi ta'minlanadi;

-o'quvchilarning didaktik qiyinchiliklari kamayadi;

-kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning darsga nisbatan faolligi ortadi;

-boshlang'ich maktab o'quvchilari havfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda kompyuterda ishslash malakalarini egallaydilar.

Boshlang'ich sinf darslarida AKT dan, elektron darsliklar asosida harakatli, didaktik, ko'rgazmalilik, tovushli sermazmun tarzda qo'llash orqali yuqori darajadagi samaradorlikka erishish mumkin. Ta'lim jarayonida AKT dan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar uchun quyidagi qulayliklarni yaratadi:

-o'quvchilani fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi;

-o'quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ko'mak beradi;

-o'qitishning yangi usullaridan foydalanishga imkon beradi;

-elektron resurslardan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi;

-turli yoshdagi o'quvchilarni, turli yoshdagi o'qituvchilar bilan moslashishini ta'minlaydi;

-dars jarayonida AKT vositalaridan foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi va dars jarayonining sifatli hamda sermazmun bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolalar dunyo qarashini shakllantirishda, ruhan va aqlan sog'lom bo'lib voyaga yetishlarida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Internet materiallari.
2. Shaxsiy ish tajribamdan.



## ALABALAR BILMINI NAZORAT QILISHDA SMART TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

**Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi<sup>1</sup>,  
Yoqubova Ro'zigul Olim qizi<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Muhammad al – Xorazimiy nomidagi  
axborot texnologiyalari universiteti AKT

sohasida kasbiy ta'lif yo'nalishi talabavil

<sup>2</sup>Muhammad al-Xorazimiy nomida Toshkent  
axborot texnologiyalari universiteti

"Kutubxona axborot faoliyat" yo'nalishi talabasi

Tel: +998933754215, abdusamotovashahodat@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda qo'lanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan biri asosida talabalar bilmini nazorat qilish, uning xarakatli va tushinarli bo'lishi talabalar uchun qiziqarli bo'lish masalalari keltirilgan

**Kalit so'zlar:** metod nazorat qilish, SMART, texnologiya

O'zbekiston Respublikasining ta'lif to'g'risida yangi tahrirdagi <sup>1</sup> qonuni mamlakatimiz zamonaviy ta'limi poydevori bo'ldi. Ushbu qonun hujati mamlakatimiz ta'lif tizimi, uning tuzilish, funktsiyalari, bo'linishi, ta'lif ustidan nazorat va boshqa ko'plab bandlarni o'z ichiga olgan bo'lib zamonaviy jahon standartlariga mos keladi. Uninig 4-bob<sup>2</sup> 36-modasi Ta'lif sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyatni tashkil etish haqda bo'lib unda ta'lif sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta'lifni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta'lif texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o'tkazishga hamda ta'lif jarayoniga joriy etishga qaratilgan. Shu munosabat bilan ushbu maqolada talablar bilmini nazorat qilishda SMART texnologiyasida foydalanish jarayonini ko'rib chiqamiz.

SMART metodi bu talabalarning ma'lum bir kategoriylar asosida berilgan bandlarni o'z bilimlari asosida to'ldirishi natijasida ularning ko'zlangan maqsadni qanchalik bilishlarini aniqlashga yordam beradigan texnologiya bo'lib undan foydalanish jarayoni quyidagicha:

Avvalo SMART so'zining yoyilmasi quyidagicha

- S pecific (sodda, oqilona, ahamiyatlari).
- M easureable (mazmunli, qulay, motivatsion).
- A ttainable (kelishib, bemalol).
- R elevant (oqilona, realistik va manbalarga asoslangan, natjalarga asoslangan).
- T ime Based (bog'liq, vaqtga asoslangan, vaqt cheklangan, vaqt/narx cheklangan, o'z vaqtida, vaqtini sezgir).

SMART metodidan foydalanish uchun yuqorida keltirilgan kalit so'zlarda yashirilgan so'zlarni ifodalovchi izohlarni keltirish lozim. Bunda talabalar har bir kriteriya uchun o'zlarining tushunchalari va mustaqil fikrlarini yozishlari lozim bo'ladi. Buning uchun quyida keltirilgan kalit so'zlarni izohlaridan foydalanishlari mumkin:

**1. Specific(Maxsus).** Maqsadni aniq belgilash uchun siz diqqatingizni o'zingiz erishmoqchi bo'lgan narsaga qaratishingiz kerak. Masalab: "Men dasturlashdagi bilimlarimni yaxshi-lamoq-chiman" deyish o'rniqa, aniqroq maqsad "men web dasturlashni o'rganishni hohlayman" bo'lishi mumkin.

**2. Measureable(O'lchanadigan).** Maqsadlar o'lchovli bo'lishi kerak(masalan ayni bir dasturlash tilini o'rganish yoki o'qtish uchun qancha vaqt sariflash kerakligini oldindan rejashtirib olish lozim), shuning uchun siz va sizning o'quvchilaringiz qanday muvaffaqiyatlarga erishilayotganini ko'rishlari mumkin. Maqsadni o'lchash uchun talabalarini "Men qachon / qancha qilishim kerak?" kabi savollar bilan jarayoni nazorat qilib boorish lozim. "Maqsadimga yetganimni qanday bilsam bo'ladi?" ushbu indikator ko'rinishdagi yoki aniqlanadigan narsa bo'lishi kerak. Masalan bu bir darajaga ko'tarilish, universitetga kirish uchun kerak bo'lgan imtihon baholarini olish yoki

<sup>1</sup> Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan

<sup>2</sup> Ta'lif faoliyatini tashkil etish va uning nazoratini amalga oshirish haqida



ingliz tilidagi kitobning ma'lum qismini o'qish bo'lishi mumkin.

**3. Erishish mumkin(Attainable).** Maqsadingiz muvaffaqiyatli bo'lishi uchun real va erishish mumkin bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, bu sizning qobiliyatingizni kengaytirishi kerak, ammo baribir iloji boricha qolaveradi. Qabul qilinadigan maqсадни qo'yganingizda, ilgari e'tibordan chetda qolgan imkoniyatlarni yoki sizni unga yaqinlashtiradigan manbalarni aniqlashin-giz mumkin.

**4. Tegishli (Relevant).** Ushbu qadam sizning maqsadingiz siz uchun muhimligini va shu bilan birga boshqa tegishli maqsadlarga mos kelishini ta'minlashga qaratilgan. Maqsadlarimizga erishish uchun barchamiz qo'llab-quvvatlash va yordamga muhtojmiz, ammo ular ustidan nazoratni saqlab qolish muhimdir. Shunday qilib, rejalaringiz barchani oldinga siljishiga ishonch hosil qiling, ammo baribir o'z maqsadingizga erishish uchun o'zingiz javobgarsiz.

**5. Vaqt cheklangan(T ime Based).** Har bir maqsad uchun aniq bir sana kerak, mana shu vaqt davomida siz ushbu rejadagi ishga iqatingizni qaratib iliji boricha belgilangan vaqtga bajarishga harakat qilasiz. SMART maqsad mezonlarining ushbu qismi kundalik vazifalarni sizning uzoq muddatli maqsadlaringizdan ustun qo'yishini oldini olishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining ta'lim to'g'risida yangi tahrirdagi Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan qonuni
2. Steve Penfold "Elektron ta'lim manbalarini yaratish bo'yicha 8 ta maslahat" 2017 yil 25-aprel
3. D. Rozell "Smart Learning nima va u nima uchun ta'lim markazlarini qiziqtiradi?" Smart Learning Environments - 2019 yil



## MUSTAQIL TA'LIMI SIFATINI OSHIRISHDA YOUTUBE PLATFORMASIDAN FOYDALANISH

Bekchanova Feruza Xadjinazarovna  
UrDU akademik litseyi aniq fanlar kafedrasи  
informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta'lif o'qituvchidan har qanday axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali va o'rini foydalanishni taqozo etadi. Zamonaviy o'quvchilar-bu yuqori texnologiyalarning farzandlari, faqatgina darslik bilan chigarlangan darslar ular uchun qiziqarsiz va tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'zgaruvchan voqelikka moslashishni, raqamlı texnologiyalar va ularning mahsulotlarini o'quv jarayonida ishlatalishni o'rganishi kerak. Ushbu maqolada mustaqil ta'lifda YouTube platformasidan foydalanish masalalariga to'xtalgan.

**Kalit so'zlar:** YouTube, Google akkaunt, create akkaunt, channel, videodars.

Hozirgi paytda internet tarmog'idan istalgan mavzudan turli mavzular bo'yicha tayyorlangan videodarslarni olishimiz mumkin. Bugungi kunning har bir pedagogi zamonaviy ta'lifning sifatlari platformalardan foydalana olishi, ularga turli ma'lumotlarni joylashtira olishi kerak. Ta'lif sifatini oshirishda videodarslar o'quvchilar uchun bir nechta ijobiy imkoniyatlarni yaratadi.

- ✓ kompyuter texnologiyalaridan foydalanganda, o'quvchilar katta miqdordagi topshiriqni tez fursatda bajara oladilar;
- ✓ videodarslar o'quvchilar mavzularni mustaqil o'zlashtirishlariga yordam beradi;
- ✓ o'quvchilarning dars mavzularining mazmun-mohiyatiga diqqatini jalb etadi
- ✓ dars jarayonida tushunarsiz bo'lib qolgan ma'lumotlar videodarslarni qayta ko'rish orqali chuqurroq o'zlashtiriladi va boshqalar.

Dars jarayonida o'quvchilarning mavzuni tinglash, xotirada saqlash imkoniyatlari har xil. Shunday o'quvchilar borki, berilgan ma'lumotlarni bir necha marta takrorlaganimadagina o'zlashtira oladilar. Bu kabi muammolarni zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan mavzular bo'yicha yaratilgan videodarslardan foydalaniib hal qilish mumkin. Sifatlari videodarslarni yaratish uchun mo'ljallangan platformalardan biri YouTube sayti hisoblanadi. YouTube - katta hajmdagi video fayllar jamlangan sayt hisoblanadi. Tizimdan professional videolavhalardan tortib, havaskorlar videolarini hamda videoblogerlar materiallarini topish mumkin.. YouTube saytidan foydalanish uchun www.youtube.com rasmiy manziliga kiriladi.

### YouTube saytida ro'yxatdan o'tish va undan foydalanish

YouTube saytida ro'yxatdan o'tish uchun "Sign In" buyrug'ini tanlab, Google akkaunting login va paroli bilan kirish mumkin. Agar Googleda akkaunt mavjud bo'lmasa, u holda "Create account" buyrug'i orqali ro'yxatdan o'tiladi,

1. "Home" bo'limi orqali saytning bosh sahifasiga o'tish mumkin
2. "Trending" bo'limida ayni vaqtida eng mashhur videoroliklarni ko'rish mumkin
3. Qidiruv maydoni orqali tarmoqda mavjud videoroliklarni qidirish mumkin. Buning uchun kalit so'z maydonga kiritiladi va qidiruv tugmachasi bosiladi. "History" bo'limidan ko'rilgan videoroliklar tarixini ko'rib chiqish mumkin.

### YouTube saytida kanal ochish va uni sozlash.


YouTube saytiga akkaunt yordamida kiriladi va **YouTube Studio** bo'limi tanlanadi, Use **YouTube as** oynasi yordamida kanal nomi yoziladi, kanal nomi sifatida ism, familiya yoki kompaniya, firma va brendning nomi kiritiladi, **Create channel** tugmachasi orqali kanal yaratiladi va u quyidagicha sozlanadi.

1. YouTube saytining o'ng yuqori qismida joylashgan avatarni bosib, **Your Channel**, so'ng ochilgan oynada **Customize channel** tanlanadi (1).
2. Avatar ustida qatlamechanidan, **Edit channel icon** oynasida **Edit** tugmachasini bosgan holda **Google+** ga o'tib, kanalga mos rasm o'rnatiladi (2).
3. **Add channel art** yordamida kanal yuqori qismi uchun o'zingiz yaratgan yoki **YouTube** galereyasidan olingan tasvirni o'rnatish mumkin. (3)
4. **Sozlash tugmacha**sidan "**Overview**" sahifasi yoqib qo'yiladi. Bu sahifadan asosiy, video, playlist, kanallar hamda kanal haqidagi menyulari ochiladi (4).



5. About bo‘limi orqali kanal haqida qisqacha ma’lumot, turli so‘rovlар uchun elektron pochta manzili, ijtimoiy tarmoqlar va sayt manzili kiritiladi (5).

6. Kanalga video joylashtirish uchun Videokamera ikonkasini (6) bosib, **Upload** video (7) ko‘rsatmasi tanlanadi.



7. Kanaldan videolar va ular haqidagi ma’lumotlarni o‘zgartirish hamda videolarni o‘chirish **Video manager** bo‘limi yordamida amalga oshiriladi (8).

#### **YouTube saytida kanalga video joylashtirish**

1. Muloqotlar oynasidan **Select files** yordamida videofayl tanlanadi. Videofayl yuklangunga qadar, **Details** bo‘limi orqali video haqidagi ma’lumotlar kiritiladi Ushbu bo‘limda videoning nomi, mazmuni yoziladi; o‘quvchilarni o‘ziga jalg etuvchi belgi o‘rnataladi, shuningdek, u orqali yangi playlist ochish va videoni mavjud pleystinga biriktirish ham mumkin; video kimlarga mo‘ljallanganligi, ya’ni uning auditoriyasi ko‘rsatiladi va shu tariqa teg, til va subtitr, tasvirga olish vaqtiga va manzili, litsenziya, kategoriya, izohlar sozlanadi.

2. **Video elements** bo‘limidan turli izohlar, murojaatlarni qo‘sish mumkin

3. Videodan foydalanish huquqlari **Visibility** bo‘limi orqali ko‘rsatiladi. Yuklangan videoni ochiq (*Public*), havola orqali(*Unlisted*), va chegaralangan (*Private*) rejimlardan biriga o‘tkazish mumkin.

XXI asr axborot kommunikatsion texnologiyalar asrida darslarni, mustaqil ishlarni videodarslardan foydalangan holda tashkil etish ta’lim samaradorligini oshiribgina qolmay, yurtimizga ma’nан yetuk, puxta bilim, ko‘nikma va malakalarga ega kuchli aqliy salohiyatlari farzandlarni yetkazib berishimizga zamin yaratadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. –T.:
2. SMM для новичков / 1ps.ru — «Издательские решения», 2019,
3. Евгений Заплетин. Фриланс на upwork. — M, 2019
4. <https://www.youtube.com> — Youtube saytining rasmiy manzil



## URUSH MAVZUSIDAGI HIKOYADA QAHRAMON VA SHAROIT TALQINI

Bekzod Ergashov Jahongir o‘g‘li

Guliston davlat universiteti Magistratura bo‘limi  
Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi magistranti

Nazar Eshonqul asarlarida insonning qalbi, ichki dunyosi, ruhiy olami ramz va metaforalar orqali betakror chizgilarda aks yettililadi. Bunday ijod namunalari adabiyotimizning o‘ziga xos yangi yo‘nalishi sifatida e’tirof etilmoqda. Yozuvchining dastlab yaratgan va e’lon qilgan hikoyalardan shu davrga qadar yaratilgan asarlari ijodi shakllanishi uchun yetarli, asos bo‘ladigan darajada mazmunlidir. Bugungi kunda Nazar Eshonqul ijodini o‘rganilishiga asos bo‘ladigan ayrim asarlarni ko‘rsatib o‘taylik:

Birinchidan, yozuvchi har bir hikoyani ramzli va ma’lum bir belgi kashf yetuvchi sarlavha ostida boshlaydi. Chunonchi, uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Bevaqt chalingan bong” singari hikoyalari ramzlar orqali shakllantirilgan.

Ikkinchidan, yozuvchi Nazar Eshonqul asarlari ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan holatlarni shakllantirilishiga hikoyanavislikda guvoh bo‘ldik. Nazar Eshonqul milliy istiqlol davri o‘zbek nasriga yangi ohang olib kira oldi. Uning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi ifodaning qabariqligi, tasvir markaziga olingan shaxs tabiatining mutlaqo kutilmagan va yangiligidan tashqari ohangning o‘zgachaligi bilan ham kishini hayratga soladi. “Nazar nasrimizni shunday ohang bilan boyitdiki, bu ohang o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatlarni aks ettirish imkoniyati jihatidan tengsizdir” .

Uchinchidan, N.Eshonqul ijodini F.Kafka ijodiga qiyoslash mumkin. Ma’lumki, F.Kafka ijod namunalari jahon adabiyoti durdonalaridan o‘rin olgan. Aytishimiz mumkinki, N.Eshonqul jahon durdonalari darajasidagi hikoyalarni yaratishga intilmoqda. Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Yoniq so‘z” kitobida F.Kafka hikoyalari kishida qo‘rquv, hatto ayrim o‘rinlarda jirkanish tuyg‘ularini uyg‘otishi mumkinligini keltirib o‘tadi. N.Eshonqulga esa quyidagicha ta’rif beradi: “Ayrim o‘rinlarda o‘xshatishlarning sun’iyligi, hayratlarning qahramon tabiatini va ruhiyatidan yiroqligi kishining g‘ashiga tegadi”. Lekin bu holat faqat ayrim hikoyalardagi ayrim o‘rinlarda kuzatilsada, N.Eshonqul hikoyalarining mavzulari rang-barang. “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining sarlavhasi-da, insonni o‘ylashga majbur qiladi. Xo‘s, shamol bu o‘rinda qanday ramz, nimaning belgisi, qayerga ishora degan savollar tug‘ilishi tabiiy. Hikoya ko‘zda utilgan shamol – “vaqt” ramzi. Shamolni tutib, to‘xtatib bo‘maganidek vaqtning hisobini ham ortga qaytarib yoki o‘zgartirib bo‘lmaydi. Bu o‘z o‘rnida nimaning belgisi ekanligi. Vaqt – bu umr. Vaqt-soati yetganda inson umri tugaydi. Bu esa shamolning o‘rni ma’nosiga ishora qilishi. Hikoya so‘ngida shunday holatga duch kelamiz: “ko‘p turganidan bo‘g‘in-bo‘g‘in bo‘lib, faqat suyakning o‘zi qolgan, u ham qoramfir tus olib, naq kukunga aylanish arafasiga kelgan, chorsining yirtig‘iga pala-partish o‘rab tashlangan o‘nta odam barmog‘i ham topildi”.

Bu yerda barmoqlar, aynan, odam barmoqlari haqida so‘z ketar ekan, ular so‘zsiz – qasos, o‘ch ramzidir. Barmoqlar miltiqdan o‘q uzgan, insonni qiyanagan, o‘ldirgan va azob bergan inson Zamon Otboqarning barmoqlaridir. Bayna momo esa qasos oldi. Erining, o‘g‘lining, shuningdek, butun tersotaliklarning qasosini oldi. Shamol – miltiqdan otilgan o‘qning ramzi hamdir. Nazar Eshonqulning ham tug‘ilgan, unib-o‘sgan joylari uning ruhiyati, fikrashi, fe’l-atvoriga bir umrlik ta’sir o‘tkazgan va muallif nazarda tutayotgan Tersota uning tug‘ilgan vatnining nomidir. Hikoyadan xulosa sifatida shunday deyish mumkin: otilgan o‘qni ham, shamolni ham to‘xtatib bo‘lmaydi.

Bayna momoning eri, o‘g‘li, Zamon otboqar kabi yepizodlar ham shamol misoli juda kam hayot ko‘rdilar. Bayna momo esa qasos, o‘ch, qasd olami bilan yashadi. Bu qahramon tabiatan beg‘ubor emas. U umri davomida bor sitamlarini, qahr-g‘azablarini bor alamlari va ichki kechimmlarini ichiga yutib kelgan qahramon timsolida gavdalananadi.

Bayna momoni yaxshi xotiralar bilan eslashardi. U jiddiylikni o‘ziga o‘rtoq qilib olgan edi. O‘g‘li va yerining murdasi tepasida turgan Bayna momo madad izlab, uylarining tuynuklarini yopib turgan qora pardalarga bir-bir ko‘z tikdi, biroq u yerda sovuq sukutdan boshqa hech narsa ko‘rinmas, zulmatga cho‘kkan tuynuklar bu misli ko‘rilmagan qotillikni jimgina tomosha qilib turardi.

Bayna momo o‘zining qanchalar bardoshli ekanligini zamonning va Zamon otboqarning kaltaklariga baholi qudrat chidaganligi bilan namoyon qildi. O‘z-o‘zidan o‘zini, or-nomusini,



diyonatini saqlab qola oldi. Og‘ir kunda qolganda ham dushmani oyog‘iga bosh urmadı.

Bayna momoning aynan “Laylat ul-qadr” kechasi vafot etishi qaysidir ma’noda xosiyatli hamdir. Chunki, ushbu ulug‘ kunda hamma Ollohga sig‘inib, joynomozga bosh qo‘yib, faqat shirin so‘zlarni, niyatlarni bildirayotgan tilayotgan muborak kunda bayna momo shiftga qarab o‘z umrini tugashini, shamolning esishini kutib turardi. Bu kun uning umriga nuqta qo‘ydi.

“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasining bosh qahramoni Bayna momo “Bevaqt chalingan bong” nomli hikoyaning bosh qahramoni qorovulga tabiatan o‘xshaydi. Bayna momo ham qorovul ham hayotdan charchagan, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga artgan, parvoyi falakka o‘xshasa-da qalbida qasos yashirin obrazlardir. Bayna momo yeri va o‘g‘lini, qishloq doshlarining qasosini olgan bo‘lsa, qorovul ham onasining qiynalganini o‘ylab, bir umr qiynalib kelgan vijdonining o‘chini oldi. Bu qahramonlar xatolikka yo‘l qo‘yanlar deya olmaymiz. Sababi, ular ilojsiz qolganlar. Qasos esa qiyomatga qolmasligi kerak. N.Eshonqul bu hikoyaning bog‘liqlik jihatini shunday yashiradiki, hikoyalarni bir o‘qigan odam buni anglashi qiyin. Bu asos yozuvchining ulkan mahoratidan darak beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.O‘jaboyev. Adabiyot – ko‘ngil ko‘zgusi. – T., Turon zamin ziyo, 2017. 92-bet.
2. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. –T., Sharq, 2008. 87-bet.
3. Nazar Eshonqul. Yalpiz hidi. –T., Sharq, 2008. 88-bet.
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)



## TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSINING O'RGANILISHI.

**Boboyorova Laylo Furqat qizi**  
Navoiy viloyati Xatirchi tumani  
34-umumta'lim maktabining  
ona tili va adabiyoti oqituvchisi.

**Annotatsiya.** Insonlarning kishilik jamiyati sifatidagi alohida-alohida qavmlar tarzida birlashishi va birlikda ne-ne mushkulotlarni bartaraf yetib, tamaddun deyiladigan taraqqiyot yo'llarida muntazam odim otmog'ida ular o'rtaсидаги kommunikatsiya, muloqotning o'rni, shubhasizki, benihoya muhim.

**Kalit so'zlar.** Leksema, leksikologiya, morfema, morfologiya, fonema, yozma, og'zaki, Kommunikativ faoliyat, kommunikatsiya, tamaddun.

Kommunikativ faoliyatdan tamoman xoli bo'lgan, a'zolari o'zaro muloqot imkoniyatidan butunlay mahrum bo'lgan kishilik jamiyatini tasavvur ham etib bo'lmaydi. Necha ming yillardir, odam bolasi o'rganadi, o'rgatadi, tajribalarini to'playdi, saqlaydi va boshqalarga yetkazadi. Albatta, bu faoliatlarning, hech bir istisnosiz, barchasi – o'rganish va o'rgatish ham, tajriba-axborotlarni to'plash va saqlash ham, ularni boshqalardan olish va boshqalarga berish ham til vositasidagi muloqot (og'zaki va yozma) orqali amalga oshadi. Zotan, tilning mohiyatiga daxldor bo'lgan bosh vazifasining kommunikativ vazifa ekanligi bugun faqat mutaxassisgagina emas, balki barchaga besh qo'lday ma'lum bir haqiqat. Ammo mazkur kommunikativ aloqanning, nutqiy muloqotning lisoniy-mantiqiy, ijtimoiy-ruhiy, tarixiy-estetik mexanizmlari, ular bilan bog'liq qoida-qonuniyatlar, o'ziga xosliklar tegishli fanlar (tilshunoslik, adabiyotshunoslik, mantiq, sotsiologiya, estetika kabi) tomonidan to'lasicha o'rganib bo'lingan emas. Bu boradagi juda ko'plab muammolar hamma zamonlarda olimlarning e'tiborida bo'lib kelganligiga qaramay, hamon bahsu munozaralarga sabab bo'ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e'tirof etilsa, goh jiddiy e'tirozlarni tug'dirib keladi. Tabiiyki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unsurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi (o'quvchi). To'g'ri, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, axborot kanali (ovozi, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot a'zolarining maqomi, yoshi va boshqa belgilari, shuningdek, boshqa turli g'ayrilisoniy vositalarning ham o'rni benihoya muhim, hatto ko'pincha hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlidir, ularning birotasisiz muloqot jarayoni voqe bo'lolmaydi. Tilshunoslik ayni kommunikatsiya jarayonida ikki tomon (so'zlovchi, tinglovchi) o'rtaşılagi "berish-olish"ning asosiy predmeti bo'lgan axborotning lisoniy ifodalanishi va anglanishi masalasiga mutlaqo tabiiy ravishda birinchi darajali diqqatni qaratdi. Zotan, har qanday kommunikatsiyaning pirovard va bosh maqsadi ayni shu axborotning "harakati"dir, bu "harakat" esa til vositasida bo'ladi. Shuning uchun ham tilshunoslik xuddi shu "harakatdagi axborot"ning asosiy va yirik birligini izladi, natijada gapni ana shunday yirik birlik sifatida uzoq davrlar e'tirof etib keldi. Ma'lumki, tilshunoslik o'z o'rganish ob'ektini alohida-alohida bo'limlarga ajratgan, ya'ni fonetika-fonologiyada tovush (fonema)lar, morfologiya morfemalar, leksikologiyada leksemalar, sintaksisda esa sodda va qo'shma gaplar o'rganiladi. Aytish mumkinki, an'anaviy tilshunoslikda tilning eng yuqori sathidagi eng oliv va oxirgi birlik gap deb qarab kelinadi. Polyak tilshunosi M.R.Mayenovaning ta'biri bilan aytganda, "Gap tugagan joyda tilshunoslik o'z kuzatishlarini tugatadi" degan hukm yaqinlargacha ochiq haqiqat hisoblangan. Ko'p gaplardan tarkib topgan matnlar keng ma'nodagi grammatika doirasi bilan batamom va to'lasicha chegaralanuvchi bu fan sohasi kuzatishlaridan chetda qoladi".<sup>1</sup> Aslida agar "gap tugagan joyda tilshunoslik o'z kuzatishlarini tugatsa", ya'ni faqat gapni kommunikativ birlik deb hisoblasa, bunday tilshunoslik gapning semantik-kommunikativ mohiyatining ichiga bemalol va to'la kirib borishga qynaladi. Har qanday alohida olingen gapning lisoniy mantiqiy mag'zini chaqib bo'lmaydi. Har qanday so'zning ma'nosi aniq bir kontekstda reallik kasb etgani kabi gapning ham boshqa gaplar bilan munosabatidan tashqarida mazmunini xolis baholash mushkul. Eng odiiy bir misolni ko'raylik: Sayyoohlар ertaga o'sha shaharga boradilar gapidagi mazmunni anglash uchun undan oldin qo'llangan (yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan), aytaylik, Samarqand shahrining tarixiy obidalari haqidagi film namoyish etildi qabilidagi qandaydir gap bo'lishi lozim. Ko'rindiki, birinchi



gapni mutlaqo mustaqil kommunikativ birlik deb bo‘lmaydi, demakki, tilshunoslikning chegarasi bu yerda tugamasligi, undan tashqariga chiqishi kerak. Sintaksisni faqat gap (va so‘z birikmasi) haqidagi ta’limot tarzida talqin qilish mazkur chegaranining ustuni bo‘lib kelganligi ma’lum. Holbuki, sintaksisga “nutq tuzish haqidagi fan” sifatida qarash juda ko‘p muammolarga oydinlik kiritishi idrok etila boshlaganiga ham ancha bo‘ldi. 1 Bog‘li nutq, yaxlit nutqiy asar, matnni o‘rganish, ya’ni matnga gap – period – yanada yirikroq parcha – yaxlit butunlik tarzidagi darajalanishda yondashish antik davrdan – Aristotel va uning izdoshlaridan boshlangan. 2 Rus tilshunosligida matn (“tekst”) tushunchasining rivoji o‘tgan asrning 40-yillariga to‘g‘ri keladi. 1947 yilda A.I.Belich o‘zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag‘ishlangan maqolasida til faktlarining grammatik tavsifida ma’no umumiyligi asosida bog‘langan va muayyan sintaktik-semantic yaxlitlik tarzida namoyon bo‘ladigan gaplarning butun zanjiriga alohida o‘rin berilishi lozimligiga va bu “matn” tushunchasining yuzaga kelishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga e’tiborni qaratgan, ana shunday gaplar zanjiridagi o‘zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganishning maqsadga muvofiqligini ta’kidlagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abdurahmonov G., Mamajonov N. O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent: «O‘zbekiston», 1985.
2. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalaniishi.–Toshkent: «Fan», 1983
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)



## YASHNAGAY TO ABAD ILMU FAN IJOD

**Davurova Lobar Xo'roz qizi**  
Samarqand viloyati Bulung'ur tumani  
19-umumi o'rta ta'lif maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
e-mail: kabrorxonovna@mail.ru  
Telefon: +998933052904

**Annotatsiya:** maqolada ta'lif-tarbiya tizimiga o'zining munosib xissasini qo'shgan Abdulla Avloniy ilmiy merosi taxlil qilingan hamda metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, tarbiya, Abdulla Avloniy, ilm-fan, ma'rifat, ezhulik, adabiyot, natija, muhit.

Abdulla Avloniy atoqli pedagog, murabbiy sifatida butun hayotini ma'rifat rivojiga baxsh etdi. O'zining ilmiy asarlari, darsliklarida adib Vatan, vatanparvarlik, ilm-hunar, axloq-odob, ma'rifat, inson kamoloti, jamiyat rivoji fikrlar bayon qildi. Abdulla Avloniy kishilarni yaxshilikka undash, dunyodagi barcha insonlarga nisbatan ezhulik istagi bilan yashashni chinakam olijanoblik hisoblaydi. Uning bu pedagogik fikri ta'lifni milliy pedagogika tarixi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Avloniy bayon etgan fikrlar hozirgi davr ta'lif rivojiga ham xizmat qilmoqda[1,9-10].

Avloniying ilm, tarbiya, intizom, xaqoniyat, itoat va xulk xaqidagi asarlarida xozirgi pedagogikaga kerakli va pedagoglar uchun juda katta axamiyati bor . Biz bu asarlardan dars jarayonida va bola tarbiyasiga kerakli bo'lgan ma'lumotlar olishimiz, uni bolalarga misollar bilan tushuntirib o'rgatishimiz mumkin.

Tarbiya — «Pedagogiya», ya'ni bola tarbiyasining fani demaqdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'yaymiz. Bolaning salomi va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmaqdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdir. Zeroki, «Has-sinu axloqakum» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasи tarbiyadur. Axloqimiz(ning) binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning zo'r ta'siri bordur. Ba'zilar «tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lsalar, shunday o'sarlar, tabiat o'zgarmas»,

Yomon xo' tuzalmaydi darmon ila,  
Ipak o'lmas ip, rangi alvon ila,  
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,  
Bo'lur yaxshi payvand, parvo bilan.  
Bilur har kishi aslini rangidan,  
Va yokim ulangandagi zangidan», — demishlar

Lekin bu so'z to'g'ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta ta'siri bo'ladur. Aromizda masal borki, «Sut ila kirgan, jon ila chiqar», mana bu so'z to'g'ridur.

Shavkat Mirziyoyev xam Abdulla Avloniying ilm-tarbiya tug'risidagi fikrlarini xar bir maktab binosida bo'lishi shartligi xakida shunday deganlar «Abdulla Avloniying «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir» degan so'zleri har bir maktab binosida yozib qo'yilishi shart». Bundan tashkari prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda prezidentimiz mакtab ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning «Dunyo imoratlari ichida eng ulug'i mакtabadir» degan fikrini alohida ta'kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroficha to'xtaldi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar



tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat islohotlari avvalo ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Cyunki mакtabni o‘zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o‘zgartira olmaymiz. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori esa bu – maktab.

**Foydalanimanligan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Turkiy guliston yoxud axloq. To‘plam. - T.: TDPU, 2020, 15 b.t.
2. [Uza.uz](http://Uza.uz)
3. [library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz)



## TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIKDA O'QITISH TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

**Djumaniyazova Kunduzxon Baxodirovna**  
Urganch shaxar 28-sun maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (91) 279 08 88  
kb\_djumaniyazova0888@inbox.uz

**Karimova Oksana Yuldashevna**  
Urganch shaxar 28-sun maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 074 05 30  
oksana.yuldashevna\_0530@gmail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'limgarayonida hamkorlikda o'qitish talim texnologiyasini qo'llanilishi va tizimli yondashuv haqida.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, demokratlilik, sub'ektiv munosabatlari, tizimli yondoshuv, ta'limgarayonida texnologiyasi.

O'tgan asrning 80-yillari ta'limgarayoniga ko'plab innovatsiyalarni kirib kelishiga asos bo'lgan hamkorlikda o'qitish texnologiyasini amerikalik pedagoglar tomonidan ishlab chiqilgan. Ular bir qancha maktab namoyondalari ilg'or tajribalarini umumlashtirib, tadqiq qilganlar.

Hamkorlikdagi ta'limgarayoniga tashkil etish demokratlilik, tenglik, ta'limgarayoniga oluvchi o'rtaqidagi sub'ektiv munosabatlarda hamkorlikni, maqsad va faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarini baholashda birligida ishlashni joriy etishga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Mazkur pedagogik texnologiya yangicha pedagogik tafakkur, taraqqiyat parvar g'oyalar manbai sifatida ko'plab zamonaviy pedagogik texnologiyalar tarkibiga kiradi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi faqat birligida biror ish bajarish emas, balki birligida o'qishdan iborat.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining tasnifiy tavsifi:

- qo'llanish darajasiga ko'ra umumpedagogik;
- falsafiy asosiga ko'ra-insonparvar;
- rivojlantirish omiliga ko'ra majmuaviy: bio-, sotsio-, psixogenn;
- o'zlashtirish asosiga ko'ra assotsiativ, reflektor,bosqichma-bosqich;
- mazmuniga ko'ra o'rgatuvchi, tarbiyaviy, insonparvar, umumta'limi, dunyoviy;
- boshqaruv turiga ko'ra kichik guruuhlar sistemasi;
- tashkiliy shakliga ko'ra akademik, yakka, guruuhda,tabaqalashtirilgan;
- bolaga yondoshuviga ko'rashaxsiy-insonparvar, sub'ekt-sub'ekt;
- boshqaruvchi metodga ko'ra muammoli-tadqiqiy, ijodiy, munozarali, o'yinli;
- o'rganuvchilar darajasiga ko'ra ommaviy. Hamkorlikda pedagogikasiga yo'naltirilgan;
- talab pedagogikasidan munosabatlardan pedagogikasiga o'tish;
- ta'limgarayonida tarbiya birligi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy g'oyasi o'quvchilarni turli o'quv vaziyatlarida hamkorlikda faol harakatlariga shart-sharoitlar yaratishdir. O'quvchilarning o'quv materiallarni o'zlashtirish imkoniyatlari turlicha: ayrimlari o'qituvchining tushuntirishlarini tez ilg'ab oladi, ayrimlariga qo'shimcha vaqt va tushuntirish ishlari zarur. Bunday o'quvchilar o'quv mashg'ulotlari davomida passiv bo'ladilar. Agar o'quvchilarni 4-5 nafardan kichik guruuhlarga ajratib, ishtiroychilarining har biri vazifasi aniq ko'rsatib o'tilsa, bunday vaziyatda har bir o'quvchi o'ziga yuklatilgan vazifa hamda guruuh vazifasiga mas'uliyat sezadi. Bunda past o'zlashtiruvchi o'quvchilar ilg'or o'quvchilardan yordam so'raydilar. Hamkorlikda kelib chiqadigan muammolar hal etiladi. Tajribadan ma'lumki, birligida o'qish na faqat qiziqrli va oson, balki samarali hamdir.

Hamkorlikda o'qitish turli variantlari mayjud bo'lib, ular uchun umumiyligini bo'lgan tamoyillar quyidagilar:

guruuhlar o'qituvchi tomonidan mashg'ulotdan oldin, o'quvchilarning psixologik moslashuvchanligi e'tiborga olinib tashkil etiladi. Har bir guruuhda «kuchli», «o'rtacha»,»kuchsiz» va albatta qizlar va o'g'il bolalar bo'lishi kerak;

guruuhga bitta topshiriq beriladi va uning bajarilishida guruuh a'zolarining har biri vazifasi



o‘qituvchi yordamida aniqlanadi;

har bir o‘quvchi bajargan ish emas, guruh ishi baholanadi;

guruhnинг qaysi ishtirokchisi guruh topshirig‘i yuzasidan javob

berishini o‘qituvchi aniqlaydi. Ayrim hollarda «kuchsiz» o‘quvchi tanlanishi ham mumkin, chunki har bir topshiriqning maqsadi uni bajarilishida emas, balki har bir o‘quvchi tomonidan uning o‘zlashtirilishida.

Hamkorlikda o‘qitishning texnologik jarayoni quyidagi elementlardan tashkil topgan:

o‘quv-biluv masalasini qo‘yish (muammoli vaziyat);

o‘quv maqsadlariga mos o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lish;

didaktik materiallarni tarqatish;

guruhlardagi ishlarni rejalashtirish;

topshiriqlarni individual bajarish, natijalarni muhokama qilish;

guruhnинг umumiy topshirig‘ini muhokama qilish (eslatmalar, to‘ldirishlar, aniqlik kiritish);

Tizimli yondoshuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini: jaryonning mantiqiyligi, uning barcha bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligini o‘zida mujassam etmog‘i lozim.

Faoliyatga yo‘naltirilgan yondoshuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jaryonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamонавиј vositalari va usullarini qo‘llash – yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvjarayoniga qo‘llash.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiylari asoslari T.: 2006.
2. Urazova M.B., Eshpulatov Sh.N. Bo‘lajak o‘qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo‘llanma. – T.: TDPU Rizografi, 2014.



## BOSHLANG‘INCH SINF O‘QUVCHILARIDA IXTIROCHILIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ergasheva Dilnoza Xolmat qizi  
Toshkent shahar Mirobod tumani 147-maktab  
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
e-mail: edilnoza009@gmail.com  
Telefon: +998998655872

**Annotatsiya:** maqlada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ixtirochilik qobiliyatini shakllantirish jarayonining pedagogic hamda psixologik shart-sharoitlari atroficha yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinf, ta’lim, tarbiya, ixtiro, kashfiyot, qobiliyat, salohiyat, natija, tirishqoqlik, bilim.

Boshlang‘ich sinflarda ixtirochilikni shakllantiruvchi hamda ushbu qobiliyatni rivojlanish tendensiylarini o‘zida aks ettiruvchi fanlarni joriy etish masalasini ko‘rib chiqishdan oldin ixtirochilik va kashfiyotchilik nima ekanligi va ularning yagona tushuncha emasligini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ixtiro keng ma’noda (arabcha- so‘z bo‘lib yangilik, “yangilik yaratish” degan ma’noni anglatadi) xalq xo‘jaligining turli sohalarida, ijtimoiy-madaniy, qurilish va mudofaa sohalarida ijobjiy samara beradigan, o‘ziga xos texnikaviy yoki texnologik yechimga ega bo‘lgan yangilik. Tor ma’noda - davlat tomonidan tan olinadigan va tegishli qonun bilan muhofaza qilinadigan yangi texnikaviy yechim. Har qanday yangilik ixtiro bo‘la olmaydi. Masalan, quruq ilmiy qoidalar, takliflar ixtiro hisoblanmaydi. O‘zbekiston Respublikasida ixtirochi bo‘la olish sharoitlari va uni tasniflash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994-yilda tasdiqlangan “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari haqida” gi Qonunda belgilangan. [1] Ixtiro bo‘yicha talabnomalarni ekspertiza qilish, mualliflik guvohnomasi va patent berish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idoralari tomonidan amalga oshiriladi. [2,134]

Kashfiyot insoniyatning bilish jarayoni darajasini tubdan o‘zgartiradi. Kashfiyot fan-texnika inqilobining asosini tashkil etadi, fan va texnika inqilobining asosini tashkil etadi, fan va texnika taraqqiyotiga yangi yo‘nalishlarni olib kiradi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlay bilish kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonuniyatlar yaratiladi. Ixtiro natijasida esa muhim yangiliklar yaratish mumkin. Har qanday ixtiro ham kashfiyot bo‘la olmaydi, lekin ixtiro kashfiyotga suyangan holda qilinadi. Kashfiyot ham ixtiro ham qonunchilikda muhofazalanadi.[2,167]

Barchasi bola kelajagini hal qiluvchi hayotiy bosqich, ya’ni, uch yoshgacha bo‘lgan davrdagi go‘dak miyasining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham tug‘ilishdan uch yoshgacha bo‘lgan davr va berilgan ta’lim juda muhimdir. Ayni paytda, farzand tarbiyasini uning bolalar bog‘chasiga chiqish davriga qadar qoldirish juda kechdir.[3,13]

Shunday ekan, xorij tajribalaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, biz ham ixtirochilik yo‘nalishini bir yo‘nalish ya’ni fan sifatida boshlang‘ich sinflar darsliklari qatoriga qo‘shishimiz lozim. Yaponiya ta’lim tizimini o‘rganish jarayonida shuni o‘rgandimki, ularda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bemalol turli xil kashfiyotlar qilishar ekan. Va shunisi ajablanarlik, har bir o‘quvchi bir sinfdan ikkinchi sinfga o‘tish jarayonida biror ixtiro qilishi va maktabni bitirish vaqtida yangicha kashfiyot yaratishi majburiy ekan. Yoki bo‘lmasam Amerika maktablarida ajoyib fan “Ilmiy kashfiyotlar” o‘rgatiladi. Uning maqsadi - yosh ixtirochilar potensialini uyg‘otish. Nazariy kurslardan keyin, o‘quvchilarga yangi narsa yaratish vazifasi topshiriladi. Uni bajarish uchun o‘quvchilarga bir yil vaqt beriladi. Kurs oxirida o‘quvchilar o‘z ixtiolarini namoyish qilishadi, uning aktualligini muhokama qilishadi va baholashadi. Shuni takidlash joizki, mana shunday fanlarni o‘z yosh avlodlariga o‘rgatayotgan chet el davlarida samara va natijalar yaxshi bo‘lganini ko‘rganimizdan keyin, albatta biz ham bu fanlarni darsliklar qatoriga qo‘shmag‘imiz lozim. Bu fanlar ya’ni ixtirochilikka oid fanlar bolaning fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Eng asosiysi, bolani izlanishga undaydi.

Agar bu fanni 1-sinflar darsliklar qatoriga qo‘shilsa natija yana ham yaxshi bo‘ladi. Bu darslikni qiziqarli qilib ishlab chiqilsa, rang – barang rasmlarga boy bo‘lsa, bola albatta bu fanga qizqishi ortadi va yuqori sinflarda o‘tiladigan fizika yoki geometriya fanlarini yaxshi o‘zlashtirishi uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Bu darslikni bola yoshiga moslab murakkablik darajasini oshirib borishi bolaning aqlini va o‘zlashtirish darajasini o‘sirishiga olib keladi. Buning natijasida



maktabni bitirish bosqichida bemałol murakkab ixtirolarni yaratishi va jamiyatdagi qaysidir muammolarga yechim topa olishi mumkin. Hozirda yangi texnologiya bo‘lmish STEAM ta’lim tizimining bir qismi bo‘lmish muhandislik qismi ham ixtirochilikni shakllantirishga asos bo‘la oladi deyishimiz mumkin. Bu orqali dunyodagi ta’lim sohasida peshqadam bo‘lgan davlatlar bilan bemałol raqobatlasha oladigan darajaga yetishisha olamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim mumkinki, ko‘plab ixtirochilarni yetishtirib chiqarsak bo‘ladi, buning uchun mana shu fanni bolalarga ilk mакtab yoshidan joriy etilishi va qo‘llanishi lozim. Agar biz ham shularning qatorida turishimiz uchun biz ham shunday o‘quvchilarni tarbiyalashimiz va malakali pedagoglar tomonidan bilim berishimiz lozim. Bu esa o‘z navbatida ta’lim sifatini yanada yaxshilashi va o‘quvchilarning izlanishlarini kuchaytirishiga olib keladi. Bu soha uchun albatta ixtirochilikka asoslangan oliy ta’lim muassasalariga murojaat etishimiz lozim va ularning malakali bilim berishi orqali yaqin kelajakda rivojlangan mamlakatlar bilan bemałol raqobatlasha olamiz.

#### Foydalaniłgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Ixtiolar, foydali modellar va sanoat namunalari haqida” gi Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1994-yilda tasdiqlangan
2. (Ensk. Pedagogika II. 134-bet)
3. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Toshkent.: Akademnashr. 2019 y 13-bet.



## BOLALARNI SAVOD O'RGATISHDA YOZUV VA O'QISH TAYYORGARLIGINI O'RGANISH VA O'ZIGA XOS USULLARI

Ergasheva Maftuna

Norin tumani 11-maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Tel: +998995134612  
maftunaergasheva@gmail.com

**Annotatsiya:** boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodini oshirishda yozuv va o'qish tayyorgarligini o'rganish va yozuv savodxonligini oshirish usullari haqida fikrlar bor.

**Tayanch so'zlar:** boshlang'ich ta'lif, savod o'rgatish, tog'ri yozish, metodika, o'qitish usullari

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yin o'ynashga moyil bo'ladilar. O'yinli ayotdan mas'uliyatlari hayotga o'qish jarayoniga o'tish ular uchun zerikarli, larning yelkalariga og'ir yuk bo'lib tushishi tabiiy. Shuning uchun ham savod o'rgatish jarayonida ko'plab qoidalar va talablarga amal qilgan holda ta'lif va tarbiya jarayonini uzluksiz ravishda nazorat qilib borish zarur. Savod o'rgatishni t o'g'ri tashkil etish uchun bolalarning unga nutqiyligi maxsus o'rganish talab etiladi. Oldin bolalarni maxsus o'rganish avgust oyida, hatto undan oldin — bahordan boshlangan. Bunda 1-sinfga keladigan o'quvchining oilasiga yoki bolalar bog'chasiga borilgan, suhbat o'tkazilgan, bolalarning umumiy bilim saviyasi aniqlangan. Bilasizki, bolalar savodxonligini aniqlash usullari ularning yozuv malakalari va o'qish, hisoblash savodxonligi orqali aniqlanadi. Bola muktabga qadam qo'ymasidan oldinroq (3-4 yoshidan boshlab) qo'liga qalam olib turli shakllarni chiza boshlaydi. Ammo bu chiziqlar chiroyli yozuv talablariga to'g'ri kelmasada ulardagagi ayrim malakalarning (ruchka, qalam ushslash) shakllanishiga yordam beradi. Kichik yoshdagagi bolalarning muskullari yaxshi rivojlanmaganligi uchun ularga surunkali yozdirib mashq qildirish, yozuvning sifatiga salbiy ta'sir etadi. Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo'r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv quroldan foydalanishiga qarab qo'l harakatlari shunga moslashtiriladi. Chiroyli yozuvga o'rgatishda birinchi navbatda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish 2. Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish.
3. Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish.
4. O'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish.
5. Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish.
6. Harflarni shaklini to'g'ri idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o'ngga, chapga, burilish bog'lash va x.k.) o'rgatish.
7. Harflarni bir- biriga bog'lab yozishga o'rgatish. 8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o'rgatish. 9. Daftar chizig'idagi qatorlarni to'g'ri to'ldirish, sarlavha, oy va kunlarni to'g'ri yozish. 10. Harflarni 65 daraja qiyaligini to'g'ri saqlash.

Demak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.

1. Yozuv texnikasi, ya'ni yozuvning turli to'g'ri yozish usullaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to'g'ri ifodalash, ya'ni grafik malakalarini egallash.
3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda uning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya'ni imloga oid malakalarni egallash.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir malaka o'z oldiga ma'lum bir qoidani maqsad qilib qo'yadi. Masalan yozuv texnikasi yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish, yozayotganda partada to'g'ri o'tirish, qo'lini to'g'ri tutish, gigiyenik qoidalarga amal qilishni talab qiladi. Grafik malakalar esa harfning shaklini to'g'ri ifodalashni, ularning orasidagi masofani bir xil bo'lishini, qiyalikni to'g'ri saqlashni talab etadi. Imloga oid malakalarda esa qaysi harf qanday tovush bildirishini va ularning o'z o'mrida turishini talab etadi. Tayyorlov mashg'ulotlarda bolalar tovush-harf bilan tanishtirilyapti, elementer tarzda yozuvga ham o'rgatilyapti.

Ba'zi o'quvchilar bilan darsdan tashqari vaqtida yakka tartibda ishlar olib borishga ham to'g'ri keladi. Savod o'rgatish jarayonida bolalar ruhiy olamiga ham e'tibor berish kerak. Ularning ichki dunyoqarashi, fikrashi va boshqa fazilatlarini turli psixiologik testlar yoki o'yinlar orqali aniqlash , yig'ilgan xulosa fikrlar yordamida o'quvchilarni savodga o'rganishga



qiziqishlarini to‘g‘ri shakllantirish joizdir. Har bir o‘quvchi bir nohol kabitidir. Uni qanchalik tog‘ri parvarishlasak ya’ni to‘g‘ri ta’lim – tarbiya bersak, kelajakda albatta yaxshi barkamol inson sifatida shakllanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Ona tili o‘qitish metodikasi. (Boshlang‘ich ta’lim fakulteti talabalari uchun darslik): |K. Qosimova|, S.Matchonov, T.: “NOSHIR”, 2009. -352 b.
2. Savodga o‘rgatish darslari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma /H.Boqiyeva , N.Ahmedova va bosh. – Toshkent.: “Extremum-Press” nashriyoti, 2014. -120 b.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI MATEMATIKA YORDAMIDA SODDALASHTIRIB O'RGAТИSH TAMOYILLARI

Jumaniyazova Xosiyat Zirovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi

33-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon: +998 94 3164830

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'quvchilarga o'rnatish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Tavsiyalar asosida matematika yordamida ona tili fanini yanada aniqlashtirib, soddalashtirib tushuntirish mumkin.

**Kalit so'zlar.** So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari, so'z, ko'p ma'noli so'zlar, omonim, sinonim, antonim, funksiya formulasi, shakldoshlik.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter hamda mobil telefonlar rivoji hozirgi davr o'quvchilariga qulayliklar yaratgani barobarida ularni dangasa qilib qo'yayotgani ham hech kimga sir emas. Chunki hozirgi o'quvchilar hisob-kitob ishlarini erkin va mustaqil fikrlab bajarmasdan, mavjud texnik vositalarga tayanib tez va oson hal qilib qo'ya qoladilar. Buning natijasida miyaning dangasalashishi kuchaymoqda.

Shuni inobatga olib, darslarda o'quvchilarning mustaqil fikr-mulohaza yuritishini tashkil etishga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, bu vazifani ona tili darslarida ham o'ziga xos usullarda tashkil qilish mumkin. Aytaylik, "aql gimnastikasi" ta'rifini olgan matematika fani imkoniyatlari bu jihatdan ona tili o'quvchilariga ko'mak beradi. Chunki bu fan o'quvchilarda diqqat va fikrni to'play bilishni tarbiyalashda muhim vosita bo'la oladi. U orqali o'quvchilarning bilishga intilishini kuchaytirish, mustaqil ishdan qanoat hosil qilish tuyg'usini, erkin mulohaza yuritish va munosabat bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

Agar davr talabidan kelib chiqib, ona tili darslarida o'quvchilarning intelektual qobiliyatlarini va darsdagi mustaqilligini rivojlantrish maqsadida matematika va ona tili fanlarining imkoniyatlari o'zaro uyg'unlashtirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. Mavzuni zamonaviy pedagogik texnologiyaning yangicha bir ko'rinishi sifatida tushuntirishga erishiladi. Eng muhimi o'quvchilarning dars mavzusiga qiziqishi oshadi. Ular til hodisalarini kuzatib, taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini oson aniqlashga, umumlashtirishga muvaffaq bo'lishadi. Qoida va ta'riflar asosida ishlashni o'rganishadi. Ayniqsa bu leksikologiya bo'limini o'rganishda amalga oshirilsa, o'quvchilar so'z ma'nolarini sharhlashni, nutqiy sharoitda ularning o'z va ko'chma ma'noda qo'llanganini mustaqil aniqlay olishadi. Shundan kelib chiqib, o'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni hamda so'zlarning shakl va ma'no munosabatini funksiya formulasi hamda funksiya jadvali usulida o'rganishni tavsiya qilish mumkin.

So'zlarning funksiya formulasi matn bilan bog'liqlikda tuziladi. Buning uchun ma'lum bir so'zning matnda boshqa so'zlar bilan aloqasi, uning boshqa so'zlar bilan ma'no va shakl jihatidan semantik yo morfologik belgilari ko'ra mosligi aniqlanishi lozim. Shundagina ushbu so'zda funksiya aniqlangan hisoblanadi va uning funksiya formulasini tuzish mumkin bo'ladi. Bunda biror bir so'zning boshqa so'zga bog'liqligini ta'kidlash uchun xuddi matematikadagidek "y" va "x" alomatlaridan foydalaniladi.

Bir so'zning matnlarda bir nechta ma'noda kelishi uning ko'p ma'noli so'z ekanligidan darak beradi. Bunday so'z o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda kelishi bilan e'tiborni tortadi. So'zni matn ichidagina qanday ma'noda kelganligini aniqlash mumkin. Bunda "y" alomati o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noga ega so'zni bildirib kelsa, "y(x)" alomati o'sha so'zning ko'chma ma'nolarini topishga ishora qiladi. Demak, "y"—o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noli so'z sifatida matn bilan bog'liq funksiylaga egaligi ravshanlashadi. Masalan, "ko'z" so'zining "y" tomoni uning qarash faoliyati funksiyasini bajarishida kuzatilsa, uning "x" tomoni matnda boshqa so'zlar bilan munosabatda qaysi funksiyada kelishi bilan belgilanadi. Bunda "x" noma'lumlikka ishora qilishi bois so'zning ham "x" tomonini, ya'ni uning qaysi ma'noda qo'llanganligini aniqlashga undaydi. Shundan kelib chiqib, "ko'z" so'zining funksiya formulasini quyidagicha tuzish mumkin:

$$L \cdot ko'z(y) = 5x$$

Bunda "L-kо'z" belgisi "ko'z leksemasi" tushunchasini bildirsa, "5x" ko'z leksemasining



beshta ko'chma ma'nosi yashirin ekanligiga ishora qiladi.

Insonning ko'rish organi	Ko'z	Uzukning ko'zi
		Taxtaning ko'zi
		Derazaning ko'zi
		Buloqning ko'zi
		Ishning ko'zi

Ona tili darslarida o'quvchilarning topqirligi va qiziquvchanligini oshirish, mashg'ulot davomida fanlararo bog'lanishga erishish maqsadida leksikologiya bo'limiga oid "So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari" mavzusini o'tish jarayonida xuddi yuqorida ko'rsatilgan shakldagi funksiya formulalaridan foydalanishni tavsiya qilish mumkin. Masalan:

- L-eszik (y)=1x
- L-osh (y)=1x
- L-etak(y)=1x
- L-yoqa(y)=1x
- L-qulok(y)=1x
- L-og'iz(y)=1x

Agar ko'p ma'noli so'zlar zanjiridagi o'z ma'noli so'zni "y" belgisi bilan, uning ko'chma ma'nolarini esa "x" belgisi bilan belgilasak, ma'nodosh (sinonim) so'zlarni "s", shakldosh (omonim) so'zlarni "o" ko'rsatkichlari bilan belgilasa bo'ladi. Xullas, matematika faniga aloqador tushunchalar asosida til hodisalarini o'rgatish mumkin. Bu bilan o'quvchilarning muammolarga tez va oson, aniq yechim topa olish qobiliyati rivojlantiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. R.Tolipova O'quvchilarda nutqiy ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Til ta'limi bosqichlarida uzviylikni ta'minlashning ilmiy-amaliy muammolari//O'zbek tili doimiy anjumani o'ninchisi yig'ini materiallari.-T.:2009.96-bet
2. O'qituvchi kitobi . (5-sinf) Ona tili. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.:Tafakkur, 2011. 142-143-betlar.



## SHAXSNING O'Z-O'ZINI TARBIYALASH MUAMMOSI

Mamadaliyeva Dilshoda  
Guliston Davlat Universiteti  
pedagogika va psixologiya yo'nalishi  
talabasi  
Tel +998993262597

**Annotatsiya:** Ushbu maqola shaxsning o'z-o'zini tarbiyalsh, rivojlantirish va boshqarish jarayonining to'g'ri tashkel qilish hamda barkamol shaxsni tarbiyalash va avlodlarning ijobjiy tarbiya borasidagi bilimlarini yanada oshirishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, ta'lif, oila, jamiyat, madaniyat, mafkura, milliylik va zamonaviylik, psixik tarqqiyot.

Kirish: Dunyodagi eng yaxshi kashfiyotlardan biri bu yaxshi tarbiya korgan insondir. Chunke biz yashayotgan zamonda qilingan bazi bir kashfiyotlar o'z qimmatini yo'qotsada yaxshi tarbiya korgan inson bu- KOMILLIK uchun qo'yilgan ulkan bir qadamdir. Tarbiya barcha zamonlarda ham insonni o'ylantirib kelgan va jamiyat oldidagi katta bir mas'ulyat bolgan tushunchadir. Tarbiya bu butun jamiyat, inson va yurt oldidagi murakkab jarayondir. Zero tarbiya hamma millatlarda ham xil beriladi. Bunga mentalititi va o'z an'analarini sabablidir. Ammo maqsad bir yani yurt uchun barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Farzandni ona qornida tarbiyalsh kerak degan fikrni kopchiligidiz eshitganmiz. Ammo bu narsaga amal qilish oila muhitidan kelib chiqqan holda har -xildir. Farzandni ona qornida tarbiyalshdan oldin biz o'ylashmiz kerakki « men farzand tarbiyasiga tayyormanmi, men qanaqa ota yoke qanaqa ona bolaman deb o'ylashmiz kerak. Bundan ko'rinish turibdiki sog'lom va barkamol farzand va jamiyatga jismonan va ma'nana sog'lom shaxsni tarbiyalsh har bir oilaning va yangi oila qurayotgan yoshlarning burchidir.

Asosiy qism: Tarbiya haqida so'z yuritar ekanmiz biz xohlaymizmi yo'qmi albatta bu dolzarb masala alabatta oilaga va uning sog'lom muhitiga bog'liq.

Biz aynan shu muhitda farzand tarbiyasi, axloqi, uning jamiyatdagi roli, o'rni, ijtimoiylashuv jarayonlari hamma hammasi shu oilada o'z aksini topadi. Farzand bu yozilmagan oppoq qog'ozdir. Biz shu qog'ozga nimani yozsak kelajakda albatta shuni o'qiyimiz. Bolaning qay darajada yaxshi tarbiya topishi bu.ota-onaga bog'liq. Yaxshi tarbiya korgan farzand oilaning yutug'i bolsa jamiyat uchun haqiqiy ulkan yutuqdir. Hech bir ota ona o'z farzandiga yomon tarbiya bermaydi. Ammo tarbiyaning noto'g'ri berilishiga sabab bu bolaning individual xususiyati hamda otan onadagi pedagogik bilimning yetishmasligi ham sabab bolmoqda. Yana bir savol tug'ilishi tabiiy hol. Ya'ni oilada tarbiya bir xil beriladiyu ammo tarbiyaning tasiri har xil boladi. Bunga asosiy sabab boladagi individula xususiyat, ijtimoiy muhit atrofdagi o'rtoq va do'stlari oiladagi nosog'lom muhit. Bu sabablar ham oialdagilari farzand tarbiyalanish jarayoniga tasir etadi. Bola uchun oilada va ijtimoiy muhit ya'ni maktabgacha ta'lif muassalari va maktab kollej litsey oily ta'lidiagi ijtimoiy muhit, katta hayotdagi ijtimoiy muhit bularning barchasi bolani hayotga tarbiyalaydi. Uning kelajakdagisi rolini va vazifalarini, majburiyatlarini belgilaydi.

Shaxsada o'zini-o'zi tarbiyalsh degan tushuncha mavjud. Zero oilada bola uchun yetarli darajada pedagogik va ma'naviy, madaniy tarbiya berilsada bola ijtimoiy muhitda, jamiyat turli insonlar va jamiyatning turli qatlamidagi jamoalarga duch keladi. Ayni shu jarayonda bola o'zining atrofidagi insonlarni turli xil tarbiyasini ko'rib nima to'g'ri yoke nima notog'ri ekanini ajratib olishi lozim. Shuning uchun ba'zan yaxshi ibrat na'munali oilalarda ham oz bolsada tarbiyasi og'ir bolalar ko'zga tashlanadi.

Bunga sabab ijtimoiy muhit va bolaning individual xususiyatidir.

Bolalar bir oilada tarbiya topsalarda ulardagi fikr mulohazalar har xil boladi. Bunga sabab alabatta individual xususiyat. Biz ota-onalar uchun bu borada pedagogik bilim kerak bo'ladi. Pedagogik bilim bu - ota -onaning oiladagi farzandlarining yoshiga jismoniy va ruhiy holatiga va bolaning shaxsiy qiziqishlariga qaragan xolda muomala qilish va tarbiya berishdir. Ammo ota-onalar ko'p vaqtarda buni e'tiborsiz qoldirishadi.

Bolada axloq bilan birga eng nozik bolgan insoniy tuyg'ulardan or, nomus, iroda, vijdon, va insonparvarlik tuyg'ularini uyg'otish va shu ruhda tarbiyalash kerak. Albatta bu borada



ota - onadan na'munaviy tarbiya talab etiladi. Eng yaxshi tarbiya bu ibrat- na' muna tarbiyasidir. Chunke aytigandan ko'ra amalda bajarilgan ish yaxshi samara beradi.Bolalarga biz aqliy ahloqiy, huquqiy, jismoniy ,estitik tarbiyani shakllantirishimiz lozim.

AQLIY tarbiya bu bolani talimiyl jihatdan ota -onalar pedagoglar tomonidan bolalarga va kattalarga beriladigan tarbiyadir.

Aqliy tarbiya tufayli inson o'zining ilmiy jihatdan imkoniyatlarini bilishi va shu ilm orqali olamnni anglashi va aqliy bilim tufayli o'zining qobiliyatlarini ham shakllantirshi mumkin ekanligini anglaydi.Inson aqliy tarbiyani nazariy va amaliy jihatdan oladi.Nazariy bilimlarni maktabdagi va oliy talimdagi ustoz pedagoglardan olsa amaliy bilimni hayotga tadbiq etish bu shaxsning ijodiy faoliyati darajasini belgilaydi.

HUQUQIY tarbiya insonni jamiyatdagi ijtimoiy roli hamda majbutiyatlarini aniqlash uchun zaruriy bilimlardan bohabar bo'lishi tushuniladi.Huquqiy tarbiyaning ildizi ham oiladan boshlansa uning shakllanishi albatta jamiyatda va maktabdagi ilk bilimlardan egallanadi , ya'ni buning uchun ustoz pedagoglar tomonidan rivojlantiriladi. Inson oiladagi va o'zining jamiyatda shaxs sifatida huquqiy bilimlarini egallashi zarur.

JISMONIY va ESTETIK tarbiya bu bolaning har tomonlaman ruhiy jismoniy jihatdan sog'lom bolishini belgilaydi.Estetik va jismoniy tarbiyada albatta inson oiladagi insonlardan ko'p narsa oladi. Estitik tarbiyada birinchi o'rinda kiyinish odobi ya'ni tartib bilan kiyinish va shunga o'xshash bolgan sa'nat go'zalligi, qalb go'zalligi , ruhning sog'lomligi bularning barchasi estetik tarbiyadir. Jismoniy tarbiyada ruh va tana birdik sog'lom va baquvvat bo'lishidir.Biz farzandni estetik didli yuksak nafosat egasi qilib tarbiyalashimiz ham muhimdir.

XULOSA: xulosa qilib aytganda inson o'z -o'zni tarbiyalashda o'zini yetuk salohiyatini rivojlantirishi, yutuq va kamchiliklarini kora olishi

.turli xil shaxsning o'zi haqidagi fikrlarini tog'ri mulohaza bilan qabul qilishi va xulosaga kelishida shaxsning o'z o'zini tarbiyalanganlik darajasi bilinadi.Buning uchun inson oziga o'zgalar tomonidan berilgan fikrlarni o'zining chegarasi darajasida tahlil eta olishi lozim.O'z o'zini tarbiyalash va takomillashtirish jarayonida yuqoridagi tarbiya jarayolariga e'tibor berishi va aniq bir xulosaga kelishi va unga yechim topishi, yoshlikdagi tarbiya jarayonlarinig zamirida shakllanadi. Buni tashkel etish ota- ona va ustozlar tomonidan amalga oshiriladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Xayitov Oybek Eshboyevich Psixodiagnostika
2. F.Qodirova SH Toshpo'latova M A'zamova Maktabgacha pedagogika T:Ilm-Ziyo. 2019
3. Z.T.NISHONOVA, N.G.KOMILOVA, G.U ABDULLAYEVA M.X. XOLNAZAROVA RIVOJLANISH PSIXOLOGIYASI VA PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA
4. «Umumiy Pedagogika» N.S.ATAYEVA-KITOBXON.COM



## МАКТАБ О'QUVCHILARIGA KIMYO FANIDA NANOMATERIALLAR VA OLISH USULLARINI O'QITISH ASOSLARI

**Mamatova Maxmuda Habibullayevna**  
Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani  
61-maktab kimyo fani o'qituvchisi  
Makhmuda\_scholl61@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda biz maktab o'quvchilarini nanotexnologiya va nanomateriallar bilan tanishtirish, ularni ishonchli ma'lumotlar va nanomateriallar kelajagi bilan tasnishtirish usullarini ko'rib chiqamiz

**Kalit so'zlar:** Nanomaterial,nanopozlar, nanokristallar, fulerenlar

Nanomateriallar bir yoki bir nechta o'lchamlari nanometr oraliq'ida bo'lgan tabiiy yoki qasddan ishlab chiqarilgan materiallardir. Ushbu toifaga bir nechta fazalarni o'z ichiga olgan "nano-nano" kompozitlar ham kiradi, ammo barcha fazalar 100 nm dan kam. Hozirgi vaqtida nanopozlar (ultradispersed kukunlari) allaqachon keng qo'llanilib, AQSh bozorining 90% dan ko'proq'ini nanomateriallar, nano tolalar va nanopirmalar, nanofilmlar va nanoplastlar uchun egallaydi. Nanokristalli va nano-donali (don hajmi 100 nm dan kam bo'lgan) quyma nanomateriallar tobora ko'proq foydalanishni boshlaydilar.Nanomaterialarni ishlab chiqarish muammosining dolzarbliji ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi, bu esa sifat va miqdor jihatidan yangi xususiyatlarga ega materialarni yaratishga imkon beradi. Buning sababi shundaki, bunday kichik o'lchamdagagi material uchun (odatdagiga nisbatan) quyidagi asosiy xususiyatlar sezilarli darajada o'zgaradi: o'ziga xos issiqlik, elastik modul, diffuziya koeffitsienti, magnit xususiyatlar va boshqalar. asl moddaning mexanik, optik va elektr xususiyatlarining o'zgarishiga. Shuning uchun qattiq jismarning nanostrukturaviy holati odatdagagi kristalli yoki amorf holatdan tubdan farq qiladi. 1985 yilda amerikalik kimyogarlar Richard Smalley, Robert Karl va Garold Kroto (1996 yil Nobel mukofoti sovrindorlari) fullerenlarni - shar shaklida joylashtirilgan 60 uglerod atomining molekulalarini kashf etdilar Fullerene - uglerodning allotropik shakli (boshqalar qatori: olmos, karbin, grafit). Fullerenlar - bu juft koordinatali uglerod atomlarining juft sonidan tashkil topgan qavariq yopiq poliedronlar. 1989 yilda IBM Kaliforniya ilmiy markazining olimlari Donald Egler va Erxard Shvitserlar o'zlarining firma nomlarini nikel kristalidagi 35 ksenon atomlari bilan tuzishga muvaffaq bo'lishdi (2-rasm). Dunyodagi birinchi atomlarni yangi joyga maqsadli ravishda uzatish uchun ular IBM STM-dan foydalanganlar. Biroq, bunday yozuv uzoq davom etmadi - atomlar tezda sirtdan tarqalib ketishdi. Nanoponderlarni olish usullari Kukunli texnologiyalarning resurs, energiya tejaydigan va yuqori texnologiyali xususiyati ularni nanomaterialarni ishlab chiqarish uchun juda istiqbolli qiladi. Ularning ishlab chiqarilishi uchun nanoponderlar xom ashyo sifatida ishlataladi, ya'ni 100 nm dan oshmaydigan kattalikdagi zarralar, shuningdek intensiv sillqlash sharoitida olingan va yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga o'xshash o'lchamdagagi kichik kristalitlardan tashkil topgan kattaroq kukunlar. Nanoponderlarni olish usullari juda xilma-xildir. Ularni shartli ravishda kimyoviy va fizikaga bo'lish mumkin. 1-jadvalda turli xil materiallardan nanopoxlarni olishning asosiy usullari va ularning turlari keltirilgan.Kimyoviy va fizikaviy usullarga bo'linish o'zboshimchalik bilan amalga oshiriladi. Bir tomondan kimyoviy reaksiyalar muhim rol o'yaydi, masalan, muhitdagi reaksiya gazlarining bug'lanishi paytida, ikkinchidan, ko'plab kimyoviy usullar fizikaviy hodisalarga asoslangan (past haroratli plazma, lazer nurlanishi va boshqalar). Kimyoviy usullar odatda ko'proq qirrali va samaraliroq bo'ladi, ammo zarralar hajmi, tarkibi va shakli fizik usullar, ayniqsa kondensatsiya usullari yordamida osonroq boshqariladi. Bug'lanish va kondensatlash usuli - bu nanoplastlarni olishning eng oddiy usuli. Izolyatsiya qilingan nanozarrachalar metall yoki qotishma boshqariladigan haroratda past bosimli inert gaz atmosferasida yoki vakuumda bug'lanishi natijasida olinadi, so'ngra bug'ning sovuq yuzada yoki yaqinida kondensatsiyasi. Vakuumdagi bug'lanishdan farqli o'laroq, kamdan-kam uchraydigan inert atmosferada bug'langan moddaning atomlari gaz atomlari bilan to'qnashishi tufayli kinetik energiyani tezroq yo'qotadi va ajratmalar (klasterlar) hosil qiladi. Bug'lanish va kondensatlash usulidan foydalanganda, hisobga olinishi kerak bo'lgan nanokovuchlarni olishning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: kondensatsiya zonasining kattaligi katta bo'lsa, gaz bosimi past bo'ladi;



gaz bosimining oshishi bilan zarrachalar kattalashadi;

inert gaz zichligining oshishi, masalan, geliy o‘rniga ksenondan foydalanish zarracha hajmining bir necha barobar ko‘payishiga olib keladi.

bug‘lanish va kondensatlanishning bir xil rejimlarida, erish nuqtasi yuqori bo‘lgan metallar kichikroq zarralarni hosil qiladi;

Bug‘lanish shartlariga (gaz bosimi, substrat harorati va joylashishi) qarab, metall kondensatsiyasi reaktsiya kamerasi hajmida ham, uning yuzasida ham bo‘lishi mumkin; bundan tashqari, quyma kondensatlar uchun sharsimon zarralar ko‘proq xarakterlanadi va sirt kondensatlari uchun, yuzli zarralar. O‘rtacha zarracha kattaligi 20 nm bo‘lgan mis kukunlari va alyuminiy kukunlari - 50 nm 200 Pa bosimdagи inert gazda elektr portlashi natijasida olinadi. Elektr portlashi natijasida olingan metall kukunlari va qotishmalarining zarralari sferik bo‘lib, nitrid kukunlari zarralari yuzli.

O‘rnatishning tashqi ko‘rinishi, uning printsipi gazsimon muhitda o‘tkazgichlarning elektr portlash texnologiyasiga asoslangan bo‘lib, 12-rasmda keltirilgan. Supero‘tkazuvchilar har bir portlashidan keyin hosil bo‘lgan aerosol fraktsiyaga uchraydi. Keyin nanoponderlar sekin oksidlanish bilan passivlanadi yoki zarrachalar yuzasi plynka hosil qiluvchi moddalar bilan himoyalanadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Nanokonstruksiya va biomeditsina 2020 Moskva
2. Ekstremal sharoitda metall asosidagi nanomateriallar, Andrievskiy R.A., 2
3. Nanoelektronika, Shchuka A.A., 2015
4. Nanokimyo va nanotexnologiya asoslari, Talanov V.M., Ereiskaya G.P., 2014



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQ O'STIRISH BILAN BOG'LIQ JARAYONLAR

**Maxsudova Muqaddamxon**

Andijon viloyati Asaka tumani

46-son umumta'lismaktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Tel: +998 90 545 57 16

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqning insonlar hayotida tutgan o'rni, boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish bilan bog'liq jarayonlarga to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** nutq, nutq o'stirish, ona tili, o'qish, alifbe, so'z, gap, tovush, ta'lism.

Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma'naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo'nalishini modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi keng qamrovli vazifalarni hal qilishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi xalqimiz oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarni amalga oshirishda muhim va asosiy vazifa hisoblanadi. Zamon talabidan kelib chiqib ta'lismizining maqsad va vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda boshlang'ich ta'lismizning sohasiga chuqur mas'uliyat bilan yondashish talab qilinmoqda. Boshlang'ich ta'lismizning o'qituvchisi o'quvchining savodini chiqarish bilan birgalikda ularning dunyoqarashini ham shakllantirib boradi.

Insonlar hayotida nutqning ahamiyatliligi shundaki, unda kishining o'y-fikrlari shakllanadi va mavjud bo'ladi. Nutq va tafakkur ishtirokida borliqni umumlashgan holda mavhum aks ettirish, individuallik doirasidan chiqib jamoatchilik mahsuliga aylanadigan mantiqiy tushunchaviy fikrlash mumkin bo'ladi. Nutq kishi ruhiyatining boshqa jihatlarini, uning sezgilarini, idroki, xotirasi, o'y xayollari, hissiyoti, irodasi va boshqalarning namoyon bo'lishi va amal qilishida, kishi ongingin rivojlanishida ham muhim ahamiyatga ega. Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirish ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslaninggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham asosiy vazifasidir.

Avvalo, bolaga nutq o'stirishdagi dastlabki poydevor 1-sinfdan alifbe darslarida qo'yiladi. Tovushlarni aniq talaffuz qilib, bo'g'indirlari birlashtirib so'zning yozuvdagini ifodasini o'qiyotgan o'quvchiga asta-sekin mustaqil ravishda matnlarni o'qish va uni nutqida ifodalash o'rgatilar ekan, bu nutq o'stirish va savod chiqarish jarayonlarini bir-biri bilan bog'liq holda birgalikda amalga oshirib borishni taqazo etadi. O'quvchida o'qish savodxonligi yaxshi amalga oshirilmas ekan bu nafaqat bola nutqining mukammal bo'lishi, bora-bora boshqa fanlarni o'zlashtirilishida ham salbiy ta'sir ko'rsatishini aytib o'tish lozim. Ertak, hikoya, yirik she'rlar, ilmiy ma'lumot, umuman olganda, o'quvchi uchun katta hajmdagi matnlarni o'qish birmuncha qiyinlashib boradi, ya'ni matnni o'qish davomida bolaning diqqat kuchi vogelikni tasavvur qilishga emas, o'qilayotgan so'zni tushunishga qaratilgan bo'ladi. Bo'g'indirlar yoki juda sekin o'qilayotgan so'zning nima ekanligi anglangunga qadar gapning eng avvalidagi so'zni o'quvchi unutib qo'yadi. Unutilgan so'zlarsiz esa gapni yaxlitligicha tasavvur etib bo'lmaydi. Tasavvur qilmas ekan bola uchun o'qish jarayoni tushunarsiz va zerikarli holatga aylanib boradi. Tabiiyki, bu holatlar o'quvchining bilim olishidan, kitobdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. O'quvchining istiqbolli kelajagiga salbiy ta'sir qiladigan mana shunday xatolarga sabab bo'luchchi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda o'qituvchilar va ota-onalardan ta'lismi-tarbiyaga doimiy sinchkov nazorat bilan yondashish talab qilinadi.

Ona tili o'qitish metodikasi darsligida nutq o'stirishda quyidagi uch yo'nalish aniq belgilab qo'yilgan: 1) so'z ustida ishslash; 2) so'z birikmasi va gap ustida ishslash; 3) bog'lanishli nutq ustida ishslash. Bu yo'nalishlar parallel ravishda olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishslash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili darslarida ichki va yozma nutqni rivojlantirish, o'quvchilar lug'atini ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar bilan boyitish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Bu darslarda tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gapni eshitishga va talaffuz qilishga



o‘rganadilar. Ular narsa, harakat bildiradigan ko‘pgina so‘zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, so‘z, o‘zak, qo‘shimcha, so‘z turkumi, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish, gap, darak gap, so‘roq gap, undov gap, gap bo‘laklari singari juda ko‘p yangi atamalar bilan tanishadi. Oldindan o‘z nutqida ishlatib kelayotgan, nutq ta’sirchanligini oshiruvchi vositalarni farqlaydi va ularni nutqida to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganib boradi.

O‘qish darsi va u bilan olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari kishilar hayoti va mehnati, ular bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Darslardagi badiiy asrlarni o‘qish, o‘qilganlarni qayta hikoya qilish, ekskursiyada predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko‘rganlarini hikoya qilish ularning og‘zaki nutqini o‘stiradi. O‘qish darslarida nutq o‘stirish jarayonini qiziqarli holatga aylantiruvchi sinfdan tashqari o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda o‘qilgan mavzular asosida o‘quvchilar o‘zlarining ijrosidagi spektakllarni tayyorlashi nutq jarayonidagi erkinlikning, ta’sirchanlikning oshishi, shu bilan birga kutilmagan nutqiy vaziyatlardan oson chiqib keta olishni o‘rganishda juda qo‘l keladi. Bundan tashqari, respublikamiz xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi chiqarilgan qaroriga asosan o‘quvchilarning matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlash bo‘yicha PIRLS topshiriqlarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarning o‘z nutqida mustaqil fikrlarini bayon etishi, ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish ishtiyoqining paydo bo‘lishida katta ijobiy natijalarga erishish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova K. Ona tili o‘qitish metodikasi.- Toshkent, 2009.
2. R.Ikromova va boshqalar. Ona tili. 4-sinf uchun darslik.
3. S.Fuzailov va boshqalar. Ona tili. 3-sinf uchun darslik.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## UMUMINSONIY QADRIYATLAR ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

**Musurmankulova Ra'noxon To'lanovna,**  
Toshkent shahar Yunusobod tumani 117- umumiy  
o'rta ta'lif maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jaray-onlarini tashkil etish omillari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik,

Xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo'lgan mehr-oqibat, insonni ulug'lash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratlari qadriyatlar, avvalo, o'qituvchi ongiga singgan bo'lishi va shu asosida o'quvchi ongiga singdirilishi, demokratik jamiyat barpo etish va uni mustahkamlash uchun barkamal avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuning uchun hozirgi kun tarbiyachisi:

- pedagogik faoliyatda qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, ma'naviy barkamol;
- O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan e'tiqodli fuqaro;
- mutaxassislikka doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'radigan, har bir o'quvchi ulg'ayib, yaxshi odam bo'lishiga chin ko'ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko'maklashadigan;
- erkin va ijobiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i darkor.

Ushbu qadriyatlar ta'lif-tarbiya asosida yosh avlod ongiga singdiriladi. Mamlakatimiz ta'lif muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratida umumbashariy qadriyatlar ularning ma'naviy dunyosi naqadar keng ekanligini namoyish etadi. Buyuk allomalarimizning ta'lif-tarbiyaga oid qarashlarida umuminsoniy, ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinni tutadi. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilm-u ma'rifat, ta'lif va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosi deb bilganlar. Inson xulqi va xatti-harakati aqlga, ilm-fanni o'rganishga hamda ma'rifatga asoslangandagina kamolotga erishadi.

Yosh avlodni tarbiyalashda ularga ilmiy bilimlarni berish bilan birga ma'naviy bilimlarni ham berish hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan bu maqsadlarga erishish uchun, eng avvalo, o'qituvchining ma'naviy dunyosi va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan munosabati juda yuqori darajada bo'lishi kerak.

O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda ma'lum omillarga e'tibor qaratish zarur:

- o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari samaradorligi o'qituvchilar faolligi va mustaqil ta'lif olish faoliyatiga bog'liqligi;
- ta'lif muassasasida o'qituvchi shaxsining rivojlanishiga turli darajada ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarining komponenti sifatida ahamiyatliligi;
- tarbiyaviy munosabatlarning asosiy shakllaridan biri bo'lgan inson-kitob-inson munosabatlarini, ya'ni inson-kitob-inson munosabatlari jarayonida ham o'zaro ta'sir jarayoni mavjudligini inobatga olish o'qituvchilarning kasbiy kompetentliliği jarayonlarini ilmiy asosda tashkil etishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Buyuk Sharq allomalarining fikrlariga ko'ra, insonparvarlik g'oyalaring amalga oshishi ma'naviy barkamollikka erishish, bilimli va ma'rifatli bo'lishga bog'liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni insoniy qadriyat darajasida ulug'lab, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallahsga chaqiradilar, muallimlarning mehnatini qadrlaydilar. Shu jumladan, Abu Rayhon Beruniy bilim-umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlab, shunday yozadi:



"Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin, kumush toplash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"<sup>1</sup>. Demak, umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini pedagogik nuqtayi nazardan izohlaganimizda, insonning ma'naviy ehtiyojlari asosida paydo bo'lgan, amaliy faoliyatda davr sinovidan muvaffaqiyatlari o'tgan, o'z shakl va mazmunida xalqning ma'naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma'naviy madaniyatini shakllantirish manbayi sifatida qadrlanib kelingan ma'naviy- ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar tushuniladi.

Pedagogik faoliyatda umumbashariy qadriyatlar o'qituvchining qizg'in mehnati evaziga shakllanib boradi va quyidagi muammolar o'qituvchi uchun bugungi kunda eng muhim ahamiyatga ega:

- o'qituvchi mehnatida jamiyatga xos umumbashariy qadriyatlarni o'z maqsadlarining asosi deb bilishi;
- o'qituvchi mehnatida maqsadli qadriyatlarni samarali o'qivchilarga uzatish istagining mavjudligi va imkoniyatlari;
- o'quvchilar maqsadli qadriyatlarni qabul qilishi uchun o'qituvchi tomonidan zarur shart-sharoitlarning yaratilishi.

O'qituvchi mehnatining mohiyatida uning ma'naviy saviyasini ko'rsatadigan intellektual ong, yuksak ma'naviyat, an'analarga va umumbashariy qadriyatlarga tayanadigan zamonaviy ilg'or yutuqlardan oziqlanadigan milliy dunyoqarash va e'tiqod kabi mezonlar mavjud bo'lishi kerak.

Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam.

Milliy qadriyatlar asosida yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash har bir o'qituvchi-pedagogning insoniy burchidir.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Abu Rayhon Beruniy: O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. Toshkent.

<sup>1</sup> Abu Rayhon Beruniy: O'ylar, hikmatlar, naqlar, she'rlar. Toshkent: 44-bet.



## BOLANI BILIM OLİSHGA RUHLANTIRING

**Taxirova Sabohat Rustamovna**  
Xorazm viloyati Shovot tumani  
49-IDUM amaliyotchi psixolog.  
Email:sabohat49maktab@umail.uz

**Annotatsita:** ushbu maqolada bolani bilim olishga ruhlantirish qanday maqsadlar qo'yish kerakligi va ularni yechimlari qolaversa bu borada psixologning ro'li qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Siz farzandingizni maktabda o'qishini yaxshilamoqchisiz bunga faqatgina uyga vazifalarini majburlab bajartirib erishib bo'lmaydi. Bola ta'limni har yerda olishi mumkin, bu ota-onaga bog'liq. Muhimi siz farzandingiz uchun vaqt ajratib, ta'lim-tarbiyasiga e'tibor bering. Farzandingiz xarakter va qiziqishlarini hisobga olgan holda u bilan suxbatlashib, bilim olishga qiziqishini ruhlantiring.

Tarbiyada shunday fikr bor: Aqli ota-onasiga matematikani o'rgatadi dono ota-onalar esa bolasiga nima kerak bo'lsa shuni o'rgatadi. Agar farzandingizni bilim olishga ruhlantira olsangiz uning maktabdagagi o'qishi o'z-o'zidan yaxshilanib ketadi. SHunday maslahatlarni quyida beramiz.

### 1. Birgalikda kitob o'qish!

Kitob do'koniga boring va kitobni bolangiz tanlasin albatta siz uning yoshiga dunyoqarashiga mos kitoblar peshtaxtasini ko'rsatasiz va nima uchun shu kitobni tanlaganini so'rang. SHu kitobni o'qisang bilimli bo'lib ketasan, maktabdagagi o'qishing zo'r bo'ladi degan gaplarni aytmang! SHunchaki kitob qiziqligini aytib siz va farzandingiz kitobni alohida o'qing. Har kuni bir xil vaqtda!!! Bir kun qoldirsangiz u soviydi butun umrga!!! Kitobni o'qib menga aytib ber tushunganingni degan gaplar yaramaydi. O'zingiz ham kitobni o'qib kerakli joylaridan savollar bering, fikr almashing.

### 2. Maqsadli o'yinlarni tashkil qiling.

Bolalar ta'limni o'yin orqali o'zlarini bilmagan holda o'zlashtirishadi. Bolalar bilan tasavvurni va ijodkorlikni ishga solib o'ynash lozim. Qasr yasadingizmi qasr haqida gapiring, masalan Vatanimizdagi tarixiy qadamjolar yoki butun dunyodagi boshqa joylarni ta'riflab aytib bering. Bundan tashqari qasr ichidagi shox va malika. YOki ko'priklar va ko'prik ostidagi daryolar. Asosiysi o'yin jarayonida siz ma'lumot berishni kanda qilmang. Bolangizni dunyoqarashi o'sadi. SHaxrisabzdagi Oqsaroy Agradagi Tojmahal haqida ma'lumot bering Tojmahalni bizning ajodolarimiz qurdirgan deng rasmini ko'rsating Xullas yozaman, aytaman desa ma'lumot ko'p.

### 3. Farzandingizni tabiatga olib chiqing.

Farzandingizning e'tiborini fizika, biologiya, kimyoga qaratish uchun uni tabiat bilan oshno qiling. Agar u koptoq o'ynasa koptoqning fizik xossasini aytинг(Masalan Nyuton qonuni: Bir jismga boshqa bir jism ta'sir etmaguncha u o'z harakatini o'zgartirmaydi. Bir kun bolangiz katta sinfga o'tib, maktabda fizika darsi o'tilsa shunaqangi qiziqadiki o'ziyam fizik olim bo'lib etishadi). YOki o'simliklarni o'rganing kerak bo'lsa lupa olib chiqing, ma'lumotlarni bering o'simliklar haqida. Biror notanish o'simlik topib olsa o'zicha nom qo'yin mayliga hammasi bolaga ta'lim olishda va bilimni sevishda katta turtki bo'ladi.

### 4. Bolangiz bilan o'qishi haqida suhbatlashing

Bolangizdan bugun maktabingda nima qilding yoki nimani o'tdingiz deng! U esa hech narsa deb javob beradi. Boshqa nima kutgandingiz!!! Bir kunda 6 soat darsdan qaysi birini aytishni bilmay hech narsa deb qo'yadi. Siz aynan qaysi darsligini so'rang Qaysi mavzularni o'tayotganini biling va savolni to'g'ri bering. Haqiqiy e'tibor mana shu bo'ladi. O'qishdan kelishi bilan qorning ochib qoldi, charchading, ovqatlanib uxla deyish ham yaxshi ammo zo'r emasdaaa.

### 5. Bolangizda shaxsiy tajriba hosil qiling!

Hech qachon o'z qiziqishlaringizni agar farzand xoxlamasa uni majburlamang. Aksincha uning o'z qiziqishlarini yuzaga keltira olishini ruhlantiring. Agar farzandingiz men katta bo'lsam shifokor bo'laman yoki yurist bo'laman yoki uchuvchi bo'laman yoki boshqa kasbni aytса ham, siz uni qo'llab-quvvatlashingizni aytинг. Yaqin atrofingizdagи farzandingiz tanigan kasb egalari haqida gaplapping. Kasb to'g'risida suxbatlapping. Hech qachon bolangizga shart qo'y mang va majburlamang. Uning fikrlarini hurmat qilib tinglang noto'g'ri fikr yuritayotgan bo'lsa, hayotiy



misollar bilan to‘g‘ri tushuntiring va uni ruhlantiring.

Agar farzandingiz maktabga borgisi kelmayotgan bo‘lsa uning o‘qishga nisbatan maktabga nisbatan fundamenti yo‘q. Maqsadini yo‘qotib qo‘yyapti, ko‘pchilik hollarda ota - onalar hattoki. Agar uning maktabga qiziqishini qaytishini va yangi bilimlar olishini xohlasangiz unga ta’limning (O‘qishning emas, maktabdan bergen kitoblaridan emas) barcha turini oz–ozdan ko‘rsatib, o‘rgatib turing. Ta’limga bo‘lgan muhabbati qaytguncha siz ham ancha sabr qilishingiz kerak bo‘ladi. Chekllov va shartlar bilan emas, farzandingizni qiziqishlarini hisobga olgan holda bilim olish uchun ruhlantiring.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O‘qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1997 y. -272 b.
3. Sh.A. Do‘stmuhamedov, Z.T. Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
4. S.N. Alimxo‘jayeva, F.I. Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## SOTSIOFOBIYANING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Niftullayeva Surayyo Maxmutovna

Navoiy viloyati Karmana tumani

3-son umumiy o'rta ta'lim maktabi psixolog

Tel: +998913395406

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlari, sotsiofobiya va uning uning belgilari, hissiy alomatlari, uni diagnostika qilish usullari haqida malumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiylashuv, individuallashuv, sotsiofobiya, xatti-harakat qo'rquv, muhit, xavotir, sotsiopatlar, psixologiya, M.Leybovich, hayajon.

Inson tug'ilgach ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayonlarini bosib o'tgach shaxs bo'la ola-di. Ijtimoiylashuv ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatini o'zlashtirish, ya'ni ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Individuallashuv o'ziga xoslikka ega bo'lish, jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'lish, mustaqil bo'lish degani. Agar shaxsnинг jamiyatga kirishida ijtimoiylashuv va individuallashuv jarayoni o'rtasida tenglik yuzaga kelmasa, insonning jamiyatga yaqinlashuvi ro'y bermaydi. Sotsiofobiya ham insonni jamiyatdan, ijtimoiylashuvdan uzoqlashtiradi, individual rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Hozirgi davrda insonda uchrovchi tibbiy kasalliklar bilan bir qatorda psixologik nuqsonlar, muammolar ham ko'payib bormoqda. Bularning kelib chiqish sabablari ham turlichadir. Insonlar orasida psixologik nuqson yoki maummolari bor insonlar bor, ammo ular buni jiddiy qabul qilishmaydi, aksariyat hollarda e'tibor ham berishmaydi. Sotsiofobiya ham insonlar e'tibor bermaydigan, shunchaki tortinchoqlik, uyatchanglik yoki qo'rquvga yo'yib qo'yilaveradigan muammo-lardan biridir.

Sotsiofobiya – omma oldida xatti-harakat qilishdan doimiy va asossiz qo'rquv. Sotsiofoblar har qanday jamoat harakatlaridan masalan, nutq so'zlashdan, ko'pchilik oldida ovqatlanishdan, odamlarning diqqat-e'tiborini jalb qiladigan harakatlar qilishdan, o'zgalar nigohida bo'lishdan qo'rqadi. Biz sotsiofobiya alomatlarini, belgilarini hayojonlanish bilan adashtiramiz. Masalan har qanday shaxs ham rasmiy shaxs bilan suhbatda yoki ko'pchilik oldida muhim nutq so'zlaganda hayajonlanadi. Ammo sotsiofoblarda bunday vaziyatlarda reaksiyalar kuchli va yorqin ko'zga tashlanadi. Ayrim sotsifoblar yolg'iz bo'limguncha hech qanday harakatni bajara olmaydilar. Ijtimoiy qo'rquv har xil yoshdag'i va turli ijtimoiy toifalar orasida aniqlangan. Biroq, ko'pincha ijtimoiy fobiya ijodiy ish bilan shug'ullanadigan odamlarda qayd etiladi: yozuvchilar, rassomlar, kompyuter dasturchilari va vaqtini kecha-yu kunduz virtual o'yin maydonida o'tkazadigan insonlarda ham mavjud.

Ijtimoiy qo'rquv turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi – kimdir telefon suhbatlaridan qo'rqa-di, kimdir ko'chaga chiqish, kafelarga tashrif buyurish, jamoat joylarida ovqatlanishdan, ommaviy chiqishlar, qarama-qarshi jinsdagi odamlar bilan aloqa qilishdan, ishslash paytida ularni kuzatishlaridan qo'rqadi. Ushbu fobiyaning alomatlari va belgilari xilma-xil bo'lib, ular vahima hujumini eslatadi: odamning qo'llari titraydi, tizzalari egilib, terlash, ko'ngil aynishi, nafas olishda qiyinchilik kuzatiladi, u issiq yoki sovuqqa tashlanishi mumkin. Aynilsa bu belgilar kuchli yurak urishi va tushunarsiz qo'rquv hissi bilan birga keladi. Sotsiofobiyaning hissiy alomatlari: asabiylashish, tez-tez kayfiyat o'rgarishi, asossiz ko'z yoshlari, vahima. Ba'zida sotsiofoblar va sotsiopatlarni farq qilish qiyin bo'ladi. Ya'ni har ikkisida ham belgilari o'xshashdir. Sotsiopatiya – bu boshqalar uchun xavf tug'diradigan patologik ruhiy kasallikka chalingan odamlar. Sotsiofoblar hech kim uchun xavfli emas, oddiy odamlardan farq qilmaydi. Ijtimoiy qo'rquvni diagnostika qilishda Leibovich shkalasidan foydalananiladi. Bu shkala 1987-yilda psixiatr Maykl Leibovich tomonidan yaratilgan. Bu ijtimoiy fobiya uchun test bo'lib, uning alomatlari va darajasini aniqlashga imkon beradi. Sotsiofobiya inson hayotini sezilarli darajada zaharlaydi va odatdag'i kundalik muammolarni hal qilishga imkon bermaydi. Sotsiofoblar uchun do'st orttirish, shaxsiy hayot qurish va ish topish juda qiyin. Ular yolg'iz yashashni xohlaydi va jamiyatga aloqador har qanday vaziyatdan qochadi.

Ijtimoiy fobiya ko'pincha boshqa psixotik kasalliklar bilan birga keladi. Ijtimoiy fobiyaning 65% dan ortig'i qandaydir ruhiy muammolarga ega. O'z vaqtida mutaxassisdan yordam so'ralmasa, ijtimoiy fobiya yomonlashishi va ish qobilyatining yo'qolishiga, depressiyaga, alkogolizm yoki giyohvandlikning rivojlanishiga qadar olib kelishi mumkin. Bunda odam uyalishni yoki hayajonni



yengish uchun ham alkogol yoki giyohvand modda istemol qiladi. Imkoniyat bo‘ldi deguncha bunday odamlar fobik ya‘ni ularni qo‘rquvgaga soluvchi vaziyatlardan qochadi va ohir oqibat ijtimoiy izolyatsiyagacha olib keladi. Uyga kishanlanib qolish esa ular ahvolini yanada yomonlashtirishi mumkin. Ushbu muammolar insonlarning ijtimoiylashuviga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ularni e‘tiborsiz qoldirmasligimiz va yanada chuqur o‘rganishimiz kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. N.Islomova, D.Andullayeva Ijtimoiy psixologiya.
2. M.Томас «Исповедь социопата. Жить не глядя в глаза».
3. Internet saytalari.



## UMUMTA'LIM MAKtablARI FANLARINI O'QITISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARINI QO'LLASHNING QIYOSIY TAHLILLARI

**Nurmuhamedova Nasiba Xurramovna**  
Muzrabet tumani 27- umumta'lism maktabi  
informatika fani o'qituvchisi,  
**Mirova Kamola Egamberdiyevna**  
Termiz shahar 8-umumta'lism maktabi  
boshlang'ich ta'lism o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lism maktablari fanlarini o'qitishda ilg'or xorijiy tajribalar husususida nazariy va amaliy ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, AQSH, Finlandiya va boshqa xorijiy rivojlangan mamlakatlardagi ta'lism tizimlari tahlil qilingan.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llabquvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lida xalqaro tajribalarni o'rghanish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lism sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rghanish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi ta'lism sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin.

Qariyb 60 yildan ko'proq vaqt mobaynida IEA tashkiloti ta'limi qiyosiy o'rghanish sohasida yetakchi tashkilot bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot ta'lism tizimida davlat siyosati va amaliyotning ta'sirini chuqurroq o'rghanish maqsadida ta'lism sohasida keng miqyosli tadqiqotlar olib boradi. Bu tadqiqotlar ta'lism jarayonlari va natijalarini ko'rib chiqib, ta'lism sifatiga ta'sir etuvchi o'zaro bog'liq omillarni qiyosiy tahlil qiladi.

Davlat ta'lism standartining vazifalaridan biri davlat ta'lism standartlari talablarining ta'lism sifati va kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash etib belgilangan. Umumiyo'tta ta'lism davlat ta'lism standartining asosiy prinsiplaridan biri rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lism sohasida me'yirlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda foydalanishdir.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lism tizimini o'rghanish, ularning ilg'or tajribalarini milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda amalda qo'llash dolzarb vazifa sanaladi. Quyida bir qator rivojlangan xorijiy davlatlarning ta'lism tizimi, xususan, ta'lism mazmuni yoritilgan. Buyuk Britaniyada 5 yoshdan 16 yoshgacha ta'lism olish majburiy hisoblanadi.

Ammo, chet ellik oila farzandlari 7 yoshdan mакtabga qabul qilinadi.

Ta'lism bosqichlari: 1) maktabgacha ta'lism (3-5 yosh); 2) boshlang'ich ta'lism (5-11 yosh); 3) o'rtta ta'lism (11-16 yosh); 4) oliy ta'lism.

Ta'lism tizimi 2 tarmoqqa ajratilgan: davlat byudjeti hisobidan bepul ta'lism (state school), unda bolalarning 93% i o'qyidi hamda xususiy, pullik ta'lism (private school)da bolalarning 7% i o'qyidi. 7-11 yoshli bolalar boshlang'ich mакtab (junior school yoki preparatory school) da o'qishadi.

Maktabda matematika, ingliz tili, geografiya, tarix, musiqa va san'at o'qitiladi. Asosiy o'qitilayotgan fanlardan Common Entrance Examination (CEE) – umumiyo't kirish imtihonini test sinovlari ko'rinishida va IQ topshiriladi. 11 yoshdan 16 yoshgacha davlat yoki xususiy mакtablarda o'qitish o'quvchilarining GCSE (General Certificate of Secondary Education) – o'rtta ma'lumot haqidagi shahodatnomasi yoki GNVQ (General National Vocational Qualification) — kasbiy malaka haqidagi milliy guvohnomani olishga qaratilgan.

14 yoshdan 16 yoshgacha o'quvchilar, odatda, 7-9 ta fandan imtihon topshirishga va o'rtta ma'lumot haqidagi sertifikat GCSE ni olishga tayyorlanishadi. Britaniya maktablarining asosiy



vazifalaridan biri ijodiy, o‘ziga ishongan, mustaqil insonni tarbiyalashdir.

O‘quvchilar ta’limning maxsus umumiy siklini o‘tib bo‘lgach, imtihon (Common Entrance Examination) topshirishadi. Imtihondan muvaffaqiyatlari o‘tish yuqori maktabga o‘tishning majburiy sharti sanaladi. Majburiy ta’limdan so‘ng 16 yoshli o‘smirlar ish boshlashlari yoki universitetga o‘qishga kirish uchun o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Maktabda o‘qitishning maqsadi o‘quvchilar har bir fandan egallagan bilim, malakalarini maktab ta’limining oxirgi bosqichida namoyish eta olishidir.

Barcha fanlardan o‘quv maqsadlari ortib boruvchi qiyinlik darajasi bilan ifodalanadi. Buyuk Britaniya ta’lim tizimida o‘qitish natijasining muhim jihatlaridan biri fanni o‘zlashtirganlik darajasi sanaladi. Bu o‘quvchilarning fanni nafaqat o‘qish jarayonida, balki o‘quv kursini tugatganlaridan so‘ng ham ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazishda tadqiqot metodlarini to‘g‘ri tanlash muhimligini anglaydilar.

O‘quvchilar maktab davrida o‘z o‘quv tadqiqotlarining kuzatish natijalari yuzasidan hisobot tayyorlaydilar, maktab kursidan o‘rin olgan hodisalarining dalillariga tanqidiy fikr bildiradilar, mazkur dalillarga qo‘srimcha dalillarni mustaqil topish imkonini beradigan usullarni tushuntirishga harakat qiladilar. Shuningdek,

Buyuk Britaniyada fan kursini o‘qitishda interfaol o‘qitish shakllari va metodlardan foydalaniadi.

Zoologiya va botanikadan laboratoriya ishlarini o‘tkazishda kompyuter texnologiyalari qo‘llaniladi, chunki tajribalar o‘tkazishda tirik preparatlardan foydalanish qonun tomonidan ta’qilangan. Finlyandiya. 15 yoshli maktab o‘quvchilarning tabiiy fanlardan savodxonligini o‘rganuvchi PISA xalqaro dasturining 2012 yilgi natijalariga ko‘ra, Finlyandiya Xitoy, Singapur, Yaponiyadan keyin 4-o‘rinni egallagan.

Finlyandiya Konstitutsiyasida mamlakatning har bir fuqarosi 7 yoshdan 17 yoshgacha majburiy ta’lim olishi belgilangan. Fin ta’limining asosiy jihatlari:

- o‘rta maktabda tabaqalashtirilgan sinflarning ta’qilanganligi;
- teng yoshdagi barcha o‘quvchilarga fanlar bir xil o‘qitiladi, ixtisoslashtirilgan, maxsus sinflar yo‘q;
- individual yondashuv (Finlyandiyada har uchta o‘quvchining bittasi alohida fanlardan u yoki bu shaklda maxsus yordam oladi), bu esa kuchli va kuchsiz o‘quvchilar o‘rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga imkon beradi;
- o‘qitishning umumiy maqsadi – jamiyatning ma’naviy javobgar a’zosini shakllantirish. Kundalik hayotda zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarga alohida e’tibor qaratiladi;
- ta’limning milliy maqsadlarini va har bir fanni o‘qitishga ajratilgan soatlarni hukumat belgilab beradi. Barcha pedagoglar yagona milliy dasturni amalga oshiradilar. Ammo o‘qitish metodlari, usullari, vositalari, o‘quv qo‘llanmalarini tanlashda ularga chegara qo‘yilmagan.

Finlyandiyada majburiy ta’lim ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1. Boshlang‘ich maktab (elementary school) 1-6-sinflar.

2. Asosiy umumiy ta’lim (lower secondary school) 7-9 sinflar. Asosiy maktabni tamomlagach, o‘quvchilar tugallangan umumiy o‘rta ta’lim beradigan gimnaziyada (3 yil) yoki kasbiy-texnik o‘quv yurtida o‘qishlari mumkin. (1-4 yil). Maktab ta’limi o‘rtacha o‘quvchiga, gimnaziyada esa o‘quv dasturi murakkab bo‘lib, kuchli o‘quvchilarga mo‘ljallangan. Gimnaziyani tamomlashda o‘quvchilar ona tilidan (fin yoki shved tili), davlatning ikkinchi tili chet tili, shuningdek, matematika yoki ijtimoiy fanlardan davlat imtihonlarini yozma holda topshiradilar. Fan o‘qitish tizimining yutuqlarini neyropedagogika prinsiplariga mos kelishi bilan ham bog‘lash mumkin.

Bolalarni turli manbalar (internet, kitoblar)dan bilimlarni “egallash”ga o‘rgatiladi, shuningdek, tadqiqot va loyihalash ta’limining turli shakl va metodlaridan foydalaniadi.

AQSHda “strategik fanlar” (matematika, kimyo, fizika, kompyuter texnikasi)ni o‘qitishga alohida e’tibor qaratiladi. Maktablarda yagona dastur mavjud emas. Boshlang‘ich maktab 6 yillik, unda fizika, kimyo, geografiya, astronomiya, botanika, fiziologiya fanlarining ma’lumotlarini qamrab olgan tabiatshunoslik haftasiga 2 soatdan o‘qitiladi. Boshlang‘ich maktabning o‘ziga xosligi o‘quv materialining kompleks tuzilganlidir. Pedagogikada bilimlarning integratsiyasi markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘quv materialining fan ko‘rinishidagi tuzilmasi mavzular majmuasi yoki amaliy vazifalar ko‘rinishida dastur bilan uyg‘unlashgan. Dasturlar spiral tuzilishiga ega, ya’ni bir xil mavzular har bir sinfda murakkablashgan holda o‘qitiladi.

Umuman olganda, o‘quv materialining tor amaliy yo‘nalganligi va yengilligini qayd etish



mumkin. Xorijiy davlatlar ta'limida umumta'lim fanlarni o‘qitishning ilg‘or tajribalari sifatida shuni qayd etish mumkinki, fanni o‘qitishda o‘quvchilarga “tayyor” bilimlarni “berish”dan ko‘ra, o‘quvchilarining bilimlarni “egallashlari”, o‘qitishning reproduktiv metodlaridan ko‘ra, amaliy, muammoli, tadqiqotchilik metodlari ustunlik qiladi. Fanni o‘qitishga bunday yondashuv esa zamон talabi bo‘lgan intellektual salohiyati yuqori shaxsni tarbiyalash imkonini yanada oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev Yusuf. Jahon malaka oshirish maktabi: Qiyoziy tahlil // Ma’sul muharrir: S.S. G‘ulomov. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr., 2001.-288b.
2. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya, 2014, 18 b.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA BOLANING YOSHI VA PSIXOLOGIK  
XUSUSIYATLARIGA KO'RA O'QITISH METODIKALARI**

**Qayumova Hafiza Soliyevna**

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani  
61-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
hafiza\_school61@gmail.com

**Xakimova Shoira Abdug'anievna**

Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani  
19-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Shoira\_scholl19@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga ko'ra psixologik xususiyatlari va o'qituvchi murabbiylarning ushbu xususiyatlarni bilgan holda dars o'tish jarayonida qo'llay olish usullarini ko'rib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** Bolalarning rivojlanishidagi birinchi va eng muhim lahza mактабга o'qishni boshlashdir. 6 - 7 yoshdan 10 - 11 yoshgacha bo'lган mактаб yoshi - bu bolaning o'zi va uning oilasi hayotining ma'lum bir davri.

Ota-onalarning asosiy vazifasi - bolani mактабга tayyorlash. Mактабga borish istagiga qaramay, hamma bolalar ham o'rganishga tayyor emaslar. Shuning uchun, bola mактабga kirishdan oldin, u (bola) mактаб psixologi bilan suhbatlashishi muhimdir. Bola birinchi marta mактабga borganida, oila ma'lum inqirozni boshdan kechiradi. Mактаб vaqtining boshida munosabatlarning yangi mazmunini talab qiladigan yangi ijtimoiy vaziyatga o'tishni talab qiladigan etti yillik inqiroz keladi. Ilgari ijtimoiy munosabatlar (bolalar bog'chasi va boshqalar) allaqachon o'zlarini charchatgan, shuning uchun u imkon qadar tezroq mактабga borishga va yangi ijtimoiy munosabatlarga kirishga intiladi. Inqiroz davri bolaning qachon mактабga borishi, uning o'qishga qanchalik tayyor ekanligiga bog'liq bo'ladi. Bu ham muhim jihatdir, chunki ko'plab ota-onalar farzandining nega mактабga nisbatan passiv yoki tajovuzkor ekanlididan hayron bo'lishadi. Bundan tashqari, 4 yoki 5 yoshda bolani ravon o'qish va yozishni o'rgatishganidan, bu hech narsani anglatmaydi, lekin, albatta, iqtidorli bolalar bundan mustasno! Agar bola mактабga 7, 3 - 8 yoshda kelgan bo'lsa, unda u o'yinni avvalgidek qiziqtirmaydigan, u orqa fonga o'tadigan ba'zi bosqichlardan o'tishi kerak. Bola o'yinda o'zgarishlarni amalga oshirishga harakat qiladi, samarali, mazmunli, kattalar tomonidan qadrlanadigan faoliyatga intilish mavjud. Bolada kattalarga aylanishning sub'eaktiv istagi rivojlana boshlaydi. Avvalo ota-onalarga qaratilgan salbiy alomatlarning paydo bo'lishi mumkin. Bola mактабga kelganida uning hissiy holati barqarorlashadi va ichki qulaylik tiklanadi. Mактабga kirgan etti yoshli bola jiddiy hayotiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda: aqliy, jismoniy, hissiy stress kuchayadi, kun tartibi o'zgaradi va bir qator yangi tashvishlar va vazifalar paydo bo'ladi. Etti yoshli bolalarning aksariyati mактабga tayyor: ularning xotirasi ancha rivojlangan, ular diqqatlarini qanday boshqarishni bilishadi va boy so'z boyligiga ega. Birinchi sinf o'quvchisi ongida boshlang'ich operatsiyalarni bajarishi, eshitganlarini tushunishi, hissiyotlari va harakatlarini ma'lum doirada boshqarishi mumkin. 6 - 6,3 yoshida mактабga erta kelgan bolalarning boshqa bosqichlari bor, ularda bola endi o'rganish bilan emas, balki o'yin bilan shug'ullanadi, chunki hozircha bu uning etakchi faoliyati bo'lib qolmoqda. Bola hali o'yindan o'rganishga o'tish uchun zarur shartlarni shakllantirmagan. U sinfda ham, uyda ham o'ynashni davom ettiradi, bu esa o'rganish va xulq-atvor muammolariga olib keladi. Bola o'zining ijtimoiy mavqeidan noroziligini boshdan kechiradi, hissiy va shaxsiy noqulayliklarni boshdan kechiradi. Xulq-atvorda paydo bo'ladigan salbiy alomatlar ota-onalar va o'qituvchilarga qarshi qaratilgan. Bola bir vaqtning o'zida, teng shartlarda, o'quv dasturini va kerakli o'yin harakatlarini o'zlashtirishi kerak. Agar u buni uddalasa, unda hissiy va shaxsiy qulaylik tiklanadi va salbiy alomatlar yumshatiladi. Ko'pgina bolalar mактабga kirgandan keyingi dastlabki oylarni boshdan kechirishga qiynaladilar. Ota-onalar bolaga yordam berishga majburdirlar, lekin ayni paytda ular fanatizmni ko'rsatmasliklari kerak. Ular etti yoki sakkiz yoshida uning tashqi yordamisiz qilish istagi borligini tushunishlari kerak. Ba'zi ota-onalar birinchi sinf o'quvchisiga o'z xizmatlarini keraksiz ravishda taklif qilishda xato qilishadi, uni o'zi uchun mumkin bo'lgan stresslardan hasad bilan himoya qilishadi, uni xonasini tozalashdan, kiyim va poyafzalni parvarish qilishdan butunlay ozod



qilishadi. Ular maktab darslari, chet tili darslari, musiqa bilan haddan tashqari ko‘p bo‘lgan bola uchun hayotni osonlashtirmoqchi ekanliklarini aytib, buning uchun tushuntirishlar topmoqdalar, lekin haddan tashqari ehtiyojkorlik ularning dangasalik, beparvolik kabi salbiy xususiyatlarini shakllantirayotganligini inobatga olmaydilar. , iroda etishmovchiligi, nochorlik, qiyinchiliklarni engib o‘tolmaslik. Hatto boshlang‘ich maktabda ham bola mehnat uning oilasi farovonligi poydevorini tashkil etadigan barcha afzalliklarning asosiy manbai ekanligini tushunishi kerak. Bolani kattalar mehnatini hurmat qilishga, uni maktabda va uyda foydali ishlarga jalb qilishga o‘rgatish kerak. Yosh maktab o‘quvchisini o‘qitish va tarbiyalash uning fe’l-atvori, salomatligi holati va aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning shaxsiga individual yondoshishga asoslangan. Ota-onalar o‘rtasida talabani qanday o‘qitish kerakligi, sinflarga qanday munosabatda bo‘lish, maktab hayotida qanday ishtirok etish, uy vazifasini kim nazorat qilishi va ular umuman bajaradimi-yo‘qmi, bolaga to‘liq ta’lim berish va boshqalar haqida nizolar kelib chiqishi mumkin. Bunday inqirozlar oilaviy hayot davomida, turmush qurish paytidan boshlab, bola tug‘ilishidan, maktabga birinchi safari, o‘sprinlik va o‘sprinlik davridan va, albatta, voyaga etganidan boshlab sodir bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. NamDU 2003 ma’ruzalar matni
2. Boshlang‘ich sinflarni o‘qitish metodikasi. Toshkent 2007
3. Bolalar va o‘smirlar psixologiyasiga kirish. Qo‘qon 2008.



## ZAMONAVIY AXBOROT TEKNOLOGIYALARI TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA

Raximberganova Iqbol  
Qo'shko'pir tumanidagi 5-son umumta'lim  
maktabi informatika fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lism sifatini oshirishdagi o'mni va uning ahamiyati yoritib berilgan

**Kalit so'zlar:** ta'lism, tarbiya, ta'lism jarayoni, dars mashg'ulotlari, kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, elektron o'quv vositalar, multimedia.

Ta'lism jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish o'quvchilar va o'qituvchilarni intellektual rivojlantirish hamda jamiyatimizni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirishning muhim vazifasidir. Shu bois ta'lism sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning kirib kelishi yangi o'zgarishlardan foydalanishni taqazo etadi. Zamonaviy jamiyat axborot uzatish hajmi va tezligi jihatidan chegaralamagan butun jahon axborot tarmog'idan faol foydalanishi bilan harakatlanadi. Multimediya va internet texnologiyalarining paydo bo'lishi va keng tarqalishi axborot texnologiyalarni muloqot, tarbiya, jahon hamjamiyatiga kirib borish vositasida ishlatish imkonini beradi.

Ta'lism jarayonida, dars mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ishlatilishi o'qishga bo'lgan o'quvchilarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy jahon darajasi shundaki, respublikada jahon axborot makonining infratuzilmalari va milliy axborot-hisoblash tarmog'i integratsiyasiga mos keluvchi milliy tizimni yaratish milliy iqtisodiyot, boshqarish, fan va ta'lism samaradorligining muhim omili bo'lmoqda. Bu muammolar ancha murakkab va ayni paytda respublikamiz uchun dolzarbdir. Hozirda olib borilayotgan iqtisodiy, tuzilmaviy va boshqa o'zgarishlarni amalga oshirish natijalari respublikada axborotlashtirish bilan bog'liq muammolarning qanday va qaysi muddatlarda hal etishga ham bog'liqdir. O'quv fanlari bo'yicha elektron o'quv vositalarining yaratilishi mazkur fanlarni o'qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytiradi. Bu o'z navbatida, o'quvchilarning mazkur fanlar bo'yicha bilimlarini chuqur o'zlashtirishlarining asosiy omili bo'lib, ta'lism-tarbiya sifati va samaradorligini oshiradi. Ayni shunday sa'y-harakatlar amalga oshirilishi ta'lism jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tatbiq etishni yanada jadallashtirish, o'qituvchilarni ilg'or pedagogik bilimlar va texnologiyalar bilan qurollantirish, ularning mahoratini oshirish, xorijiy ta'lism tajribasini chuqur o'rganish hamda ulardagi samarali usul va vositalarni milliy ta'lism tizimimizga joriy etish imkonini yaratadi. Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasıdir. Uning ajralib turuvchi belgilari quyidagilar kiradi: – axborotning xilma-xil turlari: an'anaviy (matn, jadvallar, bezaklar va boshqalar), original (nutq, musiqa, videofilmardan parchalar, telekadrlar, animasiya va boshqalar), turlarini bir dasturiy maxsulotda integratsiyalaydi. Bunday integratsiya axborotni ro'yxatdan o'tkazish va aks ettirishning turli qurilmalari, muayyan vaqtdagi ish, o'z tabiatiga ko'ra statik bo'lgan matn va grafikadan farqli ravishda, audio va videosignalalar faqat vaqtning ma'lum oralig'ida ko'rib chiqiladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishslash va aks ettirish uchun markaziy prosessor tez xarakatchanligi, ma'lumotlarni uzatish shinasing o'tkazish qobiliyati operativ va video-xotira, katta sigimli tashqi xotira, xajm va kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki barovar oshirilishi talab etiladi, "inson-kompyuter" interaktiv muloqotining yangi darajasi, bunda muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va xar tomonlama axborotlarni oladiki, mazkur xolat ta'lism, ishslash yoki dam olish sharoitlarini yaxshilashga imkon beradi. multimedia vositalari asosida o'quvchilarga ta'lism berish va kadrlarni qayta taylorlashni yo'lga qo'yish xozirgi kunning dolzarb masalasidir. Multimedia tushunchasi 90-yillar boshida xayotimizga kirib keldi. Multimedia o'zi nima degan savol tug'ladi? Ko'pgina mutaxassislar bu atamani turlicha tahlil qilishmoqda. Bizning fikrimizcha, mul'timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video matn, grafika va animasiya effektlari asosida



o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlangan holdagi ko'rinishidir. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda ta'lif sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Hatto har bir oila multimedia vositalarisiz xordiq chiqarmaydigan bo'lib qoldi. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtini tejash mumkin bo'lib, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar o'quvchilar berilayetgan materiallarni kurish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saqlash 25-30% oshadi. Bunga qushimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika kurinishda mujassamlashgan xolda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 75% ortadi. Multimedia vositalari asosida o'quvchilarni o'qitish quyidagi afzalliklarga ega: a) berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati bor; b) ta'lif olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi; v) ta'lif olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishish; g) olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq saqlanib, kerak bulganda amaliyotda qo'llash imkoniyatiga erishiladi. Multimedia tizimining paydo bo'lishi ta'lif, fan, san'at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o'zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi.

### Foydalanimanligi adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A, Pardayev A.X. Ta'lif jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi,-T.: Fan va texnologiya, 2012. - 104 b
2. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Moliya. 2003y 172-bet.
3. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum / A.I.Shcherbakov tahriri ostida. O'zbek tiliga tarj. – T.: O'qituvchi, 1991. – 312 b.



BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARINI QIZIQARLI O'YINLAR  
ASOSIDA TASHKIL ETISH.

To'rayeva Sayyora Boboqulovna  
Qashqadaryo viloyat Muborak tuman  
XTBga qarashli 21- maktab boshlang'ich  
sinf o'qituvchi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematika darslarida foydalaniladigan o'yin texnologiyalari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** pedagog, bilim, ko'nikma, zukkolar o'yini,

Mamlakatimizning o'quvchi-yoshlaringin barkamol shaxs sifatida yetishishi, jismonan sog'lom bo'lib ulg'ayishini ta'minlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalashlaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimi oldiga ham ulkan vazifalarni qo'yamoqda. Bu albatta pedagoglar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi. Shu maqsadda ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq etilayotgan dasturlar natijasida farzandlarimizni bizdan ko'ra kuchli, bilimli dono va albatta, baxtli bo'lishiga zamin yaratilmoqda. Ta'limning barcha bo'g'inalarini shunday tashkil etish kerakki, o'quvchilarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatish lozim. Ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil bilim olish jarayoni shakllanib borishi bugungi kunning talabidir.

O'quvchilarning har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishida biz— pedagoglarning o'rni beqiyos. Bugungi kun o'qituvchisi faqatgina darslikdan foydalanib qolmasdan, har bir dars uchun o'zi ham kichik kashfiyotlar yaratishi kerak. Shuning uchun bolalarga turli ko'rgazmalar va ta'limiy o'yinlar orqali ta'lim berish ularning nutqi rivojlanishiga va fikr doirasi kengayishiga imkon beradi. Eng asosiysi, darsda samaradorlikka erishiladi, mavzuni idrok etish osonlashadi, o'quvchilar dars jarayonida zerikmaydi. Hozirgi davrdagi eng dolzarb muammolardan biri ta'lim sifatini oshirib, samaradorlikka erishishdan iboratdir. Buning uchun turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish talab etiladi. Bolani dars davomida bilimni to'la mavzu asosida egallashiga bir xil faoliyat bilan erishib bo'lmaydi. Bu bolaning yosh qobiliyatini charchatadi, zeriktiradi. O'yin faoliyati esa yosh bolalarni qiziqarli hayotiy ehtiyojlarini qamrab, qiziqishlarini oshirib boradi. Har bir misol, masalani turli usullar, qiziqarli o'yinlar orqali ko'rsatib bajarish mumkin.

Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lganligi sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'suliylatlari cheksizdir. Ular mакtab ostonasiga endigina qadam qoygan o'quvchilarni mакtab hayotiga ko'niktirib,zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'qituvchilarining vazifasi ma'suliyatli ekanligini ko'rsatadi.

1-4-sinflar matematika darslarida misollar yechishda o'quvchilarni qiziqishlarini oshirish uchun turli qiziqarli o'yinlardan foydalanish mumkin. Ularning bir nechta haqida ma'lumot bermoqchiman.

"Zukkolar" o'yini.

O'yinning maqsadi: Ko'paytirish va bo'lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash.

O'yinning jihози: Uchta bayroqcha.

O'yinning borishi: Qatorlararo o'tkaziladi.

Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o'quvchilar soni teng bolinadi. O'qituvchi har bir qatorning oxirgi partadagi o'quvchiga bayroqchani beradi. O'qituvchi son aytadi.

M:1-qatorga -6 soni, 2-qatorga -4 soni, 3-qatorga -5 soni. bayroqchalarни olgan o'quvchi  $6 \times 2 = 12$  deb bayroqchani oldingi partadagi o'quvchiga uzatadi. O'quvchilar natija qaysi son bilan tugasa shu son bilan boshlanadigon ifoda tuzishi kerak bo'ladi.

$$6 \cdot 2 = 12 \quad 12 \cdot 2 = 24 \quad 24 : 3 = 8 \quad \dots$$

$$4 \cdot 5 = 20 \quad 20 : 2 = 10 \quad 10 : 2 = 5 \quad \dots$$

$$5 \cdot 14 = 70 \quad 70 : 10 = 7 \quad 7 \cdot 5 = 35 \quad \dots$$



“Eng yaxshi hisobchi” o‘yini.

Bu o‘yining bir necha xili bor:

1. O‘quvchilardan biri oldinga chiqib hisobchi bo‘lib, o‘quvchilar hisobiga misollar beradi. U misollarni og‘zaki yechadi. Agar hisobchi biror misolni yecha olmasa yoki noto‘g‘ri yechsa uning o‘rniga bu misolni bergan o‘quvchi chiqadi. O‘quvchilarning qaysi biri hamma misolni yechsa, shu o‘quvchi “Eng yaxshi hisobchi” bo‘ladi.

2. O‘qituvchi doskaga yonma-yon bir necha misol yozadi. Yechish uchun teng kuchli ikki o‘quvchi chiqariladi. Ularga misollarni ishslashga buyuriladi. O‘quvchilar bu misollarni ikki tomonidan ishlab o‘rtasiga kela boshlaydilar. Agar o‘rtasida uchrashsalar “hisobchi” teng kuchli bo‘ladilar. Ulardan qaysi biri ko‘proq misol yechib ulgursa o‘sha o‘quvchi eng yaxshi hisobchi bo‘ladi. Masalan:  $20 \cdot 3, 60 : 3, 80 : 4, 70 \cdot 3, 80 \cdot 4, 7 \cdot 3, 8 : 4, 20 \cdot 4$  kabi misollarni quydagicha yozib sinfdagi o‘quvchilarni tartib bilan chiqarish mumkin.

Bulardan tashqari yana turli o‘yinlardan foydalanish mumkin. Bunday darslar natijasi samarali bo‘ladi. O‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi, olgan bilimlari mustahkamlanadi.

#### **Foydalanimgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Pedagogika o‘qitish metodikasi T- 2008
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## O‘SMIRLIK YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHIDA PSIXOLOGNING RO‘LI

**Taxirova Sabohat Rustamovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani  
49-IDUM amaliyotchi psixologi.

Email:sabohat49maktab@umail.uz

**Yusupova Maxliyo Norimon qizi**

Xorazm viloyati Xiva tumani  
14-maktab amaliyotchi psixologi.

Email:mahliyo14@umail.uz

**Annotatsita:** ushu maqolada O‘smirlilik yoshidagi o‘quvchilarda xulq-atvor xususiyatlarning rivojlanishida psixologningro‘li qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so‘zi:** o‘smirlilik davri,psixologiya

Xalqimizning milliy g‘ururi,milliy ongi,,milliy iftixori,ma’naviy dunyosi kundan kunga boyib bormoqda.Hozirgi davrda yoshlarni mustaqil ijodiy fikrlashga o‘rgatish mustaqil fikr yuritish imkoniyatlarini shakkantirish muommosi respublikamizning ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.Davlat va jamiyat tomonidan yoshlarning,ta’lim muassasalari mutaxassislari hamda ota-onalarning oldiga qo‘yilayotgan vazifalar bevosita psixologiya sohasida yaratilayotgan turli psixodiagnostik metodlar yordamida amalga oshiriladi.Psixologiya sohasi keying yillarda anchagina rivojlanib bormoqda.Psixologiya fanining bir qator tarmoqlari,sohalari mavjud.Ular orasida yosh psixologiyasi alohida ahamiyatga ega.Yoshpsixologiyasi psixk rivojlanish,shuningdek,o‘smirlilik,o‘sprinlik va yetuklik davrida shaxs taraqqiyotining xususiyatlarini o‘rganadi.

O‘smirlilik 10-11-yoshdan 14-15-yoshlarga bo‘lgan davrni tashkil etadi.O‘smirlilik davri bu bolalikan kattalikka o‘yish davri bo‘lib,fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi.O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar.Ular o‘zlarining layoqat ,qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va ustozlarga ko‘rsatishga harakat qilishadi.

O‘smirlilik davri,krisiz davr,qiyin davr deb aysak yanglishmaymiz.Bu davrda o‘smirlar qizg‘in tajang,qaysar buyruq berib gaplaydigan insonlarni yomon ko‘radigan bo‘lishadi.Xuddi kattalar uni tushunmayotgandek tuyuladi.O‘smirda katta yoshli odam bo‘lishga yoki hech bo‘lmaganda katta yoshli odam bo‘lib ko‘rinishga qiziqish,intilish paydo bo‘ladi.O‘smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o‘zaro mos kelmasligi o‘smirlar bilan ota-onalari,o‘qituvchilari o‘rtasida qarama-qashilklarni keltirib chiqaradi.Bu davrda maktab amaliyotchi psixologining vazifasi ota-onalarga,ustozlarga, o‘smirlilik davri qiyinchiliklari,krisizlari,attaraksiya tuyg‘ularining namoyon bo‘lishi haqida profilaktik suhbatlar,psixologik maslahatlar berib borishi lozim.Birgina noto‘g‘ri so‘zimiz ham o‘smir o‘z joniga qasd qilishi mumkinligi haqida ham maslahatlar berib boorish lozim .Bu borada psixologning ro‘li katta bo‘ladi.Bola bilan bolalarcha muloqatda bo‘lib uni tushunib ,sirlashib to‘g‘ri yo‘l korsatadigan inson bu psixolog hisoblanadi.O‘smir yoshlarning xulq-atvori va faoliyatlarida ba‘zan o‘zlarining kuchlari yetmaydigan qarama-qarshiliklar paydo bo‘ladi.Bu o‘z navbatida kattalarga qo‘pol munosabatda bo‘lish va aggressivlikni hamda ota-onalar bilan o‘qituvchilarning maslahat va talablarini pisand qilmaslik kabi xulq-atvor alomatlarini ham keltirib chiqaradi.

O‘smirlilik Yoshi dunyokarash, e’tikod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakkantirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, ahloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar.Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida

O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtai -nazari asosida tashkil kila boshlaydi.

O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘smirlarning ko‘pchiligi qat’iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma’naviy, ahloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar.Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida



barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axlokiy ideallar yuzaga kela boshlaydi.

Ma'lumki, o'smirlilik davrida o'smirning «men»i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofidagilari ayniqsa, o'z-o'ziga bo'lgan munosabati, qizikishlari, qadriyatları yo'nalishi keskin o'zgaradi.

O'smir Yoshdag'i bolani birinchi galdeg'i intilishi, u o'zini endi kichkina bola emas, balki katta bo'lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o'smir shunday qilishga xaqqi borligiga o'zini-o'zi ishontiradi, chunki men endi "katta bo'lib qoldim" deb o'ylaydi. Shuning uchun xam psixologlar "katta bo'lib qolganlik tuyg'usi"ni shaxsning o'smirlilik Yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O'qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O'qituvchi, 1997 y. -272 b.
3. Sh.A.Do'stmuhamedov,Z.T.Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
4. S.N.Alimxo'jayeva,F.I.Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## SINFDAN TASHQARI O'QISH JARAYONIDA BOLALAR ADABIYOTIDAN FOYDALANISH.

Umurzoqova Xurshida To'raqulovna

Sirdaryo viloyati Bayovut tumani  
39- mактабнинг башланг'ич синф о'қитувчиси

**Annotatsiya:** Sinfdan tashqari o'qish, o'qish samaradorligini ijobiy tomonga ta'sir qilishning eng qulay usuli.

**Kalit so'alar:** kichik yosh, sinfdan tashqari, ona tili, dunyoqarashi keng, Uch og'ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va to'g'ri”

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qishga kichik yoshdagi o'quvchilarни ona tilini puxta o'zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta'lim jarayonoda ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o'qishning maqsadi-kichik yoshdagi o'quvchilarни bolalar adabiyoti va xalq og'zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Badiiy va ilmiy-ommabop asarlar mustaqil ravishda va izchil o'qib borilsagina o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari o'qish bolalarda eзgulikka muhabbat, yovuzlikka nafrat uyg'otish, bog'lanishni, nutqni o'stirish, adabiy – estetik tafakkurni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Bolalar adabiyoti avvalo o'zining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining go'zalligi, tilning ifodaliligi, she'riy so'zlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtida u bolalarga tarbiyaviy ta'sir ham ko'rsatadi. Bolalar adabiyoti o'quvchiga jonajon o'lka tabiatini, kishilarning mehnati, hayoti, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingen voqealarni, bolalarning o'yinlari, ertaliklari, orzu istaklarini hikoya qilib beradi. Bu borada ertaklar katta ahamiyatga ega.

Xalqimizning tarixi, uning urf odatlari, moddiy va ma'naviy boyliklari barcha orzu istaklari ming yillar davomida yaratilgan ertaklarda saqlanib kelmoqda. Kishilar o'z orzu havaslarini yosh avlodda o'g'il-qizlarida ko'rishni istaydilar. Shu sababdar ham o'quvchilarga ertaklarni o'qishga tavsiya qilinadi. Ertak o'qigan bola qiyinchilikni yengishga, botir, jasur bo'lishga intiladi. O'quvchi yer yuzidagi barcha insonlarning men bir bo'lagiman, men o'z xalqimga qilayotgan ishlari bilan ularga munosib bo'lib ulg'ayishim kerak, desagina o'z xalqini munosib farzandi bo'la oladi. Ertaklar yosh avlodni ana shu ruhda tarbiyalaydigan baynalminal badiiy quroldir. “Uch og'ayni botirlar”, “Zumrad va Qimmat”, “Egri va to'g'ri” kabi bir qator ertaklar o'quvchilarning sevimli ertaklaridir. O'quvchilar bu ertaklardan kishi o'z mehnatiga ishonib yashashi kerakligini, birovning boyligiga hasad bilan qaramaslik kerak degan hayotiy xulosalarni o'qituvchi yordamida tushunib yetadilar. “Ur to'qmoq” ertagining bola harakterining shakllanishida alohida o'rni bor: ertak yaxshigayaxshi, yomonga yomon bo'lish kerak degan muhim qoidani o'rtaga tashlaydi. Haqiqatan ham xalqning “Qayna xumcha”, “Ochil dasturxon” larini zo'ravonlik bilan tortib oladigan shaxslarga nisbatan “Ur to'qmoq” larni ishlatish zarurligini uqtiradi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'qish darslari bilan bog'lab olib boriladi. O'quvchilar o'ituvchi rahbarligi ostida avval mavzuga oid bir nechta kitob bilan tanishsalar, so'ngrabolalarning qiziqishlariga mos, ruhiyatlariga yaqin har xil mualliflarning bir mavzuga doir kitoblarini mustaqil tanlab o'qishga o'tadilar. Bunda asosan o'qituvchi o'quvchilarni maktab kutubxonasiga, 3-4 sinflardan boshlab tuman yoki shahar kutubxonasiga sayohat uyushtirib, bolalar adabiyoti bilan muntazam tanishtirib boradi. Shuningdek bolalar gazeta va jurnallari ham o'quvchilarga ertak, hikoyalar o'qishga yordam beradi.

Har bir sinfda sinfdan tashqari o'qilgan barcha asrlar o'quvhilarga mos ravishda biror voqeani sahnalashtirish mumkin. Bu boladagi nitqni rivojlantirishga, lug'at boyligini oshirishga yordam beradi.

### Foydalilanlgan adabiyotlar:

1. Xoliqov A. «Pedagogik mahorat» – Toshkent.: Iqtisod – moliya, 2010 – yil,
2. O'qish ‘Metodik qo'llanma’ Toshkent.-2010



## FAOLIYAT VA FAOLLIK TUSHUNCHALARINI HAQIDA

Xayitova Shohida Rajabovna  
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi  
7-son IDUM psixolog

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada faoliyat va faollik tushunchalariga mutaxassislar tomonidan ta'riflар berilgan, shuningdek bu tushunchalarning mazmun mohiyati ochib berilgan, farqli va o'xshash jihatlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** faoliya, faollik, harakat, ta'rif, mehnat, ehtiyoj, psixika, motiv.

Odam tabiatini jihatidan faol mavjudotdir. U ma'lum faoliyatda bo'lmasdan yashay olmaydi. Inson faoliyatining turi juda ko'p bo'lib, ulardan eng muhimi ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan ishlab chiqarish mehnatdir. Odam har doim jamoada bo'lib mehnat qiladi va mehnat natijalarini ham jamoa turmush tarzini o'zlashtiradi. Har bir tirik organizmning faolligi uning ehtiyojlarini qondirilishiga qaratilgan bo'ladi. Anglab bo'lmaydigan va anglab bo'ladigan, tabiiy, madaniy yoki ma'naviy, shaxsiy yoki ijtimoiy-shaxsiy ehtiyojlar odamda har turli faollik tug'diradi.

Ma'lumki, inson faoliyatini jarayonida ma'lum bir mahsulotni yaratadi va undan ishlab chiqarish jarayonida foydalanadi. Aynan faoliyatda erishilayotgan muvaffaqiyatini ta'minlovchi bir qator omillar mavjud. Shular jumlasiga ob'ektiv va sub'ektiv omillarni kiritish mumkin.

Agar hayvonlarning xatti-harakatlari bevosita tevarak-atrofdagi muhit bilan belgilansa, odamning faolligi esa ilk yoshlik davridan boshlaboq, butun insoniyatning tajribasi va jamiyat talabi bilan boshqariladi. Shu bois "faoliyat", "faollik", "xatti harakat" tushunchalarining mazmun mohiyatini anglab olish lozim. Shunga ko'ra mazkur tushunchalarga berilgan ta'riflarga e'tiborni qaratish lozim.

A.V.Petrovskiy "Faoliyat - kishining anglangan maqsad bilan boshqarilib turiladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) faolligidir" -deb ta'riflaydi. M.G.Davletshin "Faollik - tirik materiyaning umumiyligini xususiyati, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirida namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir shu asosda faollik ko'rsatish bilan tavsiflanadi"-deb ta'riflagan.

**Faoliyat** - insoniyatga xos ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli, paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z - o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligidir.

**Harakat** - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. Harakat ongli faoliyatlarning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Q.Turg'unov "Faollik - shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun voqelikni o'zlashtirishga qaratilgan muhim qobiliyatidir. Faollik ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'lib, kishining faoliyati mehnat, o'qish, o'yin, ijtimoiy hayot, sport, ijod kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi"- deb takidlaydi.

**Faoliyat** - inson hayotining uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish shaklidir. Harakat - maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi ongli faoliyat tarkibiy qismlari va motivlaridan iborat.

V.M.Karimova "Faollik - shaxsning hayotdagi barcha xatti-harakatlarini namoyon etishni tushuntiruvchi kategoriyadir. **Faoliyat** - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan hamda tashqi olamni va o'z - o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir" deb takidlaydi.

Mazkur ta'riflardan ko'rinaliki, faoliyat tushunchasi o'z tarkibiga shaxsning u yoki bu darajadagi faollik ko'rsata olish darajalarini qamrab oladi va unga umumiyligini tarzda quyidagicha ta'rif berish mumkin: **Faoliyat**-anglangan maqsad bilan boshqariladigan ichki (psixik) va tashqi (jismoniy) harakatlar yig'indisiga aytildi.

Adabiyotlarda faollik va harakat tushunchalari o'zaro bir-biriga bog'liq bo'lgani bilan ular o'rtasidagi ayrim farqli belgilari kuzatiladi. Jumladan, faoliyatning mazmuni to'la-to'kis uni yuzaga keltirgan tabiiy-biologik va ma'naviy ehtiyojlar bilan shartlashmaganligi tufayli uning psixologik mexanizmi ham o'zgacha negizda qurilishi mumkin. Ikkinchidan, faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlash uchun psixik narsa va hodisalarining xususiyati ob'ektiv xossalalarini aks ettirishi, qo'yilgan maqsadga erishish yo'l-yo'riqlarini aniqlab berish lozim. Uchinchidan, faoliyat shaxsning xulq-atvorini maqsadga qaratilgan harakatlarni ro'yobga chiqarish, yuzaga kelgan ehtiyojlarni qondirish, faollik imkonini beradigan boshqarishni uddalash lozim. Shuning uchun faoliyatni bilish jarayonlarisiz, irodaviy zo'r berishsiz amalga oshirish juda mushkul. Aynan



ikkala omil o‘zaro uzviy aloqaga kirgandagina yaratuvchanlik xususiyatini kasb etadi.

Inson faolligining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, faoliyatning mazmuni ana shu faoliyatni yuzaga keltirgan ehtiyojning bir o‘zi bilan belgilanmaydi. Agar ehtiyoj faoliyatga motiv sifatida madad berib, uni rag‘batlantirib tursa faoliyatning shakli va mazmuni ijtimoiy sharoitlar, ijtimoiy talablar hamda tajribalar bilan belgilanadi.

Odamni ishslashga majbur qiluvchi motiv uning ovqatlanish ehiyoji bo‘ishi mumkin. Biroq odam, masalan, dastgohni ochlik ehtiyojini qondirish uchun boshqarmaydi. Inson faoliyatining mazmuni jamiyat talab qiladigan biron mahsulotni tayyorlash maqsadi bilan belgilanadi. Faollik manbai bo‘lgan faoliyat yaxshi anglab olingan maqsad bilan belgilanadi.

Psixofiziologiyada faoliyat faollikning fiziologik ma’nosini sifatida talqin qilingan bo‘lsa, ish, mehnat faoliyati, “mehnat faolligi” mazmunida qo‘llaniladi. Ijtimoiy psixologiyada “Faoliyat - faollik - ish - mehnat”, “Faoliyat - xulq”, “mehnat - xulq, faoliyat” ko‘rinishlari juftligi uchrab turadi.

Inson faoliyati juda xilma-xildir. Unga mehnat, pedagogik, badiy-ijod, ilmiy tadqiqot faoliyatlarini kiritish mumkin. Inson faoliyati tarkibini tahlil qilish, shuni ko‘rsatadiki, faoliyat tashqi dunyonи ongli psixik aks ettirilishida namoyon bo‘ladi.

Har qanday faoliyatda inson o‘z xatti-harakatlarni maqsadini anglaydi, kutilayotgan natijani tasavvur qiladi, sharoitni idrok qiladi va baholaydi, bajariladigan harakat tarkibini o‘ylaydi, irodaviy zo‘r beradi, faoliyatning borishini kuzatadi, muvaffaqiyat va mag‘lubiyatini o‘ylaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. A.V.Petrovskiy “Umumiy psixologiya”.
2. Q.Turg‘unov Psixologiya terminlarining qisqacha ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati.
3. V.M.Karimova “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasi.



## XAYRIDDIN SULTON QISSALARIDA TARIXIY OBRAZLAR

**Yunusaliyeva Gulbahor Arabboy qizi**

FarDU adabiyotshunoslik yo'nalishi  
magistranti, @G\_Arabboyevna.

**Annotatsiya:** Maqolada Xayriddin Sultonning obraz yaratish mahorati bayon etilib, Xayriddin Sulton qissalaridagi tarixiy obrazlarning yoritilish masalasi «Saodat sohili» qissasida Bobur va «Ko'ngil ozodadur» qissasida Gulxaniy obrazlari orqali olib beriladi.

**Kalit so'zlar:** tarixiylik, badiiy obraz, realizm, xarakter, poetik mazmun, badiiy niyat, ramziylik, milliylik, personaj nutqi, sujet vakompozitsiya.

Vaqt va manzil, davr va zamondan qat'i nazar dunyo va insonni aks ettirish bobida namoyon bo'luchchi yaqinlik, o'xshashlik, muqobililik, ayniyatlilik asosida matnni tahlil etish mohiyatni teran uqish imkonini beradi. Tarixiy haqiqatni ro'y rost tasvirlash, mashhur shoh, shoir, olim va avlyioning badiiy obrazini yoritishda solnoma, meumardagi aniq ma'lumotdan foydalanish, tarixdagi muhim ma'naviy, axloqiy kuammoni yoritish, tarixiy hamda arxaik so'zdan unumli foydalanish kabi maslalar tarixiy qissalar uchun muhim omillardir. Tarixiy qissa yaratish mahorati insondan kuchli bilim, idrok va malaka talab etadi.

Akademik Matyoqub Qo'shjonov: « Tarixiylik, davr ruhi hamma realistik asarlarda ham bo'lishi kerak. Ammo shunday asarlar borki, ularda realizmning bu xususiyati davr uchun tipik bo'lgan tarixiy shaxslar xarakterini yaratish orqali ifodalanadi. Bunday asarlarda davr ruhi eng avvalo tarixiy shaxslar xarakteriga bog'liq bo'lib qoladi»<sup>1</sup>-deydi.

Bugungi o'zbek nasrida o'ziga xos ovoz, o'ziga xos yo'l bilan borayotgan, o'zining tarixiy qissalari bilan ham mashxur yozuvchilardan biri bu - Xayriddin Sultonovdir. X. Sultonov ijodining boshidanoq adabiyotga dadil qadamlar bilan kirib keldi. Uning hikoyalari va qissalari pishiq, puxtaligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining «Yo, Jamshid», «Dunyoning siri», «Bir oqshom ertagi», «G'ulomgardish» kabi hikoyalari, «Yozning yolg'iz yodgori» («Adash Karvon»), «Saodat sohili», «Ajoyib kunlarning birida» kabi qissalari adabiyotga yangi mavzu, yangi qahramonlar olib kirdi. Uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyligi, milliyligi va zamon bilan makonning uzviyliги bilan ajralib turadi.

X.Sultonov asarlarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug'yonlari milliylikka yo'g'rilgan holda tasvirlanadi. Adib o'z asarlarida bir maqsad - insonning qalb kechinmalari, qalb sirlarini yechishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Personajlar haqida so'zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo'lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga dahldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi. Personajlarning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik jihatdan asoslanadi, personajlar nutqi shunday mahoratlar bilan beriladiki, kitobxon beixtiyor qahramonlarning samimiyligiga ishonadi.

Xayriddin Sulton qalamiga mansub «Saodat sohili» qissasi ham adibning tarixiy izlanishlari mahsuli deyishimiz mumkin. « Binobarin, tarixiy mavzuga yo'l urgan ijodkordan katta bilim, hayotiy va adabiy tajriba bilan birga, ma'naviy jasorat, chuqur falsafiy va mantiqiy tafakkur ham talab etiladi. Xayriddin Sultonning tarixiy asarlarida ana shu oliy mezonlarga og'ishmay, qat'iy amal qilishga kuchli intilish yaqqol sezildi».<sup>2</sup>

«Saodat sohili»da tasvirlangan voqealar Bobur o'limidan bir necha oy oldin Agra shahrida boburiylar saroyida bo'lib o'tadi. Toshkentlik olim Sulton Muhammad Hofiz Toshkandiy (tax-allusi Hofiz Ko'ykiy) bir qator Sharq mamlakatlarini aylanib, Bobur saroyidagi boy kutubxonada mutolaa qilish maqsadida azob-uqubatlar bilan Agra shahriga yetib keladi. Shogirdi Binoqul yo'lda halok bo'ladi. Bobur hofiz Ko'ykiyni ochiq ko'ngil bilan kutib oladi va Bog'i Nurafshon deb atalmish bog'ning kunchiqar tomonidagi xos hujayralardan biriga joylashtiradi. Asarda Bobur «Eh, saltanat... Ne bo'lsa — Allohdan! Shu saltanat minnati umr bo'yi oyog'imga kishan bo'ldi,

<sup>1</sup> Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar.-T.:Sharq,2018.-B.39 Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar.-T.:Sharq,2018.-B.39

<sup>2</sup> Karimov B. "Badiiy so'z ohangrabosi" so'z boshi



murodimga g‘ov...<sup>1</sup>— deydi. U «Angladimki, bu o‘lkada alarning yolg‘iz jismlarini bo‘ysundira olur ekanman, ruhlarini itoat ettirmakka hargiz qudratim yetmas ekan» degan xulosaga keladi. Hofiz Ko‘ykiy saodat sohili haqidagi fikri bilan Boburning vatandan yiroqlik dardini yangilaydi. Bobur „Shohlik minnatidan xolos bo‘lib», vatanga qalandar bo‘lib qaytishni orzu qiladi, Hofiz Ko‘ykiyga quyidagi so‘nggi so‘zlarini aytadi: «Sizga nechog‘li havasim kelishini bilsangiz edi!». Asar yakunida Bobur olamdan o‘tadi.

Xayriddin Sulton asarlarida shoh, shoir, ota martabasi Bobur shaxsida muvofiqlashadi. Yozuvchining «Saodat sohili» qissasida vatan tuyg‘usi xarakter bosh idealiga aylanib, kompozitsion qatlamni rivojlanadiradi. Hofiz Ko‘ykiy hamda Bobur dialogi asosiy markaz sanalib, unga ma’no nuqtalari birlashadi. Olamdagi moddiyatdan ma’naviy halovatni ustun bilgan donishmand ruhiyatidagi bezovtalikni faqat maslakdosh orifgina o‘qishga qodir. Asar strukturasidagi « Saodat sohili- vatanda, olampanoh...» jumlasida badiiy niyat oydinlashadi. Muallif asar poetikasini tashkillashtirishda « Moli vofir, eli kofir, yo‘l yovuq...» misrasini asos qilib belgilaydi. Qahramon siyratidagi dard shu iboralar tizimida teranlashib boradi.

““Boburnoma” asaridagi shoirning Navoiy ijodi borasidagi lutfi poetik mazmunni to‘ldiradi. Darvesh Baxshitirk suluki ila Bobur armonlaridagi uyg‘unlik kompozitsion qatlamni ravshanlashtiradi. Bu obraz halovat-u haqiqat bobida shohdan hurroq bo‘lib, millat-u elatni ogohlilikka undovchi, kun-u oylar intihosi borligini eslatuvchi zohid yanglig‘ tasavvur uyg‘otadi. Muhimi, darvesh-u shoh musofir turklar bo‘lib, qalban hamda ruhan bir-birini quvvatlaydi. Hofiz Ko‘ykiy voqealar silsilasida bu obrazlar fitratidagi armon-u iztirobning zamirida yurt sog‘inchi nolasini tinglardi. Xayriddin Sulton bu qissada Bobur shaxsi, ijodi va shohlik salohiyati borasidagi izlanishlarini yoritib bergan»<sup>2</sup>.

Yozuvchi aynan Boburga o‘zini ruhan yaqin tutgani bois Bobur obraziga alohida e’tibor qaratadi. “Saodat sohili” qissasi o‘zbek adabiyotida Bobur siymosini aks ettirgan eng yaxshi asarlar sirasiga kiradi.” Saodat sohili”, ta’bir joiz bo‘lsa, saodatli qissa. Yozuvchi asarda Zahiriddin Muhammad Bobur hayotining so‘nggi pallasini tasvirlar ekan, ona diyoriga qaytish ixtiyori qo‘lidan ketgan “qalandar, shoh, begona yurt ko‘chalarida sarson kezgan jununvash Baxshitirk , yet ellarda tasodify o‘lim topgan Boboqul, hind hukmdori oldiga borib, so‘ng o‘z diyoriga qaytayotgan ja-hongashta alloma Hofiz Ko‘ykiyning hayotini – bir-biriga aslo o‘xshamagan turli taqdir egalarining murakkab, mashaqqatli umr yo‘llarini botiniy qiyoslaydi. Bu qiyoslarda Boburning yurt armoni va sog‘inchi, uning shohligi, shoirligi, umuman, nodir shaxsiyati yorqin namoyon bo‘ladi.

Buyuk zotlar, ulug‘ mutafakkirlar, alloma va adiblar, davlat arboblari va sarkardalar hayoti haqida asar yaratish bir qarashda oson, qandaydir maroqli tuyuladi. Ammo bunday shaxslarning ruhiyatiga, ma’naviy olamiga murojaat qilish, ular hayotining sirli mohiyatini idrok etish, ular bilan teng fikrlash – bu har qanday qalamkashning ham qo‘lidan keladigan ish emas. Alisher Navoiy hazratlari aytganlaridek, “Emas oson bu maydon ichra turmoq”.

#### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. -T.: Fan, 2007.
2. Quronov. D. Adabiyotshunoslik lug‘ati.-T.:Akademnashr,2013.
3. Qo‘sjonov M. Tanlangan asarlar.-T.:Sharq, 2018.-B.
4. Karimov B. “Badiiy so‘z ohangrabosi” so‘z boshi.
5. Sultonov. X. “Ko‘ngil ozodadur”. Saodat sohili.- T: Yangi asr avlodi, 2019.
6. Rasulova. U. XX asr o‘zbek qissachiligi tarixi Filol. fan. doktori..dis.-T.:2020.

<sup>1</sup> Sultonov. X. “Ko‘ngil ozodadur”. Saodat sohili.- T: Yangi asr avlodi, 2019. 57 – bet

<sup>2</sup> Rasulova. U. XX asr o‘zbek qissachiligi tarixi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari). Filol. fan. doktori..dis.-T.:2020.



**VIRTUAL KOMPYUTER O'YINLARINING YOSH AVLOD TARBIYASIGA SALBIY  
TA'SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**Yusupova Bashorat Zohirovna**

Navoiy viloyati Nurota tumaniga qarashli  
42 – umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixolog

**Annotatsiya:** maqolada kompyuter o‘yinlariga bog‘lanib qolgan o‘smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari va kompyuter o‘yinlari oqibatida o‘smirlar xulqida paydo bo‘ladigan salbiy sifatlar bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** Ludamaniya, agressiv xulq, axborot xavfsizligi, virtual olam, jazava, ruhiy holat, irodasizlik.

Ma’lumki, insonning tajovuzkorlikka, ya’ni agressiv xulq-atvorga moyilligi asosan uning individual rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Agressiv xulqning paydo bo‘lishida ko‘p omillar, jumladan yosh individual xususiyatlar, tashqi jismoniy, ijtimoiy sharoitlar va hokazolar ishtirot etadi. Olimlarning fikricha, shaxsda agressiv xulq-atvor shakllanishiga bevosita ijtimoiy muhitning ta’siri kuchli ekan. Agressivlik, tajovuzkorlik salbiy xulq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, subyektning-subyektga bo‘lgan munosabati tushuniladi.

Psixologiyada “agressiya” tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Ba’zi olimlar agressiyaga salbiy baho bersalar, ba’zilari ijobjiy baholaydilar. Agressiya – bir kishi tomonidan ikkinchi bir kishiga ko‘rsatilgan jismoniy harakat yoki tahdid bo‘lib, u ikkinchi kishining erkinligiga tahdid soladi.

G‘arb psixologlarining ishlarida o‘smirlilik davri agressiyasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar tobora kengayib, ko‘payib bormoqda. Shu bilan bir qatorda o‘smirlarda agressiv xulq shakllanishiga sabab bo‘luchchi omillardan biri sifatida kompyuter o‘yinlari deb e’tirof etilmoqda. Adabiyotlar tahlilining ko‘rsatishicha, bu muammo bo‘yicha olingan tadqiqot natijalariga qarab ikki xil xulosa kelib chiqishi mumkin: ba’zi tadqiqotchilar kompyuter o‘yinlari o‘smirda agressiv xulq rivojlanishiga sabab bo‘ladi degan fikrni olg‘a sursalar, ba’zilari bu fikrga mutlaqo teskari bo‘lgan fikrni aytadilar, ya’ni ularning fikricha, kompyuter o‘yinlari bilan o‘smirning agressivligi o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q, balki kompyuter o‘yinlari agressiyaning pasayishiga olib kelar ekan.

Biz ham kompyuter o‘yinlari bilan o‘smirlar agressiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordik va kompyuter o‘yinlari ta’sirida o‘smirlarda paydo bo‘ladigan agressiya bo‘yicha to‘liqroq ma’lumot olishga muvaffaq bo‘ldik.

Mazkur tadqiqot ishimizda biz kompyuter o‘yinlari bilan o‘smirlar agressiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish maqsadida A. Bass - A. Darkining agressiyani o‘rganishga bag‘ishlangan metodikasidan foydalandik, chunki bu metodika psixologik tadqiqotlarda, tashxis amaliyotida eng ko‘p ishlatiladigan klassik metodikalar sirasiga kiradi va o‘smirlar agressiyasi bo‘yicha to‘la ma’lumot bera oladi.

Agressiv kompyuter o‘yinlari kinoga yoki kitoblarga qaraganda odamning ruhiyatiga tez ta’sir qiladi. Kompyuterda o‘ynab turib odam o‘zi qaror chiqaradi, kinoda esa u faqat kuzatuvchi bo‘ladi xolos. Har qanday kino yoki taqdimot filmlari 1.5 yoki 2 soat davom etishi mumkin. Biroq, kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketgan bola bir necha soat vaqtini kompyuter oldida o‘yin o‘ynash bilan o‘tkazishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlarning natjasiga ko‘ra filmda odamlarni suyjetning rivojlanishi qiziqtiradi.

Kompyuter o‘yinlari miyaning ko‘rish va harakatlanishga javob beradigan qismiga ta’sir qiladi. O‘yinlar odamning xulqi, emotsiyasi va o‘qishga javob beradigan bosh miya po‘stlog‘ining old peshona qismi ya’ni, aql sohasini o‘sishiga zarar yetkazadi. Kompyuter o‘yinlari bilan parallel ravishda aqliy salohiyatlar ham pasayib boradi. Shuni aytish kerakki labaratoriya miyani old peshona qismining ishlamasligi neandertal odamni vahshiy va ta’sirchan qilib qo‘yadi, katta jamoada yashashni xohlama yordi. Kompyuter o‘yinlari aynan miya old peshona qismini faoliyatini susaytiradi.

Kompyuter o‘yinlarining yoshlar psixikasiga ko‘rsatadigan ta’sirning ko‘lami va qudrati axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlashni hozirgi sharoitlarda umummilliy muammo darajasiga ko‘tarishni taqozo qiladi.

Jamiyatdagi tub o‘zgarishlar sharoitida insonning psixologik xavfsizligi, psixologik himoyalanganligi va psixologik himoya shakllanishining uslublari muammosi nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham nihoyatda dolzarb bo‘lib bormoqda.



## ИДЕАЛЫ ЖЕНСКОЙ КРАСОТЫ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Абдурахимов Асрор Султонали ўғли  
Магистрант, УзГУМЯ  
asror0254555@gmail.com

**Вступление.** Литература долгое время и оставалась мужской, потому что писали-то о женщинах, пытаясь передать их образ, сохранить то ценное, что есть и что видел мужчина в женщине. Женщина была и является до сих пор предметом культа (от древних мистерий и до христианского почитания Девы Марии). Улыбка Джоконды продолжает волновать умы мужчин.

В нашей работе мы рассмотрим ряд литературных женских образов, рассмотрим их самостоятельный художественный мир и отношение автора к ним. Художественная литература просто пестрит яркими, запоминающимися образами женских героинь. Они западают читателям в душу, их цитируют и боготворят, ими восхищаются и в них находят источники вдохновения.

Конечно, нельзя сказать, что в литературе существует какой-то единый идеал женской красоты. Каждая героиня обладает собственными уникальными чертами характера, собственной судьбой и особенным местом в сердцах читателей, это статья обращает внимание на некоторых ярчайших книжных идеалах женской красоты.

*«Евгений Онегин» (А.С. Пушкин), Татьяна Ларина из романа*

Начать хочу, конечно же, с той, что больше всего мила моему сердцу – с Татьяны Лариной. Она стала идеалом женской красоты не только для молодых людей и девиц XIX века. Образ ее продолжает вдохновлять и по сей день. С первых же строк она пленяет читателя своей душевной красотой, наивной искренностью, честностью и отсутствием притворства.

Пушкин писал о ней так:

«Итак, она звалась Татьяной.

Ни красотой сестры своей,

Ни свежестью ее румянной

Не привлекла б она очей

Дика, печальна, молчалива,

Как лань лесная боязлива,

Она в семье своей родной

Казалась девочкой чужой.»

Роман «Призрак Оперы» (Гастон Леру Даэ из), образ Кристина Даэ .

Следующий идеал образ – Кристина Даэ. Юная, талантливая певица, дочь бедного фермера. Она добра, скромна, честна. Очаровательна и мечтательна. Кристина влюбляет в себя читателей внутренней чистотой и искренней преданностью.

*Эсмеральда из романа «Собор Парижской Богоматери» (Виктор Гюго)*

Эсмеральда есть истинно литературное воплощение наивности, целомудрия и сердечной доброты.

«Она была невысока ростом, но казалась высокой — так строен был ее тонкий стан. Она была смугла, но нетрудно было догадаться, что днем у ее кожи появлялся чудесный золотистый оттенок, присущий андалускам и римлянкам. Маленькая ножка тоже была ножкой андалуски, — так легко ступала она в своем узком изящном башмачке. Девушка плясала, порхала, кружилась на небрежно брошенном ей под ноги старом персидском ковре, и всякий раз, когда ее сияющее лицо возникало перед вами, взгляд ее больших черных глаз ослеплял вас, как молнией. Взоры толпы были прикованы к ней, все рты разинуты. Она танцевала под рокотанье бубна, который ее округлые девственные руки высоко взносили над головой. Тоненькая, хрупкая, с обнаженными плечами и изредка мелькавшими из-под юбочки стройными ножками, черноволосая, быстрая, как оса, в золотистом, плотно облегавшем ее талию корсаже, в пестром раздувшемся платье, сияя очами, она казалась существом воистину неземным...»

Положение женщины в обществе изменилось кардинально за XIX-XX века. Это нашло своё отражение в русской художественной литературе, которая как раз в это же время и расцвела. Статус женщины в обществе шёл параллельно эволюции женского образа. Литература влияла на социум, а социум влиял на литературу. Этот взаимозависимый, амбивалентный процесс не прекратился и в наши дни. Живые мужчины-писатели с большим интересом пи-



тались выяснить ту тайну, которая несёт женщина, искали пути, по которым идёт женщина, пытались угадать, что она хочет.

Несомненно, что русская литература со своими женскими образами повлияла на формирования нового статуса женщины, её освобождение и сохранила её — женщины — достоинство. Но эволюция женских образов — это не прямая линия, но это возможность взглянуть на разных женщин под разными углами. Каждый мужчина-писатель, пишущий о женщине — это Пигмалион, который вызывает к жизни множество Галатей. Это живые образы, в них можно влюбляться, с ними можно плакать, можно восхищаться той эротикой, которой они обладают. Мастера русской прозы, поэзии и драматургии вывели образы героических женщин, в таких можно заведомо влюбиться.

**Список литературы:**

1. Аквинский, Ф. Сумма теологии. Часть I. Вопросы 1–43 / Пер. с лат. С. Еремеева и А. Юдина. – Киев: Ника-Центр, Эльга; М.: Элькор-МК,2002. – 560 с.
2. Альчук, А. Метаморфозы образа женщины в русской рекламе //Гендерные исследования / ХЦГИ. – Харьков, 1998. – № 1. – С. 255–261.
3. Клименкова, Т. А. Женщина как феномен культуры. Взгляд из России. – М.: Преображение, 1996. – 201 с.
4. Васютинский, Н.А. Золотая пропорция. [Текст] / Н.А. Васютинский. - М. - СПб.: Изд-во Диля, 2006. - 368 с.



**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ  
КОМПЕТЕНЦИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ДЕТЕЙ  
МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Жалекеева Гоззал Мадреймовна**

Учитель начальных классов Государственной  
специализированной общеобразовательной школы  
№ 22 г. Нукус, Республика Каракалпакстан.

**Аннотация.** В данной статье раскрывается смысл таких понятий как «межкультурная компетенция», «педагогическая технология», «игровые технологии обучения», «технология проектного обучения»; приводятся в качестве примера традиционные и инновационные педагогические технологии развития межкультурной компетенции. ования.

**Ключевые слова:** межкультурная компетенция, педагогическая технология.

Е. А. Кудрина и А. П. Чудинов выделяют некоторые формы игровой деятельности, которые можно применять на уроках русскому языку в начальной школе: имитационные игры, в ходе которых участники могут оценить свою способность к работе в команде, проявить аналитические, лидерские и др. деловые качества; ролевые игры, в ходе которых обучающиеся перевоплощаются в тех или иных персонажей, что позволяет ученикам развивать умения смотреть на мир глазами другого человека; деловые игры, в ходе которых участники получают возможность раскрыть себя, научиться занимать активную жизненную позицию, определиться с выбором будущей профессии. Исследователи выделяют также такую форму игровой деятельности, как биографическую рефлексию, под которой понимают осмысление собственной биографии с целью выяснения основ своей собственной идентичности и дальнейшее сравнение своей жизни с жизнью сверстников за рубежом.

Приведем пример использования игры «Bang, bang!» на уроке русскому языка в начальной школе. Цель игры заключается в том, чтобы активировать знания учеников о культуре страны изучаемого языка и способствовать развитию скорости реакции и мышления обучающихся. Игра

«Bang, bang!» состоит в том, что сначала класс делится на две команды ковбоев, после чего из каждой вперед выходит по одному игроку, эти игроки складывают пальцы в виде пистолета. Учитель читает вопрос о культурных особенностях страны изучаемого языка из заранее подготовленного списка.

Makondo aholisi ham texnika asri ixtiolaridan bahramand bo‘la boshladilar. Ular Auriliano Tristi poyezdda olib kelgan generatorning to‘tovsiz tum-tumiga ko‘nikishlari qiyin bo‘lgan bo‘lsa ham, generatordan quvvat olayotgan lampochkalarga tunlari uxlamay, termulib chiqishardi. Savdogar Don Bruno Krespi teatrda namoyish qilgan, har bir tamoshasi uchun chipta ikki sentavodan sotilgan jonli tasvirli filmlardagi bir filmda o‘lib, qishloq ahlining qayg‘usiga sababchi bo‘lgan qahramonning boshqa filmda Arab savdogari qiyofasida paydo bo‘lishi ularning g‘azabini keltirib, teatrdagi o‘rindiqlarning chilparchin bo‘lishiga olib keldi....

1. Filmlarning qaysi jihatni aholining jahli chiqishiga sababchi bo‘ldi?
  2. Nima uchun Makondo aholisi filmlarga boshqa kelmaslikka qaror qildilar?
    - A. Ular ko‘ngil ochishni istadilar, lekin filmlar hayotiyligi va tushkin kayfiyat paydo qilishi ularga yoqmadи.
    - B. Ular uchun chipta narxi qimmatlik qildi.
    - C. Ular hiisyonlarini haqiqiy hayot uchun asrashga qaror qilishdi.
    - D. Ular filmlardan hissiy ta‘sir kutishgan edi, lekin filmlar zerikarli bo‘lib chiqdi.
  3. Matn oxirida berilgan “hayoliy mavjudotlar” deganda nima nazarda tutilgan?
    - A. Arvochlар
    - B. Ixtiolar
    - C. Film qahramonlari
    - D. Aktyorlar
- O‘qish savodxonligi bu-insonning yozma matnni tushunishi va qayta tahlil qila olishi. Bularidan jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun, o‘zining shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalana olishi. Demak, o‘qish savodxonligi deganda faqatgina o‘qish texnikasini tushunmaslik kerak, tadqiqot



e`tiborni so`zlarning to`g`ri o`qilishiga emas, balki matnni to`g`ri tushunib, "savodli o`qish"ga qaratadi. Boshlang`ich sinf bitiruvchisi matnni tushunishi, uning mazmuni ustida fikrlay olishi, matndagi fikrga baho berishi va o`qiganlari haqida fikr bildira olishi kerak bo`ladi.

O`quvchilarning o`qish savodxonligini oshirish, xalqaro baholash dasturiga tayyorgarlash uchun maktab o`quvchilariga bir qancha ko`rsatmalar berib kelmoqdamiz. O`quvchilarni o`qish savodxonligini oshirish uchun, ularni tushunish darsjasini kengaytirish uchun avvalo o`zimiz bunga tayyor bo`lishimiz kerak. Biz o`zimiz mavzularni mag`izlarini chaqa olishimiz kerak. Har bir mavzuga topshiriqlar, savollar tuza bilishimiz kerak. Biz oddiy nima qildi, qachon?, qayerda? degan savollardan qochib, ularni o`ylantira oladigan, tafakkur qila oladigan, izlana oladigan savollarni, topshiriqlarni tayyorlay olishimiz kerak. Atrof muhutga, hayotga qo`llay oladigan toshiriqlarni tuza olsak shundagini o`quvchilarimiz xaqaro baholash dasturlariga tayyor bo`la oladi deb o`layman

#### **Foydalanaligan adabiyotlar ro`yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O’zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi. 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni „,
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi veb-sayti: [www.tdi.uz](http://www.tdi.uz).
4. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi veb-sayti: [www.markaz.tdi.uz](http://www.markaz.tdi.uz).
5. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang`ich sinf o`quvchilarining o`qish savodxonligini baholash. Toshkent – 2019



## BOSHLANG'ICH SINFDA BADIY MATNLAR ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

Saitjanova Marxamat Askarovna  
Olmazor tuman XTB tasarrufidagi  
315-umumi o'rta ta'lim maktabining  
Birinchi toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: +998974111047  
marxamatsaitjanova@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur mavzuni yoritish orqali milliy ma'naviy merosimiz hamda ilmiy-metodik asarlar tahlili, boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ko'p yillik ijodiy tajribalarini o'rganish, tahlil qilish asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishning ilmiy va amaliy asoslarini aniqlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash mohiyatini, bosqichlarini tashxis qilish.

**Kalit so'zlar:** Matnni tasvirlash, ifodali o'qish, tanlab o'qish, ovozli o'qish, ichda o'qish, shivirlab o'qish.

Boshlang'ich sinflarda badiiy matn ustida ishlashning nazariy asoslari. Matnni tahlil qilishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

1) So'z bilan tasvirlash. So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, unda manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so'zlarni aniq tanlashga e'tibor qaratiladi.

2) Grafik tasvirlash. Matnni tasvirlashda darslikda berilgan rasmni matndagi so'zlar orqali tasvirlash bilan taqqoslash kerak. 1-sinf o'quvchilar o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlash. 2- sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzish. 3-sinfda o'qilgan matn rjasini jamoa bo'lib tuzish. 4- sinfda matnni mustaqil o'qib, mustaqil reja tuza olish.

3) Asarni tahlil qilishda asar muallifi haqida ma'lumot berish eng samarali metod hisoblanadi. Masalan, 4- sinfda Xudoyberdi To'xtaboyevning hikoyalari o'rganilayotganda adibning bolalar uchun yozgan asarlari namoyish etilib, ular haqida qisqacha ma'lumot so'zlab berilsa, o'quvchilarning asarni o'qishda qiziqishlari ortadi. Tayorgarlik davridan so'ng 1-bosqich amalga oshiriladi. Bu bosqichning asosiya maqsadi matni yaxlit idrok etish jarayonida asarning aniq mazmuni bilan uning syujeti bilan tanishtirish, asarning emotsiyal ta'sirini aniqlashdir. Matn ifodali o'qib beriladi yoki ovozli o'qilgani eshittiriladi.

4) O'qituvchi o'quvchilarga umumiyyatni aytishni talab qiladigan savollar beradi:

-Hikoyani qaysi o'rni sizga yoqdi?

-Qahramonlarning qaysi biri sizga yoqdi?

-Nima uchun shunday sarlavha qo'yilgan?

Hikoyani qanday davom etirsa bo'ladi?

-Hikoya o'qilganda siz qaysi o'rinda xursand bo'ldingiz kabi fikrlashga, og'zaki nutqni rivojlantirishga doir savollar beriladi.

5) Asarni tahlil qilishda tanlab o'qish metodidan ham foydalaniladi. Tanlab o'qish matn ustida ishlashning eng samarali usulidir. U o'quvchilarida yaxshi o'qish sifatlarini o'stirish bilan ularning ijodiy tasavurinin, nutqi va zehnini o'stirishga yordam beradi. Berilgan savolga o'z so'zi bilan javob beradi.

Ifodali o'qish san'ati o'tmish zamondarda og'zaki ijodda qanday ahamiyat kasb etgan bo'lsa, yozma adabiyotda ham shu qadar muhim o'rin tutadi. Muayyan tezlikda va to'g'ri o'qish ongli o'qishga xizmat qiladi. To'g'ri, tez va ongli o'qish esa ifodali o'qishning asosi hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda o'qishning 3 turidan foydalilanadi: ovozli, ichda va shivirlab o'qish. O'qish darslarida o'quvchilarning to'g'ri, ifodali va tez o'qish malakalarini shaklantirish usullari



ko`p bo`lib, ular orasida ta`limiy o`yinlar ham alohida ahamiyatga ega. Bu ta`limiy o`yinlar o`quvchilarning lug`at boyligini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu esa o`z o`rnida o`quvchilarning to`g`ri, tez va ongli o`qishlariga yordam beradi.

**Foydalaniman adabiyotlar ro`yxati:**

1. "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komisiya tuzish to`g`risida"gi farmoyish. 2017-yil 12-yanvar
2. Usmonov N, Zulfiqorov I. "Boshlang`ich sinf o`quvchilari ongida miliy g`oyani shakllantirish metodikasi." -T.: Fan va Texnologiya. 2012.
3. 1-4 sinf o`quv uslubiy tavsiya kitobi. "O`qituvchi" nashriyoti 2017 yil.



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING YOZMA NUTQINI O'STIRISH, ULARGA GAP TUZISHNI O'RGATISH USULLARI

**Abduraximova Ziyoda**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar  
9-ayrim fanlar chuqur örganiladigan ixtisoslashtirilgan  
umumta'lim maktabi boshlangich sinf oqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ savodxonlik darajasini oshirish, ularni mustaqil va ijodiy fikrashga yo'naltirish, fikr mahsulini to'g'ri, ravon hamda o'rinni qilib bayon qilish masalalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, nutq, o'quv dasturi, metod, didaktik o'yinlar, gap, matn, fikr, talaffuz.

Ma'lumki, ta'limda asosiy e'tiborni bilimlarni egallashga qaratish emas, balki uni hayotga tadbiq etishga qaratish lozim. Buning uchun o'quvchilarni mustaqil fikrashga odatlantirish va o'z fikrini erkin va ravon bayon qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratish kerak. Albatta, bu ezgu ishlar boshlang'ich sinfdan boshlangani maqsadga muvofiqdir. Mustaqillikdan keyin chop etilgan o'rtta maktablarning "Ona tili" o'quv dasturida shunday deyiladi:

"Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog'i lozim". Demak, bu kabi fazilatlarga erishmoq uchun boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv ta'lim jarayonini ijodiy tashkil etish, muammoli izlanish metodi, mustaqil ishlar, didaktik o'yinlardan ko'p va samarali foydalanish lozim.

O'quvchining nutqini to'g'ri, sof va ravon bo'lishi uchun eng avvalo, boshlang'ich sinfda ona tili fanini o'qitishga alohida e'tibor qaratish lozim. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarga nazariy bilimlar berish bilan bir qatorda milliy o'zligimizni anglash tuyg'ulari ham singdirib boriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bu tuyg'ular dastlab amaliy bilimlar yordamida, keyinchalik esa nazariy bilimlar orqali beriladi.

Dastlab gap haqidagi ma'lumotlar 2-sinf "Ona tili" darsligida "Gap tugallangan fikrni bildiradi. Gap so'zlardan tuziladi. Gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanadi. "Yaxshidan bog' qoladi", kabi ta'riflar yordamida singdiriladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini gap tuzishga o'rgatishning dastlabki bosqichi hisoblanadi. Masalan, 2-sinf "Ona tili" darsligida 263-mashqda birinchi ustunda: "O'quvchi, o'z, muktab, sevadi" so'zlarini berilgan bo'lsa, ikkinchi ustunda: "O'quvchilar o'z maktablarini sevadilar" ko'rinishida gap shakllantiriladi. O'qituvchi o'quvchilar bilan quyidagi savol-javoblarni o'tkazadi:

- Qaysi so'zlardan gap tuzilgan?
- So'zlarini bir-biriga qanday bog'ladik?

O'quvchilar savollarga javob berishgach, o'qituvchi gapda so'zlar o'zaro bog'lanib tugallangan fikrni ifodalashi, gapga xos ohang bo'lishi zarurligini tushuntiradi. Agar "O'quvchilar o'z maktablarini sevadilar" – gapi tarkibidagi maktablarini so'zi tushirib qoldirilsa, gapdan anglashilgan fikr ifodalanmay qoladi. Demak, har qanday gap nisbiy tugallangan fikr anglatishi lozim.

Boshlang'ich sinf "Ona tili" darslarida gapning tugallangan ohang bilan talaffuz qilinishi ham izohlanadi. Xabar-darak ohangida aytilda darak gap, so'roq ohangida talaffuz qilinsa so'roq gap va buyruq ohangi bilan aytilda undov gap hosil bo'lishi mashq va topshiriqlar yordamida o'quvchilarga tushuntirib boriladi. Hatto bitta sodda gapni ohang yordamida har xil talaffuz qilish mumkin. Masalan: *Bahor keldi*-darak gap. *Bahor keldi*?-so'roq gap, *Bahor keldi*!-undov gap kabi.

3-sinf "Ona tili" darsligida "Gapda so'zlarning bog'lanishi" mavzusini o'rganishga alohida ahamiyat berilgan. Gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash kesimdan boshqa gap bo'laklariga so'roq berish yo'li bilan aniqlanadi. Masalan: Gullar qiyg'os ochildi.

Nimalar? Gullar (ega), nima qildi? ochildi (kesim),

Qanday? qiyg'os (to'ldiruvchi).

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga gapning grammatik qurilishi asosini kesim tashkil etishini hisobga olib, avval kesim, keyin esa ega va ikkinchi darajali bo'laklarning bog'lanishini tushuntirish eng oddiy usullardan ekanligi aytildi.



Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar og‘zaki va yozma nutqini o‘stirishda rasmlarga qarab gap tuzish ham o‘z samarasini beradi. Masalan: “O‘lkamizda bahor” tasviri berilgan rasmlar asosida kichik-kichik matnlar yaratiladi. Bunda o‘quvchilar sinf ichida bir nechta kichik guruhlarga ajratiladi va har bitta guruhga bahor fasli tasvirlangan rasmlar tarqatiladi. O‘quvchilar o‘zaro kelishgan holda rasm asosida matn tuzadilar va og‘zaki bayon qilinadi, o‘qituvchi rahbarligida ko‘rib baholanadi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qitishning noan‘anaviy usullaridan foydalanish, turli ta’limiy o‘yinlar, mustaqil topshiriqlar bajarilishiga alohida ahamiyat berilmog‘i zarur. Jumladan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish maqsadida dars boshlanishidan 5 daqiqa oldin “Mening kun tartibim”, “Men sevgan mashg‘ulot”, “Mening oilam” mavzularidan birida har kuni 3-4 ta o‘quvchi bilan suhbat tashkil qilinadi. O‘quvchilarning ushbu mavzulardan biriga kichik matn tuzib, og‘zaki bayon qilib berishi orqali og‘zaki nutqining rivojlanishiga erishiladi.

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma savodxonligini DTS talablari darajasiga yetkazish uchun turli didaktik topshiriqlardan foydalanish lozim. Ayniqsa, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon qila olish, bilim hamda ko‘nikmalarni egallashga o‘rgatmog‘imiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘rta maktablarning ona tili dasturlarini tayyorlash mezoni, “Til va adabiyot ta’limi”.
2. Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining ona tili fani darsliklari.
3. Internet malumotlari.



## TA'LIM JARAYONINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUXUSIYATLARI

**Choriqulov Rustam Ibodullo o'g'li**  
Xodjayev B Nizomiy nomidagi TDPU  
pedagogika va menejment  
kafedrasи mudiri p.f.doktori professor  
I kurs magistranti

Maktab o'quvchilarining tegishli tarkibi bo'yicha faoliyatini to'ldirish quruq ishlama usullari bilan emas, balki hissiy jihatdan ko'zda tutilgan hissiyot va faoliyat muhitini yaratish bo'yicha o'quv jarayoniga pedagogik ta'sir samaradorligini ta'minlaydi.

O'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim shart, talabalarning malaka oshirish faoliyati to'g'risida ob'ektiv ma'lumot o'qituvchisi tomonidan muntazam ravishda qabul qilinadi. Ushbu ma'lumotni ushbu faoliyatni boshqarish jarayonida qabul qiladi.

Pedagogik jarayonda nazoratni baholash tartibi, shu jumladan turli xil pedagogik choralar va o'lhash usullaridan foydalanib, mashg'ulot natijalari to'g'risida ma'lumot olish uchun harakatlarni amalga oshirish tartibi hisoblanadi.

Boshqarish eng keng tarqalgan tushuncha. U boshqa barcha kontseptsiyani kompozit strukturaviy tarkibiy qismlar sifatida qamrab oladi va o'z ichiga oladi. Boshqaruvning boshlang'ich nuqtasi kuzatuv va tekshirmoq. Kuzatuv va tekshirish jarayonida u aniqlanadi (aniqlash) va uni kuzatib borish uchun o'lchanadi (o'lhash). Kuzatuv va tekshirish natijasida asosiy ma'lumotlar to'planadi, u hisobga olinadi (buxgalteriya). Keyinchalik, ushbu ma'lumot sintez tahlil qilinishi mumkin, taqqoslanadi. Shu bilan birga, uning ma'nosи va ahamiyati, ushbu ma'lumotni boshqarish vazifalari nuqtai nazaridan aniqlash, baholash (baholash jarayoni) amalga oshiriladi. Baholash natijalari tashqi yoki ichki ifoda, og'zaki sharh oladi. Kelgusida ma'no, qadriyatlar va ahamiyatga asoslanib, ushbu ma'lumotlar pedagogik jarayonni bir xil yo'nalishda davom ettirish yoki tuzatishlar kiritish uchun signalga aylanadi. Bularning barchasi ilgari rejalashtirilgan o'quv topshiriqlarini baholash natijalari yoki ulardan farq qiladiganligiga bog'liq.

Maktab o'quvchilarining tegishli tarkibi bo'yicha faoliyatini to'ldirish quruq ishlama usullari bilan emas, balki hissiy jihatdan ko'zda tutilgan hissiyot va faoliyat muhitini yaratish bo'yicha o'quv jarayoniga pedagogik ta'sir samaradorligini ta'minlaydi.

O'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun muhim shart, talabalarning malaka oshirish faoliyati to'g'risida ob'ektiv ma'lumot o'qituvchisi tomonidan muntazam ravishda qabul qilinadi. Ushbu ma'lumotni ushbu faoliyatni boshqarish jarayonida qabul qiladi.

Pedagogik jarayonda nazoratni baholash tartibi, shu jumladan turli xil pedagogik choralar va o'lhash usullaridan foydalanib, mashg'ulot natijalari to'g'risida ma'lumot olish uchun harakatlarni amalga oshirish tartibi hisoblanadi.

Boshqarish eng keng tarqalgan tushuncha. U boshqa barcha kontseptsiyani kompozit strukturaviy tarkibiy qismlar sifatida qamrab oladi va o'z ichiga oladi. Boshqaruvning boshlang'ich nuqtasi **kuzatuv** va **tekshirmoq**. Kuzatuv va tekshirish jarayonida u aniqlanadi (aniqlash) va uni kuzatib borish uchun o'lchanadi (o'lhash). Kuzatuv va tekshirish natijasida asosiy ma'lumotlar to'planadi, u hisobga olinadi (buxgalteriya). Keyinchalik, ushbu ma'lumot sintez tahlil qilinishi mumkin, taqqoslanadi. Shu bilan birga, uning ma'nosи va ahamiyati, ushbu ma'lumotni boshqarish vazifalari nuqtai nazaridan aniqlash, baholash (baholash jarayoni) amalga oshiriladi.

Rahbarning majburiy va rag'batlantiruvchi usullari o'zaro omuxta qilinsa, mazkur yondashuvda ta'sir etishning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi usullari jamoa a'zolarini tashabbus ko'rsatishiga sharoit yaratadi. Boshqarishda ta'sir ko'rsatishning tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi usullarni tanlash qator omillarga bog'liq bo'ladi. Bunda eng avvalo pedagogik jamoaning kamolot darajasi, ya'ni uni uyushganlik, jipslik darajasi, demokratik tamoyillarni qo'llashga tayyorgarlik darajasidan kelib chiqmoq kerak. Ikkinchidan, rahbarning ilmiy-amaliy saviyasi, uslubi, boshqarish nazariyasini, ta'lim-tarbiyani tashkil etish mahorati ham muhim mezondir. Yangilikni bayroq qilib olib, demoratik, rag'batlantiruvchi tamoyillarga tarafdori sifatida ish olib borishga yuzaki intilib, jamoaning kamolot darajasi va rahbarning o'z saviyasi past bo'lsa har qanday yangilik muvaffaqiyat emas, mag'lubiyat keltiradi.



“Boshqarish usullari-deb yozadi M.Mirqosimov,-maktab ichidagi ta’lim tarbiyaviy, moliya-xo’jalik, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, maktabning turli hamkorligidagi ishlari, muallimlar jamoasi bilan ishslash kabi mavjud munosabatlardan kelib chiqadi»(48, 89). Boshqarish usullarini tanlaganda va tasnif qilganda faqat ta’lim muassasasidagi ta’lim-tarbiya, moliya-xo’jalik ishlari jarayonidagi jamoa a’zolarining munosabatlari nuqtai nazaridan emas, balki jamoa a’zolarining faoliyatida o’z ishiga qiziqish uyg’otishga ham e’tibor berish kerak.

Pedagogik jamoa a’zolarining faoliyat motivlari bo’lishi mumkin: a)har bir xodimning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog’liq bajarishi rasman majburiy motivlar; b)ularning moddiy manfaatlaridan kelib chiqadigan motivlar; v) ma’naviy motivlar.

Respublikamizda uzoq vaqtlardan beri ta’lim muassasalarining boshqarish masalalalari bilan ilmiy-amaliy shug’ullanuvchi olim M.Mirqosimov shu asosda boshqarish metodlarining tasnifini beradi.

Quyida biz shu metodlarni keltiramiz va qisqacha ularning mazmunini bayon qilamiz.

1. Ijtimoiy-ma’muriy.
2. Ijtimoiy-psixologik
3. Huquqiy.
4. Ko’rsatma berish.
5. Moddiy va ma’naviy rag’batlantirish.
6. Kuzatish
7. Suhbat.
8. Pedagogik hujjatlarni tahlil qilish.

Boshqarish tajribasi shuni ko’rsatadiki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida uni tashkiliy-ma’muriy chora-tadbirlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu metod boshqaruv bo’g’inlarini o’zaro bog’liqligini ta’minlab, unda ishtirok etuvchilarining munosabatlarini tartibga solib, ma’muriy ta’sir ko’rsatishning butun mexanizmini harakatga keltiradi. Boshqaruv tizimiga amalga oshirilayotgan harakatlar ikkiga bo’linadi: a)normativ b)shaxsiy. Boshqaruvga doir normativ harakatlar umumiy bo’ladi. Unda biron shaxs aniq ishtirok etmaydi. Ular biron sharoitga nisbatan tatbiq etiladigan umumiy hatti- harakat qoidalari bo’lib, uzoq vaqt amal qiladi. Boshqarishning shaxsiy harakatlari ma’lum sub’ektlarga qaratilgan bo’ladi.

Boshqarishning ijtimoiy-psixologik metodi jamoa a’zolari o’rtasidagi ruhiy insoniy munosabatlarni tartibga solishdir. Bunda jamoada sog’lom ruhiy-axloqiy muhit, kishilarning ruhiy, emotsiyal holati, insoniy xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’sir ko’rsatishni taqozo qiladi. Bundan har bir xodimiga jamoa orqali ta’sir ko’rsatish xodimlar bilan yakkama-yakka ish olib borish orqali jamoa a’zolarini o’zaro munosabatlari tartib solinadi.

Ijtimoiy-psixologik metod muassasa rahbarining xodimlar bilan kundalik munosabatlardagi uchrashuv va suhbatlar orqali bir birlarini tushunish, ruhiy-psixologik muammolarni hal qilish orqali ta’sir ko’rsatishni o’z ichiga oladi.

Shu narsani e’tirof etish kerakki, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida atrof-muhitdagi turli o’zgarishlar axborot manbalarning haddan ziyod ko’payganligi kishilarga ruhiy taranglikni keltirib chiqarmokda. Kishilarning tezda kayfiyati buzilishi, jahl chiqishi, o’z hissiyyotini idora qila olmaslik va hokazolar. Bunday sharoitda rahbar faoliyatida psixologik omillar ular orqali ta’sir ko’rsatish salmog’i oshib boradi. Xulosa qilib, pedagogik tizimni boshqarishda huquqiy ta’sir ko’rsatish muhim o’rin egallaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jamiyat hamma sohalarini boshqarishda qonun ustuvorligi va shu asosda fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish boshqarish sohasiga ham taaluqlidir.

### **Adabiyotlar**

1. Abdullayeva SH, A.S. S. Sayitov, G. I. Xalikova. Istorija pedagogiki.-T.: Axborot texnologiyalari, 2008.-323s.
2. Zaripov K. Ta’lim tizimini boshqarish.-Toshkent: Fan, 2005.-189-bet.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING IZLANUVCHANLIK  
QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Suyarov Kusharboy  
falsafa fanlari doktori (PhD)  
Tojiboeva Dinora Turaboevna  
I kurs magistranti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'navi salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tingdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" - deb ta'kidlashi boshlang'ich ta'lim oldiga mamlakatimiz yoshlarini o'z fikrini og'zaki va yozma ravishda erkin va savodli bayon qila oladigan mustaqil fikr sohiblari etib tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Ta'lim jarayonidagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyatga joriy etish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biridir. O'quvchilarini fikr doirasini, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan, erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhim. O'qituvchi darsda boshqaruvchi, o'quvchilar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vaziyatni uddalashda innovatsiya faoliyati ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Bugungi yangilanish, ma'naviy yuksalish davrida har tomonlama yetuk, bilimdon, ijodkor yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunning asosiy talablaridan biridir. Bunday mas'uliyatli va sharaflı vazifalarni hal etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'rni va xizmati kattadir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy o'qish darslarida bolaning izlanuvchanlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar shunday bir davrdalarki, bu vaqtida ularda nafaqat jamiyatda yashash qobiliyati, balki izlanuvchanlik fikrlash ham shakllantiriladi. Ayrim boshlang'ich sinf o'qituvchilar bolani o'qishga o'rgatish asosiy vazifa deb bilishadi. Albatta, o'quvchilarni birma-bir o'qish ko'nkmalarini shakllantirish o'qituvchidan katta mahorat va mas'uliyat talab etadi. Biroq, yuzaga chiqmagan bolalar iste'dodi muammosi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bu masalani hal qilishda ya'ni o'quvchilar izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradigan vositalardan biri badiiy o'qish darsidir. Odatda, badiiy faoliyat bolalarning izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishning eng samarali yo'nalishi hisoblanadi. Bunga tasviriy san'at, texnologiya va musiqa darslari yordam beradi. Ammo, o'qish va ona tili, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlar ham o'quvchilarining izlanuvchanlik salohiyatini rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega. Aslida, izlanuvchanlik qobiliyat qobiliyatlarning standart tushunchasidan tashqariga chiqish qobiliyatini anglatadi. Badiiy o'qish darslarida o'qituvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga bog'liq ravishda, izlanuvchanlik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishning innovatsion usuli sifatida turli xil o'yinlardan foydalaniladi. Shuni esda tutish kerakki, boshlang'ich sinf bolasi hali ham bunday o'yinlarga moyil bo'ladi. O'quvchilarining ichki imkoniyatlarini ochishda o'z isbotini topgan metodlarni berib o'tamiz. O'qish darsining boshida soddalashtirilgan "Aqliy hujum" dan foydalanish. Bu esa o'quvchilar bilimlarini takrorlagan holda, o'tilgan materiallarni eslab qolishga, yangi bilimlar olishga tayyorgarlik ko'rishda yordam beradi. "Men o'zimni namoyon qilaman". Yangi adabiy tushunchalar bilan tanishishdan oldin, o'quvchilar o'zlarini eng yaxshi tomonдан ko'rsatish taklif qilinadi. Ushbu uslub izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishdan tashqari, notiqlik mahoratini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi rivojlangan monologga ega bo'lgan o'quvchi mantiqiy, izchil va oqilonqa ravishda o'z fikrlarini ifoda eta oladi, o'quv dasturidagi murakkab savollarga batafsil javob bera oladi, darsliklar, badiiy adabiyot va xalq og'zaki ijodi matni ustida mustaqil ishlay oladi. "So'zlarni taqqoslash". Bunda o'quvchilarga har xil ma'noga ega bo'lgan ikkita so'zni (qazilma va ko'pyoq) taqqoslash taklif qilinadi. O'quvchilarining vazifasi ushbu so'zlarning o'zaro bog'liqligiga imkon qadar ko'proq misollar keltirishdir.

"Nostandard vaziyatlarni taklif qilish". Bu matn bilan ishlashda o'quvchilarini kutilmagan savollarga javob berish so'raladi: - Odamlar boshlarida yurishni boshlasalar nima bo'ladi? - Agar sut jo'mrakdan oqib chiqsa nima bo'ladi? va hakozo. Matn bilan ishlashda savollarni tanlash ham



nostandart bo‘lishi kerak. Asosiysi, bola savolda qanday xarakter qayd etilganligi haqida tasavvurga ega. Bu jarayonda mantiqiy bog‘liq bo‘lgan, kompozitsion va grammatic jihatdan ishlab chiqilgan, kengaytirilgan va to‘liq, hissiy va semantik bayon qilingan izchil nutq rivojlanadi. “Sinonimini top”. Atamashunoslikka murojaat qilmasdan, o‘quvchilarni o‘xshash ma’noli so‘zlarni topish taklif qilinadi. Buni ommaviy ish shaklida, balki juftlikda ham amalga oshirish mumkin. “She’rni davom ettir”. Bunda o‘quvchilarga she’rdagi yo‘qolgan satrlarni davom ettirish so‘raladi: Qudrat Hikmatning “Bahor” she’ri misolida.[1, 105 b.] Bedapoya yam-yashil o‘tloq, Chinorlarda qushlar chug‘urlar. Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq.

.....“Taqlid”. Bu metodni o‘tkazishda mavzu o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi va bolalar topshiriqni bajarish jarayonida asar qahramoniga mos harakatlar qilishi talab qilinadi. O‘quvchi obrazga kirishi bilan nutq va harakatlar hamohang bo‘lishi kerak. “Yozuvchi”. Ushbu yoshdagagi bolalar xayol qilishni yaxshi ko‘radilar, uni har jihatdan rag‘batlantirish kerak. Dastlab, o‘quvchilar o‘qilgan matn uchun boshqa sarlavha taklif qilishadi. Barcha aytilgan variantlar ijobjiy baholanib, ularning ichidan eng yaxshi g‘oyalar saralanadi. O‘qituvchi asar yakunini ochiq qoldiradi va o‘quvchilardan matnning oxirini “yozib tugatish” so‘raladi. Bu bolaga asar qahramonlarining tarixiga chuqur kirib borish uchun imkoniyat bo‘ladi. Asarni yangi talqinda ixtiro qilish juda yaxshi uslubdir. “Teatr tomoshalari”. Badiiy o‘qish darsining bir qismi sifatida, o‘quvchilar uchun kichkina “yulduzlar” va kelajakdagi haqiqiy iste’dodlarni topish mumkin. O‘quvchi asar qahramonni tasvirlashda o‘qituvchining samimiyl maqtoviga sazovor bo‘lishi, ilgari “noma’lum” bo‘lgan o‘quvchining sinfdoshlari orasida obro‘sini oshiradi. Metodning muvaffaqiyati o‘quvchilarning kichik sahnalarda eng yaxshi tomonlarini ko‘rsatishga harakat qilishidadir. Darsdagi dam olish daqiqalari ham bolaning izlanuvchanlik fikrlashiga ta’sir qiladi, olingan ma’lumotdan tanaffus olish imkoniyatini beradi. “Izlanuvchanlik yengillik mashqlari bolaning tanasiga ortiqcha kuchlanishdan xalos bo‘lishga, psixologik muvozanatni tiklashga va shu bilan ruhiy salomatlikni saqlashga yordam beradi” [2, 512 b]. Xulosa qilganda, zamonaviy ta’lim barcha o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini namoyish etish va barcha izlanuvchanlik qibiliyatlarini istisnosiz namoyish etish imkoniyatini beradi. Bugungi jamiyat quti tashqarisida o‘ylaydigan, muammoli vaziyatdan chiqish yo‘lini topa oladigan, nostandart qarorlar chiqaradigan va izlanuvchanlik fikrlay oladigan shaxslarga muhtoj. Buning uchun, boshlang‘ich sinflardan boshlab bolalarni izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchining izlanuvchanlik jarayoni o‘zgaruvchan sharoitlarda son - sanoqsiz ta’lim muammolarini doimo hal etishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Ijod inson faoliyatining xususiyati - inson faoliyatining tarixan tadrijiy shakli bo‘lib, turli faoliyat turlarida ifodalananadi va shaxs taraqqiyotiga olib keladi. Ijod - mahsulot yangiligi, izlanuvchanlik fikrlash. Ijodkor shaxs o‘z ijodkorligini ifodalovchi shaxsiy va ishbilarmonlik sifatlari (faollik, tashabbuskorlik, maqsadga muvofiqlik, mas’uliyat, harakatchanlik) uyg‘unligi bilan ajralib turadi. Hayot zamonaviy o‘qituvchidan innovatsion xulq - atvorni, o‘quv faoliyatida faol va tizimli ijodni talab qiladi. Innovatsiyalar, odatda, pedagogik faoliyat standartlari nuqtai nazaridan ekspertizaga, ularning sifatiga baho berishga muhtoj. Ularning maqsadi pedagogik makonni rivojlantiradi, yangi ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqadi. O‘qituvchining izlanuvchanlik kompetentligi o‘z imkoniyatlarining kasbiy sifatlarni xolisona baholashi, o‘z - o‘zini tartibga solishi, o‘z - o‘zini baholashni jalg qilish bilan xarakterlanadi. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchilarni tadqiqotchi va ijodkor bo‘lishga undash va tashabbus ko‘rsatish bilan birga, ta’lim muhitining xilma - xilligini 79 ko‘rsatadi. Ishning samaradorligi kompetentlik yondashuviga, o‘qituvchining o‘quvchi bilan hamkorligiga, izlanuvchanlik pedagogik ta’lim berish uchun ijobjiy motivatsiya, muvaffaqiyatga yo‘naltirish, ta’lim sifatini boshqarish maqsadida ob‘yektiv va solishtirma ma’lumotlar olish qobiliyatini ta’minalashga qaratilgan tadbirlar. O‘qituvchining izlanuvchanlik kompetentligini shakllantirish ko‘p jihatdan shaxsiy amaliyotni tahlil qilish va izlanuvchanlik muloqotga jalg qilish, ya’ni ish, monitoring va harakatlarni to‘g‘rilashning umumiyl usullarini rejalashtirish, birlgiligidagi harakatlarni o‘z - o‘zini tashkil qilish qobiliyati, xatti - harakatni boshqarish va ishontirish qobiliyatiga bog‘liq. Izlanuvchanlik likni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim: - bir necha o‘qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o‘quvchilarning kayfiyatini, o‘qituvchining o‘quvchilar bilan bo‘ladigan munosabatlarini aniqlash; - o‘qituvchining darsda qanday usullarni qo‘llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o‘quv - tarbiyaviy muammolarning yechimini topishini aniqlash; - o‘zining muloqot tehnologiyasini boshqa o‘qituvchining “texnologiyasi” ga taqqoslashi; - tajribali o‘qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali



muloqot jarayonidagi o‘quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash; - o‘zining darsidagi muhiti bilan boshqa tajribali o‘qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish va boshqalar.

Boshlang‘ich ta’limning maqsadi - bolalarning har tomonlama umumiy rivojlanishini davom ettirish bilan birga o‘qish, yozish va muhim matematik o‘quv ko‘nikmalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Mazkur vazifani bajarish quyidagilarni talab qiladi: - izlanuvchanlik jarayonni pedagogik jarayonga kiritish (o‘yinlar, dramaturgiya, badiiy moddellashtirish, eksperiment, og‘zaki ijod, raqs va musiqa); - estetik tarbiyaga oid darslar mazmunini boyitish, bolalarni milliy badiiy madaniyatga o‘rgatish; - mакtabda mavzuli muhitni rivojlantirishni tashkil qilish; - ayniqsa birinchi o‘quv yilida o‘yin uslublarini keng qo‘llash. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda uzbekiylikni amalga oshirishda ota-onalar va o‘qituvchilar bir-birlarini yaxshi 49 o‘rganishlari muhim ahamiyat kasb etadi va birgalikda bola tarbiyasi va o‘qishida yaxshi natijalarga olib keladi. Demak ota-onalar foaliyati shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki, ular maktabga ishonch ko‘zi bilan qarashlari, ta’lim tizimini hurmat qilishlari kerak. Shu bilan birga ota-onalar jamoasini pedagog xodimlar hurmat qilishlari va ular bilan ishlashni bilishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. Har sohada kompetent o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o‘zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. O‘qituvchining yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma – xil va turli - tumandir. Unda pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik kompetentlikni va ijodkorlikni talab etadi.

### **Adabiyotlar:**

1. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi 4-sinf. – Toshkent.: “Yangiyo‘l poligraf servis”, 2020. 105-bet.
2. Vigotskiy L. S. Bola rivojlanishining psixologiyasi. – Moskva.: “Eksmo”, 2010. 512 b.



**ПЕДАГОГИКА ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА МУТАХАССИСЛАР  
ТАЙЁРЛАШДА КЛАСТЕР МОДЕЛИНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Абдувалиев Адхамжон Исмоилович**  
(ТВЧДПИ)

Жаҳондаги ривожланган мамлакатлар бугунги глобаллашув шароитида иктисодиётнинг барча тармоклари, шунингдек, ижтимоий соҳаларнинг баркарор тарақкиётини белгилашда таълим соҳасини модернизация қилиш, таълим сифатини замонавий ривожланиш тамойилларига мувофиқ такомиллаштиришга алоҳида эътибор каратмоқда. Бу, албатта, таълим тизимиға янги инновацион хамда замонавий ёндашувлар, самарали ўзгаришлар ва педагогик технологияларни фаол татбиқ этиш жараёнлари билан боғлиқ равишда кечмокда. Хусусан, тизимда “таълим кластерлари”ни кўллаш масаласи кенг ўрганилмоқда.

“Таълим кластерлари” тушунчаси Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2020 йил 29 апрелдаги 5987-сонли фармонида илк бор қўлланилган бўлиб, бу мамлакатимизда кластер ёндашувининг таълим тизимиға татбиқ қилиниши ва уни илмий жихатдан чуқур тадқиқ қилиш долзарб масалалардан эканлигини кўрсатади.

Кластер ёндашувининг таълим тизимиға татбиқ қилиш ва уни илмий жихатдан тадқиқ қилиш бўйича қатор изланишлар олиб борилган. Хусусан, Майл Портр назариясига мувофиқ, кластер - бу маълум бир соҳада фаолият юритувчи ва бир-бирини тўлдирувчи географик жихатдан ёнма-ён жойлашган компаниялар (таъминотчилар, ишлаб чиқарувчилар ва бошқалар) ва уларга алоқадор ташкилотлар гуруҳи (таълим муассасалари, давлат бошқаруви органлари, инфратузилма компаниялари).

М.Портр мамлакатнинг рақобатбардошлигини алоҳида ишлабчиқариш бирлашмаси эмас, балки ҳалқаро рақобатбардошлик призмаси орқали кўриб чиқиши лозим, кластерларни эса - турли тармоқлардаги фирмаларнинг бирлашмалари бўлиб, бундан ташқари ушбу кластерларнинг ички ресурслардан самарали фойдаланиш қобилияти муҳим аҳамиятга эга, деб хисоблади. Бундай афзалликларнинг асосий гуруҳлари сонига кўра «ракобатга оид ромб» (ёки «олмос») деб номланган мамлакатларнинг рақобатга доир устунлигини белгилайдиган тизимни ишлаб чиқди. Уларга қуйидагилар киради:

- омилли шароитлар: инсоний ва табиий ресурслар, илмий ва ахборот салоҳияти, капитал, инфратузилма, шу жумладан хаёт сифати омиллари;
- ички талаб шартлари: талаб сифати, жаҳон бозорида талабнинг ортиши тенденцияларга мувофиқлиги, талаб ҳажмининг кенгайиши.
- бир бирига яқин ва хизмат кўрсатувчи тармоқлар (тармоқлар кластерлари): хомашё ва ярим тайёр маҳсулотлар билан таъминлаш соҳалари, асбоб-ускуналар билан таъминлаш соҳалари, хом ашё, ускуналар, технологиялардан фойдаланиш соҳалари.
- ишлаб чиқариш бирлашмалари тузилмаси, тармоқ ичидағи рақобат: мақсадлар, стратегиялар, ташкил этиш усууллари, фирмаларни бошқариш, тармоқ ичидағи рақобат.

Умуман олганда, кластерларнинг учта кенг таърифи мавжуд бўлиб, уларнинг ҳар бири унинг ишлашининг асосий хусусиятларини юзага чиқаради:

- бу маълум илмий муассасалар (илмий-тадқиқот институтлари, университетлар ва бошқалар) билан боғланган, тегишли соҳалар доирасидаги иқтисодий фаолиятнинг минтақавий чекланган шакллари.

- бу вертикал ишлаб чиқариш занжирлари; ишлаб чиқариш жараёнининг ёнма-ён босқичлари кластернинг ядросини ташкил этадиган анча тор муайян тармоқлар (масалан, «етказиб берувчи - ишлаб чиқарувчи - сотувчи - мижоз» занжiri). Бош ишлаб чиқариш бирлашмалари атрофида ташкил этиладиган тармоқлар худди шу тоифага киради.

- бу юқори даражадаги йиғилиш даражасида аниқланган соҳалар (масалан, «кимё кластери») ёки агрегациянинг янада юқори даражадаги тармоқлари тўплами (масалан, «агро-саноат кластери»).

Кластерлар ҳақида гапирганда, бир-бирини тўлдирувчи иккита стратегия мавжуд:

- мавжуд кластерлардаги билимлардан фойдаланишни кўпайтиришга қаратилган стратегиялар;
- кластерлар доирасида янги ҳамкорлик тармоқларини яратишга қаратилган стратегиялар.



Шундан келиб чикиб, республикамиз олий таълим муассасаларида индивидуаллаштирилган ва дифференциаллашган таълим орқали ўқувчининг қобилияти, иктидори ва креатив компетентлигигини шакллантириш кластер ёндашуви асосида таълим мазмуни ва турлараро интеграцияни таъминлашни ҳамда самарадорликни оширишни такозо этмокда

Таълимни модернизация қилиш шароитида кластер модели воситасида олий таълим муассасалри фаолияти самарадорлигини оширишдаги ролини кучайтириш, олий таълим кластери тузилмасини, таълим олувчиларда ижодий ва креатив кўнкималарни ривожлантириш механизмларини ишлаб чиқиш, узлуксиз таълим тизимида кластер ёндашувини шакллантириш ва ривожлантиришни ўрганиш долзарб аҳамиятга эга.

Таълим кластери талабаларнинг келажакдаги касбий фаолияти соҳасида узлуксиз «сувга шўнғиши» имкониятини беради, илғор тажрибани ўрганиш, умумлаштириш ва тўплаш, илм-фан ютуқларини зудлик билан синаб кўриш, касбий тайёргарликни ташкил этиш ҳамда мазмунини янгилаш, умумлаштиришга шароит яратади. Таълим кластерини жорий қилиш орқали истиқболли мутахассисликлар очилади, янги фанлар ва замонавий ўқитиш технологиялари жорий етилади, олий таълим тизимини ислоҳ қилиш имконияти кенгаяди. Таълим кластерининг афзалликлари - таълимнинг сифати, узлуксизлиги, узлуксизлиги, мавжудлиги, рақобатбардошлигини таъминлаш ҳисобланади.

Таълим кластерида марказий ўринни ўз атрофида таълим ҳолати ва таълим муассасаларини бирлаштирган университет ҳисобланади. Бу жараён фанни мустаҳкамлашга, уни амалиёт билан синтезлашга олиб келади. Университетлар ва ўрта маҳсус касб-хунар таълими муассасаларининг ўқитувчилар жамоалари ўқув фаолияти назарияси ва амалиёти ва натижаларини ўқув жараёнига татбиқ этиш бўйича тегишли тадқиқотларни олиб бормоқдалар

Таълим кластери доирасида ижтимоий шерикларнинг ўзаро алоқаларини ташкил этиш қуйидагиларга имкон беради:

- узлуксиз ва кўп даражали касбий таълимни ташкил этиш;
- олий таълим муассасаларининг моддий-техник базасини яхшилашга ҳисса қўшиш;
- ўқув кластерининг барча предметлари қизиқишини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчилар таълими таркибини танлаш ва тузиш;
- таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий ўсишини рағбатлантириш;
- ўрта касб-хунар таълими муассасалари битирувчиларини танлаган ихтисослиги бўйича аниқ мартаба истиқболлари билан иш билан таъминлашни кафолатлаш, касбий ваколатларни шакллантириш ва тақомиллаштириш

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, илмий ва ўқув кластерларини барқарор ривожлантириш курси республикада ўсишнинг қайси асосий нуқталари мавжудлигини ва уларнинг ривожланиши учун турли хил манфаатлар гурухлари нима қилиши мумкинлигини ҳисобга олишни ўз ичига олади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан тақомиллаштириш бўйича кушимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5987-сон Фармони: Тошкент ш., 2020 йил 29 апрель.
2. Портер М. Международная конкуренция. - М., Международные отношения, 1993.
3. Чечелюк П., “Кластер не пресмыкательство перед Западом, а новая инициатива в строительном бизнесе”. - “Зеркало недели”, №36, 20.09.2003
4. Залаялова А.Г.Плюсы образовательного кластера. (Интернет манба)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(10-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000